


**Axmadaliyev Berdali  
Saydaliyevich**

# **TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Axmadaliyev Berdali Saydaliyevich

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**  
Darslik

Ta'lim yo'nalishi: 60110500-Boshlang'ich ta'lim

a

TOSHKENT-2024  
Osiyo tur

r

**UO'K 373  
KBK 74.00  
A-98**

**B.S.Axmadaliyev / Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Darslik.** – Toshkent:  
«Osiyo tur», 2024. – 248 bet.

Mazkur darslik boshlang'ich ta'limda Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo'yicha ilk bor tayyorlangan bo'lib, unda tarbiyaviy ishlar metodikasining nazariy masalalari, metodologiyasi va amaliyoti omillari tahlil etilgan. O'quv qo'llanmani tayyorlashda milliy pedagogik tajriba va xorijiy pedagogik an'analar uyg'un hisobga olingan. Mazkur o'quv qo'llanmaning asosini o'qitishning kredit-modul tizimi qoidalari va talablari tashkil etadi. Undan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishi tavsiya etiladi.

**Taqrizchilar:**

**Fotima Uralovna Jumanova** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**Ochilov Faruddin Izzatullayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligining 2023-yil 29 maydagi 232-soni buyrug'iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.*

**UO'K 373  
KBK 74.00**

**ISBN 978-9943-9169-9-9**

© B.S.Axmadaliyev, 2024  
© Osiyo tur, 2024

**MUNDARIJA**

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsad va vazifalari	7
2. Tarbiya turlari, usullari, shakkllari va texnologiyalari	13
3. O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish borasida sinf rahbari olib boradigan ishlar. Sinfda intizomni mustahkamlash	20
4. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining asosiy vazifalari	26
5. Sinf rahbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi	32
6. Sinf tarbiyaviy soatlari haqida umumiy tushuncha. Sinf majlisini tashkil etish	50
7. Sinfdan va muktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari	67
8. Sinfdan va muktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalshtirish metodikasi	79
9. Tarbiyaviy tadbirlar va ularni o'tkazish metodikasi. Muktabda to'garak ishlarini tashkil etish	86
10. Jamoa haqida umumiy tushunchajamoani tashkil etish metodikasi sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalash.	91
11. Oila, muktab, mahalla hamkorligining shaxs ma'naviyati shakllanishidagi o'rni	98
12. Oila va jamiyatning inson hayotidagi o'rni	101
13. Ota-onalar bilan ishlash, ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish	111
14. Sinfdan va muktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi. Sinfdan va muktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish va unda tashkilotchi shaxsiga bo'lgan talablar	123
15. Tarbiyada muomala mahorati. O'quvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati	130
16. Tarbiyaviy ishlarning o'quvchi tarbiyasiga ta'siri. Tarbiyaviy ishlar orqali insonparvarlikni tarbiyalash	148
17. Iste'dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash. Sinf faollarini aniqlash. Sinf rahbari va bolalar yetakchisi	156
18. Sinf rahbari ishining maqsadi va vazifalari. Muktabdagagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi	158
19. O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish borasida olib boradigan ishlar. O'quvchilarni pedagogik kuzatish	169
20. O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari	173
21. Muktab o'quvchilari shaxsini har tomonlama kamol toptirish. Sinf jamoasinitashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi	182
22. O'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan ishslash usullari. Jamoada o'quvchilarni o'rtoqlik va do'stlik hissida tarbiyalash. O'quvchi va o'qituvchi munosabat	194

23. Ajdodlarimiz madaniy merosi. Sharq mutafakkirlarining merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash	219
24. Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish. Oilaviy urf-odatlar, an'analar. Ota-onalar va sinf majlisini tashkil qilish	227
25. Tarbiyaviy tadbirlar va ularni o'tkazish metodikasi. Tarbiyaviy tadbirdarga ssenariy yozish	237

## KIRISH

Pedagogika sohasida oliy ma'lumot beruvchi zamonaviy ta'lim muassasalari oldiga yuksak ma'naviyatlari shaxsnini tarbiyalaydigan mutaxassislarini tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda. Bunda har bir shaxsning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yosh avlodni ijtimoiy muhofaza qilish, ya'ni ruhiy kamolotini yuksaltiruvchi muhitni yaratish, buning uchun sog'lom muhit va tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish muhimdir.

"Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", – degan juda chuqur ma'noli ibora bor. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ana shu qoidaga amal qilinmog'i lozim bo'ladi. "Mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi platformasi, strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rta tashkil qilishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan butunlay yangi bosqichgako tarishimiz kerak"<sup>1</sup>ligi hisobga olinib hamda umumiyligi o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlari va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiyligi o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida "Odobnama", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda 1 — 9-sinflarda — 2020/2021- o'quv yilidan, 2021/2022- o'quv yilidan boshlab esa 10 — 11-sinflarda yagona "Tarbiya" fani amaliyotga joriy etildi.<sup>2</sup>

Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviyligi, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish bugungi milliy tarbiya tizimining bugungi kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. Prezidentimizning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu — yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim — yoshlar! Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"<sup>3</sup>, - deya ta'kidlagan fikrlari ham bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylanganligini ko'rsatib beradi.

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, ўзгулук ва бунёдкорлик — миллий гоямизнинг пойдеворидир. Т.: Тасвир. 2021. 14-бет.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori.

<sup>3</sup>President Sh. Mirziyoyevning "Ijtimoriy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofigini asrash – davr talabi" anjumanidagi nutqidan.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansning tamal toshi qo'yilayotgan yangicha o'zgarishlar sharoitida "Taraqqiyot strategiyasida" belgilangan oliy ta'lif tizimida kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro'yobgachiqarish, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lif-tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini yuragida tuya oladigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutish bilan birga, ta'lif sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

Ushbu qo'llanmani tayyorlashda ana shu yuksak talablar asosiy diqqat-c'tiborda tutildi. Zero, buyuk islohotlarni amalga oshirishda O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosidir. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham yuksak axloqiy fazilatlarga ega, teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdan iboratdir.

## I-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

- 1.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
- 2.Tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan metodlar.
- 3.Tarbiyaviy ishlar jarayonining ijtimoiy ahamiyati.
- 4.Tarbiyaviy ishlar metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

**Mavzuning maqsadi:** tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyati, tarbiyaviy ishlar jarayonining ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bog'liqligini ko'rsatib berish.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, "tarbiya" tushunchasi, tarbiyaning mazmun-mohiyati, tarbiya funksiyasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, tarbiya metodlari, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy munosabat.

### 1. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Bugungi kunda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Yangi O'zbekiston mafkurasingin mazmun-negizida tarbiya masalasi yotibdi. **"Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz."**<sup>4</sup> Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqildi. "Ta'lif to'g'risida"<sup>5</sup>gi yangi Qonunning mazmun-mundarijasi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilganligini keltirish kifoya.

*Tarbiya —yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsning aqly, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan, insonnинг jamiyatda muvaffaqiyatli yashashini ta'mintash uchun zarur bo'lgan yuksak insoniy xususiyatlarini tarkib toptirish jarayonlaridir.*

Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mayjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

"Ta'lif to'g'risida"<sup>5</sup>gi Qonunda tarbiyaga shunday ta'rif berilgan: **"Tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har**

<sup>4</sup>Мирзиев Ш. Инсонтарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – милий формизнинг пойдеворидир. Т.: Тасвир. 2021. –б.6.

**tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.”<sup>5</sup>**

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirdilar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya faqatgina oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunda tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Insoniyatning boy ma'naviy – tarixiy merosidan tarbiya jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma'naviyat sohibi qilib voyaga yetkazish, unda chin insoniy fazilatlarni tarkib toptirishko'p jihatdan tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismi quydagi lardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota-onasi va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish, bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi:

- tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarining kundalik hayotiy voqealari jamoadagi tartib-qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlari va ularga bir butun yondashuv kabilardir;
- tarbiyaviy ishlarning maqsadi, anqligi va ta'sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihashtirish, shakl, metod, shart-sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;
- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarining o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarining ruhiy holatlari, muloqot va munosabatda bo'lislari, ruhiy shart-sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirdarni gigiyena qoidalariiga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.
- O'quvchi-yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirdarni tashkil qilishda o'quvchi-yoshlarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyorilik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq;

- Tarbiyaviy ishlar ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasini hisobga olish

<sup>5</sup>Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Конуни, 2020 йил 23 сентябрь. ЎРҚ-637-сон. (Конун дужжатлари маълумотлари милий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон)

ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi yosh avlodni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oyani singdirishda kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki yosh avlodga tarbiya berish tizimida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O'qish va tarbiya jarayonining uzviyilagini ta'minlash ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun sinfdan, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir.

Har bir fanning predmeti, o'rganish obyekti, amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalari mavjud bo'lganidek, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ham predmeti, o'rganish obyekti va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalari bor. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining **predmeti-sinfda va maktabda, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish, har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashning eng zamonaviy va eng qulay yo'nalishlarini belgilash, vositalarini izlab topishdan iboratdir.**

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining **predmetibo'lajak o'qituvchi – tarbiyachilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san'atining qirralari, shakl va yo'llari hamda mazkur fanga oid bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.**

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining **o'rganish obyektini esa ta'lim muassalaridagi uzlusiz ta'lim–tarbiya jarayoni tashkil etadi.**

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilarining tarbiyaviy ish va tadbirdarning mazmunli bo'lishini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyat va urf-odatlardan keng foydalanishga, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilishga qaratilgandir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaviy ishlar shaxs kamolotining uzlusizligini va uzviyilagini muvaffaqiyatlari ta'minlaydi. Shu jihatdan har tarbiyaviy ishlar tizimi shaxs kamolotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlar sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik kabilarning asosiga aylanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o'rinnegallaydi. Shu sababli bugungi yoshlar dunyoqarashida millat, Ona zamin, Ona Vatan kabi yuksak tushunchalar turli xil tarbiyaviy tadbirdar, boy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalar bilan tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda, ular ongiga millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy g'oya, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni

sindirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

**Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa**, - degan edi, ulug' olim Arastu. Shunga asosan, tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:


- tarbiyaviy ishlar jarayonida va tarbiyada ulg'ayayotgan inson shaxsini oliv ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish;

- milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;

- o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos turli xil ma'nnaviy-ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, mehnat, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy **vazifasi-yosh avlodni ma'nnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'nnaviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va an'analarga tayanib, ongli shaxslarni intellektual salohiyatlari qilib tarbiyalashdir**.

Ushbu fanning predmeti va vazifalari quyidagi chizmada muxtasar qilib keltirilgan:



Bo'lg'usi boshlang'ich ta'lum fani o'qituvchisi "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" faninio'rganish orqali o'zida quyidagi pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishi lozim bo'ladi:

- o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish;

- tarbiyaviy ishlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish;

- ilg'or tajribalarni tahlil qilish va undano'z faoliyatida ijodiy foydalanish;

- tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish;


- tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim. Bunda quyidagilar doimiy diqqat-e'tiborda tutiladi:

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o'rinnutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba'zi bir talablarga ta'sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi.

2. Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihatni barkamol avlodning har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilar yoshlari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda mahoratilikka, metodikaga tayanishlari maqsadga muvofiqdir.

#### **Tarbiyaviy ishlar metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

Tarbiyaviy ishlar metodikasining fanlar bilan bog'liqligini quydagicha chizmada ifodalash mumkin:



Har qanday fanlarni o'qitishning maqsadi yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, ularning dunyoqarashini shakllantirishni bilish nazariyasining umumiy qonuniyyatlari asosida hosil bo'lib, har qanday shaxs faoliyatida metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan falsafa fanining roli beqiyosdir. Shuning uchun shaxs tarbiysi jarayoni bilan shug'ullanadigan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani falsafa fani bilan bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ta'lum muassasalaridagi tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish bilan shug'ullanlanganligi sababli pedagogika fani bilan uzvii bog'liqdir. Chunki pedagogika fani bola tarbiysi va ularni o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan masalalarni amalga oshiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish va uning samaradorlik darjasini shaxsnинг qanday tarbiya topganligiga

bog'liq. Shuning uchun tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar bilan bog'liq holda rivojlanganligi tufayli pedagogikaning qonuniyatlariga tayanadi.

Tarbiyaviy ishlar jarayoni tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatlarida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatini bilmasdan turib, tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Shaxsning ruhiy holati va yosh xususiyatlarni o'rganadigan fan psixologiya fani hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish shaxsning psixologik xususiyatlarga bog'liq bo'lganligi uchun psixologiya fanining yutuqlariga tayanib ish olib boradi.

O'quvchilarни to'g'ri tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga e'tiborni qaratish tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki o'quvchi organizmining rivojlanishini bilmasdan unga ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Anatomiya, fiziologiya fanlari odam organizmi, uning rivojlanishi, tuzilishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiyaviy ishlar fani anatomiya, fiziologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq ish ko'radi.

Har qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda, tarbiyaviy tadbirdarni tashkil etishda o'quvchilarning gigiyenik qoidalariiga asosan yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Ko'rinish turibdiki, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani gigiyena fani bilan ham bog'langan.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Axloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur. Axloq normalari va axloqshunoslik bilan etika fani shug'ullanadi. Shunday ekan, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani etika bilan ham uzviy bog'liqidir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol vatopshiriqlar**

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. Tarbiyaviy ishlar metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi haqida fikrlaringizni aytинг.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Ismoilova Z, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: Istiqlol, 2003
2. Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. T.: Fan va texnologiya, 2010
3. Tarbiya ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

## **2-MAVZU: TARBIYA TURLARI, USULLARI, SHAKLLARI VA TEXNOLOGIYALARI**

### **Reja:**

1. Tarbiyaning umumiyl usullari va uning tavsifi.
2. Tarbiya turlari haqida tushuncha
3. Pedagogik munosabat turlari.

**Tayanch ibora va atamalar:** tarbiya nazariyasi, tarbiya qoidalari, tarbiya turlari, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiysi, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, ekologik tarbiya, huquqiy tarbiya, tarbiyaning umumiyl usullari, tarbiya usullariga tavsif, pedagogik mahorat asoslari, pedagogik munosabat va uning turlari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etish masalalarini o'rganadi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlardan foydalanadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari – pedagogikaning umumiyl asoslari, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatları rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o'sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mustahkamlashadi.

### **Tarbiya qoidalari**

Tarbiya qoidalari pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Ta'lim qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalari hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

### **Tarbiya qoidalariга quyidagilarni kiritish mumkin:**

- tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- o'qituvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- izchillik, tizimlilik, uzlusizligi.

### **Tarbiya turlari ta'rifи**

**1. Aqliy tarbiya.** Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va faktlardan foydalanshing o'zi yetarli emas, buning uchun fikrash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, asosiy ma'lumotni ajratib olish kabi jarayonlarni ham faol qo'llash lozim bo'ladi. Aqliy mehnatni

to‘g‘ri tashkil qilish o‘quvchilarga mustaqil bilim olishda eng muhim element bo‘lib hisoblanadi. Aqliy tarbiya o‘quvchilarda aqliy mehnatni to‘g‘ri tashkil etish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish malakasining hosil bo‘lishiga ko‘maklashadi. Aqliy tarbiya o‘quvchilarda didaktikani jamlab olish xususiyati, xotirani mustahkamlash, fikrlash operatsiyalarini ratsional o‘tkazish kabi malakalarni o‘stiradi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o‘tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik bu — donolik. Donolik bu — insonning eng buyuk va oljanob fazilatidir. Donolik noyob ne‘matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, xalq donoligida „Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo‘imas“, deyiladi.

**2. Axloqiy tarbiya** — „Axloq“, „xulq“ va „atvor“ so‘zlarini arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma‘nosida qo‘llaniladi. Ayrim odamlar „Axloq —kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me’yorlari majmuyi“ deyishsa, boshqalar esa „Axloq—ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatlarni tartibga solish funksiyasini bajaradi“, deyishadi. Axloq me’yorlari xulq-atvorning regulatoryori sifatida odat me’yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo‘lsa, axloq ixtiyoriydir. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo‘lishga o‘rgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq ta’limi tizimida o‘qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammal-lashishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi.

**3. Mehnat tarbiyasi.** Mehnat tarbiyasi oldida turgan asosiy vazifa o‘quvchilarga mehnat ta’limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o‘rgatib, hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir. Bu vazifalarni ikki turkumga ajratish mumkin. Birinchidan, mehnatga bo‘lgan munosabat jarayonidagi zarur bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Yoshlarda xalqi, vatani manfaati yo‘lida mehnat qilish xohishini tarbiyalab, mehnatga hayotiy zarur faoliyat deb qarashlarini tarkib toptirishga erishiladi. Ikkinchidan, guruh vazifalari, mehnat faoliyatini bajarish jarayonda zarur bo‘ladigan bilimlar o‘zlashtiriladi, fan asoslari, politexnik ta’lim o‘rganiladi. Mehnat tarbiyasi tushunchasi umumiy bo‘lib, bu tushuncha bir qancha xususiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Birinchisi, politexnik ta’lim —bu ishlab chiqarishning barcha sohalarga taalluqli bo‘lgan ilmiy asoslarni va prinsiplarni, mehnat ko‘nikma va malakalari, oddiy mehnat qurollari bilan muomala qilish kabilarni o‘zlashtirishni taqozo qiladi.

Ikkinchisi, bu —umumiy mehnat. Umumiy mehnat o‘quvchilarni mahsulot ishlab chiqariladigan faoliyatga jalb etishni taqozo qiladi.

Uchinchisi, ijtimoiy-foydali mehnat. Bu mehnat turi ko‘pchilik foydasiga ishlashni nazarda tutadi (shanbaliklar, xayriya hasharlari, sinf, makkabni ta’mirlashga yordam berish, makkab uchastkasida ishlash v.h.k.).

To‘rtinchisi—o‘z-o‘ziga xizmat qilish. U maishiy xizmat turiga kirib, sinf, makkab ozodaligini saqlash, ish joyi, kiyim-kechagi, o‘quv qurollarini ozoda, tartibili saqlashni nazarda tutadi.

Beshinchisi— uy mehnati, bu ham maishiy mehnat turiga kirib, uydai ozodalikka rioya qilishni, ota-onaga uy ishlarida yordam berishni taqozo qiladi.

**4. Jismoniy tarbiya.** Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish tizimidagi o‘z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustahkamlash, inson organizmini chiniqtirish va o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko‘nikmalarini va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; o‘g‘il bolalarni harbiy vatanparvarlik ruhidagi ma‘lumotlardan xabardor qilish. Jismoniy tarbiyaga, ayniqsa, keyingi yillarda davlatimizning eng muhim siyosiyati darajasida ahamiyat berilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga hukumatimiz tomonidan katta g‘amxo‘rlik qilinmoqda.

**5. Estetik tarbiya.** Hayotda tabiat go‘zallikning manbasidir. U estetik tuyg‘ularni, bolalarning kuzatuvchanligini va tasavvurini rivojlantirish uchun juda boy material beradi. Bundan tashqari, san‘at ham estetik tarbiya vositasini hisoblanadi. San‘at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada nafosat tarbiyasi deb ataladi. U quyidagi metodlardan foydalangan holda olib boriladi:

- badiiy asarlarni namoyish qilish va ijro etish;
- badiiy asarlarni tahsil qilish va baholash;
- san‘atshunoslik bilimlaridan xabardor qilish, san‘atning xil turlarini — ifoda vositalari, tarixi va nazariyasini xarakterlovchi muayyan ma‘lumotlar jamg‘armasiga ega bo‘lish zarur.

Badiiy faoliyatining xilma-xil shakllarida mashqlaro‘tkazib, ijodiy qobiliyatlarini, mustaqil tasvirlash ko‘nikmalarini va malakalarini rivojlantiradi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya lotincha “estezio” —go‘zallikni his qilaman) —o‘quvchilarni vogelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Nafosat tarbiyasi „badiiy tarbiya“ sifatida ham qo‘llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma’noga ega bo‘lib, faqat san‘at vositasidagina emas, balki hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlari, tabiat va boshqalar vositasida go‘zallikni his qilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni o‘z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa, san‘at (adabiyot, musiqa, qo‘sish, tasviriy va san‘atning boshqa yo‘nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg‘ularni shakllantirishni nazarda tutadi. Nafosat tarbiyasi insonda go‘zallikni his qilish tuyg‘usining shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o‘z hayotini go‘zallik asosida qurishga intiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

**6. Ekologik tarbiya.** Davr talabiga ko'ra, yana boshqa yo'nalishda ham ish olib borish talab etilmoqda. U ham bo'lsa ekologik tarbiya masalasidir.

Ekologik tarbiya, albatta, ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to'g'ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o'z oldiga o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg'ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlari) kiradi.

Demak, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur. Ekologik munosabatlarga quyidagi kabi komponentlarni kiritish mumkin:

- *hayotga munosabat;*
- *yaxlitlik hissini tarbiyalash;*
- *javobgarlik hissini tarbiyalash;*
- *tabiat go'zalliklarini his etish.*

**7. Huquqiy tarbiya.** Huquqiy tarbiyabu —shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalarini va odatlarni shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko'zlagan ifodasidir. Huquqiy tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsnинг umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo'naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida huquqiy qarashlariga asoslanishi zarur.

O'sib kelayotgan yosh avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning tamoyili jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal etish zarurligini ifoda etadi. Avvalo, huquqiy tarbiya yosh avlodni kamol toptirishning samarali vositalasi sanaladi. Yuqorida qayd qilingan mulohazalar huquqiy tarbiyaning yaxlit tizimi quyidagilardan iboratligini ifodalaydi:

- ❖ Birinchidan, huquqiy tarbiya subyektlariga: davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxslar va boshqalar kiradi.
- ❖ Ikkinchidan, huquqiy tarbiya obyektlariga: mansabdor shaxslar, fuqarolar, ichki ishlari idoralari xodimlari kiradi.
- ❖ Uchinchidan, huquqiy tarbiya mazmuniga: huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlari kiradi.
- ❖ To'rtinchidan, huquqiy tarbiya shakllariga: ma'ruzalar, seminarlar, suhbatlar, viktorinalar kiradi.
- ❖ Besinchidan, huquqiy tarbiya metodlariga: ishontirish, rag'batlantirish, majburlash kabilar kiradi.
- ❖ Oltinchidan, huquqiy tarbiya vositalariga: matbuot, radio, televideniya, adabiyot va san'at asarlari, ko'rgazmali tashviqot hamda targ'ibot vositalari kiradi.

## Tarbiyaning umumiyl usullari

Bola o'qishni, tarbiya olishni, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirot e'tishni xohlaydi. Pedagog uni qay tarzda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi zarurligini bilishi kerak. O'qituvchi do'st, murrabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki dunyolarini, kechinmalarini ochib ko'rsatadilar.

Avval ta'kidlaganimizdek, tarbiya—tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilimi va tarbiyaga ega bo'lgan qonunlar, tarbiyalanuvchilar (faoliyatlarini o'z ichiga olgan) bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatishlari kerak.

Demak, tarbiya usuli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorligidagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

"Metod" so'zi grekcha bo'lib "yo'l", "usul" ma'nosini bildiradi. Tarbiya vositalari bu – biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga mufovqiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlataladi. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Tarbiya natijalari tarbiyaviy jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalishga bog'liq. Tarbiya usullari har bir bolaga, har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lismi nazarda tutadi. Shunday qilib tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchiga yoki sind manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlarni, tarbiyalanganlik darajasini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllari majmuasiga tarbiya metodi deyiladi. Tarbiya g'oyatda murakkab jarayon bo'lib har davrning ijtimoiy-siyosiy hayotini o'zida aks ettiradi. Uning usullari, shakllari, vositalari va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, an'anaga aylanadi. Shu sababli tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

## Tarbiya usullariga tavsif

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujasamlashtirgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda ko'plab va xilma-xil tarbiya usullari mavjud. Jumladan,

1. Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, o'zr so'rash, o'rnak bo'lish, yaxshiliklar to'g'risida gapirish).
3. Nasihat berish (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, tilak-istik bildirish, ma'qullah, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash).
4. Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, urushish va h.k.).

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar, musobaqlar, turli

nishonlashlar, sayillar, turli marosimlar, bazmlar va boshqalaro'ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Yoshlarni tarbiyalashda turli milliy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Inson qalbiga bugun ekilgan yaxshilik urug'i oradan 11 yil o'tgach unib chiqishini har bir pedagog ilmiy asoslab oldindan ko'ra bilishi kerak. Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib olamiz:

- ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar;
- o'z o'zini tarbiyalovchi usullar;
- rag'batlantirish usullari;
- jazolash usullari.

#### **Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar**

Bu guruhda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, hislari va irodasiga ta'sir e'tish usullari kiradi. Ularga, *suhbat, hikoya, namuna (qush uyasida ko'rganini qiladi)*larni misol qilib keltirish mumkin.

#### **Mashq o'rgatish usullari**

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlanish o'quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi; o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. O'rgatish ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shaklga aylantirish maqsadida tarbiyaluvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir. **O'rganish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir**

Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab bu:

- o'quvchining turli vazifalarini bajarishi;
- ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi;
- u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi;
- turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi u yoki bu harakatlar — rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi;
- oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi kabilardir.

#### **O'z-o'zini tarbiyalash usullari**

O'z-o'zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mutsaqillik ko'rsata boshlagan vaqtдан boshlanadi.

O'z-o'zini tarbiyalashda (axloqiy, jinsiy, intellektual, hissiy-irodaviy) maslahat va ko'nikmalar berilishi lozim. Jumladan, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'ziga xolisona (adekvat) baho berish, o'zining xatti-harakatlaridan qoniqish hosil qilish va h.k.

#### **Rag'batlantirish va jazolash usullari**

O'quvchi bolalarning har biri o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganidan jurnand bo'lganini sezishi kerak. Shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi, o'z kuchigaishonadi.

#### **Rag'batlantirish quyidagi turlarga bo'linadi. (maktablarda)**

- 1) o'quvchining kuchi yetadigan, mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish: bunda bola o'z qadr-qimmati bilan faxrlanadi;
- 2) maqtash (majlislar, yig'inlar va bayram tadbirlarida);
- 3) esdalik sovg'alar berish;
- 4) maqtov yorlig'i berish;
- 5) stipendiya bilan ta'minlash;
- 6) hurmat taxtasisiga rasmini osish;
- 7) qo'llab-quvvatlash;
- 8) mas'uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
- 9) sinfda birinchi o'rinda turish;
- 10) musobaqlarda bayroq ko'tarish, gazeta, radioda, televizorda e'lon va h.k.

Jazolash bu – tarbiyaluvchining harakat va faoliyatiga salbiy baho berish, bu oxirgi tarbiya usuli, (shuni aslo unutmaslik kerakki, tarbiyaluvchini jazolash sifatida uni urish, kaltaklash, jismoniy kuch va tazyiq o'tkazish aslo mumkin emas. Bu pedagogikaga ziddir va qonunda javobgarlik belgilangan).

#### **Jazo turlari:**

- tanbeh berish;
- hayfsan e'lon qilish;
- uyaltirish.

Jazo yaxshi o'ylab qo'llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash mumkin emas. Jazo yakka tartibda bo'lishi kerak ya'ni bitta jazo aybiga mos.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol vatopshiriqlar**

1. Tarbiya nazariysi qanday masalalarni o'rganadi?
2. Tarbiyaning turlarini sanang va har biriga ta'rif bering?
3. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan tarbiya usullarini aytib bering.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Munavvarov A.K Pedagogika, Toshkent, "O'qituvchi", 1996, B- 119-136
2. Tursunov I., Nishonaliyev U.Pedagogika kursi:Darslik, Toshkent "O'qituvchi" 1997. B- 172-176
3. G'aybo'llayev N.va boshqalar. Pedagogika,Toshkent, 2000.B- 38-46
4. Baranov S.P.va boshqalar. Pedagogika, Toshkent, "O'qituvchi" 1990. B- 165-242
5. Savin N.V.Pedagogika,Toshkent, "O'qituvchi",1975.B- 171-198
6. Babanskiy Y.K va boshqalar.Pedagogika, Moskva 1998, B- 91-121.

### **3-MAVZU: O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BORASIDA SINF RAHBARI OLIB BORADIGAN ISHLAR. SINFDA INTIZOMNI MUSTAHKAMLASH.**

#### **Reja:**

1. Sinf rahbarining o'quvchilarni o'rganishda amal qilishi lozim bo'lgan talablar.
2. Sinf rahbarining o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi vazifalar.
3. O'quvchilarning o'quv samaradorligini oshirish usullari haqida ma'lumot berish.

**Tayanch ibora va atamalar:** tarbiya, tarbiyachi, tarbiyaning mazmun-mohiyati, sinf rahbari, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, o'quvchi, tarbiyaviy ish, jarayon, maktab, sinf, o'quvchi, sinf rahbari, burch, vazifa, tashkil qilish, bog'lash, hamkorlik, faoliik, yondashuv, talab.

Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. Bu haqda "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Nizomda bataysil yoritilgan.<sup>6</sup> U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi, bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. O'quvchilarning ayrim xatti-harakatlari bu xatti-harakatlar namoyon bo'lishining sabablarini o'rganish va tahlil qilish asosida o'quvchilarni o'rganishda amal qilishi lozim bo'lgan talablarni shunday ifodalamoq mumkin:

1. Bolalarni o'rganish ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirishga bo'ysindirilmog'i lozim. O'quvchilarni muntazam tarzda o'rganish asosida boshlang'ich jamoaga hamda alohida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo'ladi. O'quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib borish bilangina cheklanib qolish noto'g'ri. Bu o'rganish asosida o'quvchilarning o'ziga xos individual xususiyatlarini hisobga olib, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni tashkil etish muhimdir. O'z o'quvchilarini yaxshi o'rganish, demak, tashqi tomoniga emas, balki ularning xulq-atvor sabablarini o'rganishga e'tibor bermoq darkor.

2. O'quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o'rganish. O'quvchi ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali mehnatga va jamoat ishiga o'rganishi lozim. O'quvchilarning o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va tevarak-atrofdagi kishilar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jarayonida shaxsnинг qirralari yanada to'la ochiladi.

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 30-iyuldagisi ilovasi. Manba: uzedu.uz.

180-soni buyrug'ining 2-

O'quvchilarni tibbiy ish va kundalik xatti-harakat jarayonida o'rganish o'quvchiga haqiqiy baho berishga yordam beradi.

#### ***Sinfrahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:***

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarish jarayonida u yolg'iz emas, shu sinfa dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.
2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini o'stirish, har bir o'quvchining individual ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarinishakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda u har bir o'quvchining sog'lig'ini mustahkamlashga ham katta e'tibor beradi.
3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning darsni yuqori o'zlashtirishlarini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. Fanlar bo'yicha o'zlashtirishda orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay, fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda yordam uyshtiradi.
4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarni yo'naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, maktab miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.
5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, o'quv kuni o'zlashtirilgan guruhlarning tarbiyachilar, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqua oluvchilar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.
6. Sinf rahbari shu sinfa dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'tasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatalishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilim tarqatib, "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi jamoat kengashi to'g'risida"gi Nizom<sup>7</sup> asosida oila bilan maktab o'ttasidagi aloqani mustahkamlaydi. Sinf rahbarining axloqiy obro'si nihoyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Ana shundagina u tarbiyaviy ta'sirga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongingin va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun faqatgina o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy kompetentlikka ega bo'lishning o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir o'tkazadi. Chunki tarbiyachilik qobiliyati juda ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jondildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomala,

<sup>7</sup>Халқ таълими vazirining 2019 йил 7 fevraldagagi 46-son bўyruqning 1-иловаси билан тасдиqlangan Xalq taълими vazirligi xuzuridagi "Оила-маҳалла-таълим муассасаси" hamkorligi Jamoat kengashi tўqinsidagi Nizom. Manba: uzedu.uz

nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat, sopolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi.

**Tarbiyachilik texnikasi sind rahbarining asosiy qurolidir.** Sinf rahbari pedagogilar, ota-onalar va o‘quvchilarni o‘zaro bog‘lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtayi nazarini hisobga olishi, harakatlarini bir markazga birlashtirishi, o‘zaro aloqalarning to‘g‘ri bo‘lishiga ta’sir o‘tkazishi va ayni vaqtida o‘zining g‘oyasini aniq ifoda eta olishi kerak. Mana shu fazilatlar sind rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta’minlashga yordam bo‘ladi. Sinf rahbari o‘quvchilarga puxta bilim berishga, ularning fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g‘amxo‘rlik qilib boradi. Hatto o‘zlashtirishi yuqori bo‘lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni o‘stirishga, ta’lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur. O‘qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, qunt, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradi.

### **Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish**

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning globallashuv jarayoni kechmoqda. Bu esa, ta’lim mazmuni fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi zarurligini taqozo etadi. Ta’lim mazmunining fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi mehnat bozori va jamiyat madaniy hayotining barqarorlashuvini ta’minlaydi, uning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Bularning barchasi pirovard natijada jamiyatning asosiy muammolarini yechishga ko‘maklashadi. Fan va ishlab chqarish sohalarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga imkoniyat beradi. Mustaqilligimiz sharofati bilan ta’lim tizimi tubdan yangilandi va bu o‘quvchilarning intellektual faoliyat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirishni taqozo etmoqda. Chunki O‘zbekiston jamiyatida aqliy mehnatning mavqeysi keskin oshmoqda, yuqori intellektni talab qiluvchi kasb egalariga bo‘lgan talab oshmoqda. Shuning uchun ham o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish va zamonaviy kasb-hunarga yo‘llash jarayonida ularga nazariy, texnik va umummadaniy bilimlarni o‘zaro mutanosiblikda taqdim etish zaruriyati vujudga kelmoqda. O‘quv munozarasi o‘quvchilar bilish faoliyati dinamikasini tavsiflovchi jarayon sifatida muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ma’lumki, o‘quvchilarining fikrlari ko‘proq erkin va barqaror bo‘ladi. Ular o‘zlarining ishchanlik qobiliyatlarini ta’minlaydigan darajada axborotlarni qabul qilish imkoniyatlariga egadirlar. Shuningdek, moddiy borliq manzarasini ifodalovchi ilmiy haqiqatlarni bilishga intiladilar. Atrofdagilar, sinfdoshlari, tengdoshlari bilan ko‘proq muloqotga kirishishga harakat qiladilar. Ularda ma’naviyat, bilishga oid ehtiyojlar tarkib topa boshlaydi. Bu esa, o‘quv munozarasiga kirishish uchun qulay imkoniyatlarni ta’minlaydi. Natijada o‘quvchilarning tafakkuri rivojlanadi. Ular o‘z faoliyatlarini va xulq-atvorlarini mustaqil boshqarishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham boshlang‘ich sind o‘quvchilar o‘quv munozarasiga kirishishga tayyor bo‘ladilar. O‘qituvchi o‘quvchilardagi bunday holatni aniq hisobga olgan holda o‘quvchilarni kreativ

fikrlashga undaydigan, ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qila oladigan o‘quv munozarasi mavzularini tanlashi lozim.

O‘quv munozarasini tashkil etishda o‘quvchilarning ko‘tarinki tarzdagi bilish-qiziqishlari munozara jarayonining asosi sifatida xizmat qiladi. Bu davrda o‘quvchilar axloqiy jihatdan mukammallahish bosqichiga kiradilar. Ular o‘zlar uchun muhim qarorlar qabul qilishga harakat qiladilar. O‘z faoliyat sohalarini erkin tanlashga intiladilar, bu esa, 8 — 10 yoshli o‘quvchilarning muhim sifatlaridan biridir. Bu davrda o‘quvchilar ruhiy jihatdan barqaror, intensiv tarzda rivojlanish pallasiga kiradilar. Ular o‘zlarini kuzatgan hodisa va jarayonlarni, alohida maqsadga yo‘naltirilgan tahillarni amalga oshiradilar va asosiy, yetakchi holatni ajrata oladilar. Bu yoshdagi o‘quvchilar obrazli-ko‘rgazmali tafakkurdan aniq, ilmiy fikrlashga o‘tadilar. Shu bilan bir qatorda, ularning tasavvurlari ham bosqichma-bosqich kengayib boradi. Bu tasavvurlar sinddan sindga o‘tgan sari oydinlashadi va barqarorlashadi, o‘quvchilar asta-sekin o‘z harakatlarini bohqarish ko‘nikmalarini egallay boshlaydilar. Ularga uzoq davom etadigan, qiziquvchanlik, ko‘tarinkilik, quvonchlarga boy kayfiyat xosdir. Ba’zi o‘quvchilarda esa, salbiy holatlar ham kuzatiladi. Bunday salbiy holatlar ular bilan o‘tkaziladigan muloqot jarayonlariga va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday o‘quvchilarda asta-sekin nekbinlikdan uzoqlashish kayfiyati vujudga kela boshlaydi. Shu bilan bir qatorda, boshlang‘ich sind o‘quvchilarida o‘zlarining ehtiyojlari bilan imkoniyatlari orasidagi tafovutlarni anglab yetmaslik holati kuzatiladi. Ular aksariyat hollarda o‘zlarini haqidagi fikrlarni to‘g‘ri qabul qila olmaydilar, ularda o‘z faoliyatlarini tanqidiy baholash ko‘nikmasi yetarlicha shakllanmaganligi namoyon bo‘ladi. Natijada ularda „Ko‘pchilik meni yomon ko‘radi“, „Ular menga e’tiborsiz“ degan tasavvur hosil bo‘ladi. Bunday toifadagi o‘quvchilar asta-sekin o‘z sindoshlari, tengdoshlari, hatto kattalarning fikrlari bilan ham hisoblashmay qo‘yadilar. Natijada ular o‘quv munozarasi jarayonida o‘z guruhdoshlariga nisbatan noxayrixohlik bilan yondashadilar, ularning fikrlari bilan hisoblashmasdan, o‘z fikrlarini ustun qo‘yishga harakat qiladilar. Bunday holatlarda o‘qituvchi odil hakam sifatida ish tutishi lozim. Bunday jarayon o‘quvchilarda, ko‘pincha, muloqot vaqtida yuzaga keladi va buni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish natijasida quydigilar ta’milanadi:

- o‘quv munozarasini tashkil etishda psixologik-pedagogik omillarga tayanish natijasida o‘quvchilarning ongi, tashqi olamga munosabati, xulq-atvori tarkib topadi. O‘quvchining o‘ziga xos shaxs sifatida shakllanish jarayoni va faoliyati Jadallashadi, o‘zini ijtimoiy-madaniy jihatdan subyekt sifatida namoyon qilish imkoniyati kengayadi;

- o‘quv munozarasi o‘quvchining ongi, dunyoqarashi va faoliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, o‘quv munozarasi eng zarur o‘quv va ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarni jadal o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.

Shuning uchun ham, birinchi navbatda, o‘quv munozarasining mavzulari, uning tavsifi, axborotlarning yo‘nalishi, hamkorlikdagi o‘quv faoliyati tavsifi va o‘quvchilarning intellektual, ma’naviy, axloqiy rivojlanirish imkoniyatlarini aniq

belgilab olish lozim. O'quv munozarasi jarayonida bilimlar va g'oyalarni ayirboshlash imkoniyati kengayadi.

O'quv munozarasi jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatlar, o'z fikr-mulohazalari, harakatlari, qarorlarining haqqoniyligini asoslashga sharoit yaratiladi. O'quv munozaralarini tizimi tarzda tashkil etish natijasida o'quvchilar o'quv jarayoniga ongli ravishda yondasha boshlaydilar, bilimlarni mustahkamlab, ko'proq axborotlarni egallashga intildilar. Jamiyatdagi turli muammolarni bilish va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga harakat qiladilar. Ularda bilish va muloqot jarayonlarida mustaqil chiqishlar qilish, o'z fikrlari bilan o'rtoqlashish, turli vaziyatlardan xulosalar chiqarish, o'z bilimlarni tasniflash, guruhash, sinfdoshlari va tengdoshlariga tez-tez savollar bilan murojaat qilish, turli axborotlarni va xohish-istiklarni muhokama qilish istagi kuchayadi. Ma'lumki, munozara jarayoni o'quvchilarda o'quv jarayoniga nisbatan kuchli ehtiyoj va intilish hosil qilishi lozim.

Ular bilish jarayoniga nisbatan fikriy-qadriyatli munosabatda bo'lishlari talab etiladi. Ularning fikrlari, dunyoqarashlari asta-sekin qadriyat darajasiga ko'tariladi. Bu esa, o'quvchilarda ijtimoiy xulq-atvorni barqarorlashtiradi. Ular tizimi tarzda ijtimoiy qadriyatlar, ularning mohiyatini anglashga erishadilar. Bu o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga ko'maklashadi.

O'quv munozarasi jarayonida o'quvchilar o'z fikrlari, qarashlari, nuqtayi nazarlari, orzu-istiklari bilan o'rtoqlashadilar. Shu tariqa o'quv munozarasi ko'proq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar bu jarayonning shunchaki ishtirokchilari emas, balki teng huquqli subyektlari sifatida o'quv-biluv faoliyatiga kirishadilar. Ularda o'z tengdoshlari bilan izchil muloqot o'rnatish ehtiyoji qaror topadi. Bu jarayonda o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ilmiy haqiqatlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida hamkorlik qilish uchun qulay sharoit va pedagogik vaziyat vujudga keladi. Bu esa o'quvchilarga mavjud voqelikni o'qituvchi rahbarligida to'liq idrok etish uchun sharoit yaratadi. O'quv jarayonida o'z-o'zini namoyon qilish barqaror shaxsiy ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Bu o'quvchining tanlovi va xulq-atvori bilan bog'iqliq tarzda vujudga keladi. O'quv munozarasi davomida o'quvchilarda faollik, harakatchanlik kabi sifatlar tarkib topadi. Bunday o'quvchilar toliqishlariga qaramasdan, munozara jarayonida faol ishtirok etishga ehtiyoj sezadilar. Shu bilan bir qatorda, o'quv munozarasi o'quvchilarda o'z xulq-atvorlarini nazorat qilish va asosiy mavzudan chalg'imaslik sifatlarini ham tarkib toptiradi. Ularda o'z g'oyalarini tafbiq qilish, nuqtayi nazarlarini bayon etish va sheriklarini uning haqqoniyligiga ishontirish istagi kuchayadi. Ular o'z diqqat-e'tiborlarini muhokama qilinayotgan muammoga ko'proq jalb etishga harakat qiladilar. Shu bilan bir qatorda, bu jarayonga o'zlarining maqsadlari, mayllari, qiziqishlarini mujassamlashtirishga intildilar. Shu tariqa ularda xohishlar tizimi vujudga keladi. Ular barqaror maqsadlarga erishishga harakat qiladilar.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savol vatopshiriqlar

- 1.Sinf rahbari qanday vazifalarni bajaradi?
- 2.Ta'lif tizimida o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini qanday yo'llar bilan rivojlantirish mumkin?
3. O'quv munozaralarini tashkil etishda qanday yo'l-yo'riqlarga amal qilish lozim?

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 7-fevraldag'i 46-sonbuyrug'ining I-ilovasibilantasdilqanganXalqta'lismivazirlighuzuridagi "Oila-mahalla-ta'limmuassasasi" hamkorligiJamoatkengashito'g'risidagiNizomni o'qib-o'rganing.

2020-yil 30-iyuldag'i 180-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sınıf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Nizom

## **4-MAVZU: SINF RAHBARINING TARBIYAVIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI. SINF RAHBARINING ASOSIY VAZIFALARI**

### **Reja:**

1. Sinf rahbarining ish faoliyatini o'rganish yo'l-yo'riqlari.
2. O'quvchi shaxsini tarbiyalash usullari.
3. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari.
4. Tarbiya faoliyatining maqsadlari.

**Tayanch ibora va atamalar:** tarbiya, tarbiyachi, maktab, sinf rahbari, tarbiyaviy soat, o'quvchi, tarbiyaviy ish, jarayon, maktab, sinf, o'quvchi, burch, vazifa, tashkil qilish, bog'lash, hamkorlik, faollik, yondashuv, talab.

Sinf rahbari deganda, o'quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilim jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi mohir pedagog-murabbiy (sinf rahbari) tushuniladi. Sinf rahbarining asosiy vazifalari va funksiyalari "Umumiyo'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish "to'g'risida"gi Nizomda belgilab qo'yilgan.<sup>8</sup> Sinf rahbarlarining o'quvchilar tarbiyasidagi o'rni, ularni rahbarlikka tayinlash masalalasida mamlakatimiz Prezidenti ham alohida fikr bildirib, jumladan shunday degan: "O'tkazilgan ilmiy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, maktablarda 5-sinfdan boshlab yagona sinf rahbarini tayinlash amaliyoti yo'lga qo'yilsa, bu bolalarning ma'naviy rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lar ekan. Ana shu o'qituvchi 11-sinfga qadar bolalar bilan ruhan yaqin bo'lib, ularning ma'naviy tayanchi va maslahatchisiga aylanib, ota-onasidek qadrdon bo'lib qolardi. Haqiqatan ham, shunday. Shuning uchun bu omilni keng qo'llashimiz kerak."<sup>9</sup>

Sinf rahbarining asosiy maqsadi –o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari o'tasida o'zarbo'lib tushuna olish va sinf rahbari tomonidan o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishdir. Boshlang'ich sinf maktab ta'limining dastlabki bosqichi bo'lib, unda bolalar o'qituvchi rahbarligida birinchi qadamni qo'yadilar. O'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ta'lim va tarbiyaga oid umumiyo kompetensiyalar shakkana boshlaydi. O'qituvchi sinf bilan yolg'iz ishlaydi va ko'pincha tarbiyachi sifatida ish yuritadi.

O'qituvchilik faoliyati bolalarga munosabatda, katta mehribonligi vag'amxo'rliqi bilan xarakterlanadi. Bular esa katta talabchanlik bilan olib boriladi. O'quvchilar bilan olib boriladigan zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda o'quvchilarning o'sishi va rivojlanishiga qarab ularni tarbiyalash sinf rahbari uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga sinf rahbari shakllana boshlaydi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh pedagogik talablar berishga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 30-iyuldagisi 180-tonli buyrug'ining 2-ilovalari bilan tasdiqlangan "Umumiyo'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Nizom. Manba: uzedu.uz

<sup>9</sup>Мирзиев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – мислий гоёмизнинг пойдеворидир. Т.: Тасвир. 2021. 19-бет.

tarbiyachilari jamoatchilik bilan doimo aloqa bog'lab turadi. Sinf jamoasini tashkil etishda sinf rahbarining o'rni katta hisoblanadi. Sinf rahbari sinf jamoasini jipslashtirishda ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Hamkorlik shakllaridan biri sinf ota-onalar majlisini o'tkazishdir. Sinf majlisini o'tkazish uchun, avvalo, jamoani jipslashtirish zarur. Sinf rahbari majlisida ko'plab bolalar tarbiyasiga oid masalalarni ko'radi. Sinf majlisida 3-4 ta masalalar ko'rilib, muammoli tomonlar tahlil qilinadi va o'z yechimini topishi kerak bo'ladi.

Sinf rahbari majlis o'tkazish davomida yaxshi o'qiydigan bolalarni sinfda, yangi jamoa ichida rag'batlantirishi kerak. Bunda bolalar bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishadi. Shuning uchun ular bir-biriga intilib, yaxshi o'qishga harakat qiladi. O'zlashtirishda nisbatan past natija ko'rsatayotgan bolalar yaxshi o'qiydigan bolalarga intilib ular ham yaxshi o'qishga harakat qila boshlaydilar. Bundan tashqari, sinf rahbari o'quvchilarning bilim darajasini oshirish uchun o'z sinfida kutubxona tashkil qilishi mumkin. Bu kutubxonadagi kitoblarni o'quvchilar sinfdan tashqari o'qish vaqtida yoki darsdan so'ng bo'sh qolgan paytalarida o'qib, o'zlariga foydali tomonlarini olishi mumkin. Bunda, albatta, kitoblarning mavzu ko'lami, o'quvchilarning yoshi va pzsixofiziologik xususiyatlari mosligiga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Sinf rahbari har doim o'quvchilardan xabardor bo'lib turishi kerak. Masalan, bir o'quvchining o'zlashtirishi yomon bo'lsa, uni yaxhilash uchun o'qituvchi birinchi o'rinda ota-onasi bilan uchrashib, sabablarini surishtirishi, o'rganmog'i lozim. Nimaga yaxshi o'qimaydi, nima uchun darslarni o'z vaqtida qilmaydi, shular haqida ota-onasi bilan suhbat olib borishi kerak. Agar bolaning oilasida hamma sharoit bo'lib bola o'zi yaxshi o'qishni xohlasa-da, o'zi o'ylagan natijaga erisha olmayotgan bo'lsa, o'qituvchi bolani yaxshi o'qiydigan o'rtog'ining yoniga o'tqazib qo'yishi kerak.

Bundan tashqari, shunga o'xshagan o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yig'ib, har xil fanlardan, masalan, matematika, ona tili, o'qish va boshqalardan qo'shimcha darslarni tashkil etib, bolalarni o'qishga bo'lgan talablari, qiziqishini yanada oshirishga o'qituvchi harakat qilishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning ota-onalar bilan faol ishlashi zarur. Negaki, maktabda sinfda bo'layotgan ishlardan ota-onalar ham xabar topib, qiyalgan vaqtida hamroh bo'lishi lozim. Buning uchun ota-onalar bilan o'qituvchining o'rtasida bog'lab turuvchi aloqa daftarchasini tutishi va uni muntazam ravishda to'xtatmasdan yuritib borishi darkor.

### **Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:**

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda "Milliy iklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida insonparvarlik, ezzulik,

bunyodkorlik tamoyillariga tayangan<sup>10</sup> milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlanadir. O'quvchilarning darsdan tashqari barcha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini shu tamoyillar asosida tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatni hamda iqtidorlarini hisobga olgan holda zamonaviy kasb-hunarlargacha yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. O'zlashtirishdan orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay zaruriy yordam uyshtiradi.

4. Sinfdag'i o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarni yo'naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, mabkab miqyosida uyshtiriladigan muhim ma'naviy-ma'rify, o'quv va sport tadbirlarida o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, o'quv kuni uzaytirilgan guruhlarning tarbiyachilari, korxona va muassasalardagi, turar joylardagi mabkab ta'limini otaliquqa oluvchilar, hamkorlar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatishtga erishadi, ularning munosabatlarni muvofiqlashtiradi, zarur vaqtida ota-onalarga ham pedagogik bilimlar tarqatib, "Oila—mahalla—ta'lim muassasasi hamkorligi jamoat kengashi to'g'risida"gi Nizom asosida oila bilan mabkab o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarni: sinf jurnali, o'quvchining kundaliklari, tabellar ([kundalik.com](#) tizimida), shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ichonchiga va e'tiqod darajasiga bog'liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam o'zlashtirib borishi bilan o'zining bilimini oshiradi. Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazillatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongingin va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, tarbiyachi qobiliyati juda ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrllilik, ishga jon-dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomala nazokatligi, oqil va adolatlilik namunasi, sopolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo'lishi taqozo qilinadi.

<sup>10</sup>Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий гоёмизнинг пойдеворидир. Т.: Тасвир. 2021. 6-бет.

### Sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlari

Sinf tarbiyaviy soatlari mabkab sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir. Sinf tarbiyaviy soatlari quyidagi: **ma'rifiy, baholovchi, yo'naltiruvchi** singari uch asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi.

**Ma'rifiy tarkibiy qismida:** o'quv dasturlaridan tashqari, o'quvchilarning etik, estetik, ruhiy tushunchalarini, fan-teknika, xalq xo'jaligi, dunyo voqealarini boyitib, kengaytirib borishdan iborat ishlar amalga oshiriladi.

**Baholovchi tarkibiy qismida:** o'quvchilarda atrof-muhitga muayyan munosabatda bo'lish, undagi moddiy va ma'naviy boyliklarimizning bahosi, shamiyati va qadr-qimmati, mehnat kishilari va Vatanimiz himoyachilarining shon-shuhrati, ona Vatanimizning, ulug' xalqimizning shuhrati haqidagi tegishli tushunchalarini hosil qilish va mustahkam qaror toptirishdan iborat sifatlar ro'yogba chiqariladi.

**Yo'naltiruvchi tarkibiy qismida:** o'quvchilarning mavjud hayot haqidagi bilim va tushunchalari to'g'ri, maqsadga muvofiq yo'naltirilib, teranlashtirilib, ularning hayotiy tajribasi, axloqi, bo'lgsi tur mush yo'lini to'g'ri tanlashdek hayotiy faoliyatlarini, unda tutgan mavqelari faollashtirilib, boshqarilib boriladi. O'qituvchi-tarbiyachi tarbiyaviy soatlarning mavzusini belgilab, unga tegishli material to'playotganda o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarni, sinfning rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasini, mahalliy shart-sharoitni albatta e'tiborga olishi kerak. Mabkab sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri sinf tarbiyaviy soatlari bo'lib uni tashkil etish pedagogining quyidagi yo'nalishlar asosida olib boriladigan ishlardan iborat:

- a) sinf tarbiyaviy soatlarning mazmunini aniqlash;
- b) tashkiliy jihozlash ishlari;
- v) sinf tarbiyaviy soatlari turkumini rejashtirish.

O'sib kelayotgan yosh avlodga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishda sinf tarbiyaviy soatlari ish mazmunini aniqlash va rejashtirish mavzularni fasllarga qarab, bayram, tarixiy sana hamda voqealar, tinchlik, do'stlik, mehnat, oila, baxt, kasb tanlash, tabiatni sevish, vatanparvarlik, ajodolarimiz merosi, insoniylik, axloqiylik singari tarbiyaviy muammolar asosida tasniflash katta muvaffaqiyatning garovi ekanligini ko'rsatmoqda.

Bugungi mabkab ta'limi jarayonida sinf tarbiyaviy soatlarning yillik mavzulari, dasturi mavzu materiallari bilanbarcha sinflar kesimida Respublika ta'lim markazi tomonidan tayyorlanib, tavsiya sifatida ("Mustaqillik darslari"ni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar ham) barcha umumta'lim maktablariga o'quv yili boshida yuboriladi. Ammo, hududlarning mahalliy o'ziga nosligidan kelib chiqib umumta'lim maktablarining sinf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko'ra 15 % gacha o'zgartirish kiritish va mazmunini qo'shimcha materiallarni bilan boyitish mumkin. Mavzular tematikasi rang-barang bo'lmog'i lozimi. Jumladan,

"Inson va insoniy munosabatlari". Bunda jamiyatimizdag'i insoniy munosabatlari, jonajon mabkabi, o'qituvchilari, o'z ota-onasi, qarindosh-urug'i,

do'stlari va boshqa kishilarga, jamoat mulkiga, ona Vatan boyliklariga munosabat, yurish-turish madaniyati, muomalasi, rostg'o'ylik, halollik, mehnatga ongli munosabatda bo'lish.

"Fan va turmush". Bunda moddiy olam haqidagi haqiqatni, qarashlarni shakllanirish, fan texnika yangiliklari, bilim manbayi bo'lgan kitobga munosabat, uni o'qish qoidasi, turmush, madaniyat, bugungi kun turmush tarzi kabi masalalarga e'tibor berish.

"Go'zallik olamida". Bunda go'zallikning mohiyati, go'zallikni his qilish, nafosat va etika tushunchalari, hayotda insonning kiyinshida, turmushda, mehnatda, axloqda, muomala va nutq madaniyatida, kuy va qo'shiqlarda, she'riyatda, raqs va tasviriy san'atda, haykaltaroshlik va me'morchilikda, zamonaviy ishlab chiqarish kabi sohalarda go'zallik tushunchalariga e'tibor berishi.

"Davlat mustaqilligi va inson huquqi haqida nimalarni bilasiz?" Bunda davlat mustaqilligi, uning ma'nosi va mohiyati, mustaqil davlat siyosati va iqtisodiyotining mazmuni, tashqi dunyo mamlakatlari bilan do'stona aloqalar, elchixonlar vujudga keltirish, milliy mustaqillik imkoniyatlari, vatandoshlar bilan ishbilarmonlik doirasida aloqalar o'rnatish, dunyo siyosiy voqealariga, huquq darajalari, o'z haq-huquqi uchun kurash, ona Vatannimizga, xalqimizga mehr-muhabbat, sadoqat, e'tiqod, fan, sport va boshqa ko'plab sohalarda dunyoviy g'alabalarimizga munosabat kabilarga e'tibor berish.

"Sog' tanda-so g'lom aql". Bunda o'quvchining kundalik faoliyat tartibi, uyida o'quvchining o'z burchagi bo'lishi, yosh va o'ziga xos xususiyatlariga qarab gigiyenik qoidalarga rioya qilish, jinsiy tarbiya, gigiyena – inson go'zalligi, madaniyati va salomatligi garovi ekanligi kabilarga e'tibor berish.

"Ekologik tarbiya"da bolalarda tabiatning yer osti va yer usti boyliklariga, tabiatga nisbatan javobgarlik, Ularni hozirgi va kelajak avlod uchun avaylab-asrash, ko'paytirish hamda muhofaza qilish his-tuyg'ularini, tushunchalarini tarkib toptirish kabilarga e'tibor berish lozim.Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil qilish unga o'quvchilarni ruhan tayyorgarlikdan boshlanadi. Shunga erishmoq kerakki,o'quvchilar sinf tarbiyaviy soatlarini intizorlik bilan kutishsin. Ko'rildigan masalalar nechog'li muhokama va munozarabop bo'lishi hamda u ko'ngildagidek o'tkazilishi bevosita sinf rahbariga bog'liq.Avvalo muhokama qilinadigan mavzu, uning mazmuni, uni o'tkazish vaqt, tartibi va ushbu mavzuga oid materiallarni topish lozim.Tarbiyaviy soatlar uchun maktab o'quvchilari va o'qitivchi tarbiyachilarga mo'ljallangan hamda ommabop gazeta va jurnallar, pedagogikaga oid va bolalar tarbiyasiga doir badiiy adabiyot namunalari, kinolavha, kinofilm, videorolik, radio eshitirish va teleko'rsatuvlardan, tarbiya mavzusiga yo'naltirilgan va shu kungi o'quvchilar uchun dolbzarb, hayotiy materiallardan tanlab olinishi kerak. Shundagina sinf o'quvchilarining qaynoq ijodiy faoliyati ta'minlangan bo'ladi. Bunday vaqtarda o'quv-texnika vositalari, ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallardan unumli foydalanish esa, so'zsiz, sinf tarbiyaviy soatlaridan kutilgan yuqori ijobji natijalarga olib keladi. Sinf

tarbiyaviy soati tarbiyaviy ishning ajralmas qismi bo'lib o'quvchilar uchun ham, sinf rahbari uchun ham amaliy-ijodiy ishdir. Sinf tarbiyaviy soatlarida tanlangan mavzu bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarga eng avvalo o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim.

*Mashg'ulot jarayonida ustoz o'z maqsadini o'quvchilari ongiga yetkaza oladigan, ularning qalbini to'qinlanira oladigan, ta'sirchan va ifodali bayon qila oladigan nutqqa ega bo'lishi, turli pedagogik ta'sirlar orqali singdira oladigan bo'lishi lozim.* Sinf tarbiyaviy soatlari uchun tanlangan mavzuning maqsadiga mos keladigan kuy va qo'shiqning yangrashi, badiiy o'qish, she'rxonlik, o'z ijodiy ishlardan namunalar ko'rsatish, muhokama qilinayotgan masalaga nisbatan o'quvchilarning o'z mustaqil fikrlarini bayon qilashlariga keng yo'l berish, hayotiy muhim masalalar haqida aniq va to'g'ri xulosalar chiqarishlariga yo'naltirib borish lozim. Bu esa o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil va erkin bayon qilishga odatlantirib, ularda faollikni kuchaytiradi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol vatopshiriqlar**

- 1.Sinf rahbarlarfaoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini sanab bering?
- 2.Sinf rahbari ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tarkibiy qismlari qaysilar?
3. Sinf soatlarini rejalashtirishda va tuzishda nimalarga e'tibor berish lozim?

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий гоямизнинг пойдеворидир. Т.: Тасвир. 2021. –Б 38.
2. Safarova Sh, Tog'ayqulov T. Umumta'lim maktablarida "Tarbiyaviy soat" mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha o'quv-mavzu reja, o'quv dasturi hamda metodik qo'llanma (sinf rahbarlari uchun), Respublika ta'lrim markazi, T.: 2017. –B 45.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 30-iyuldagagi 180-sonli buyrug'i. Manba: uzedu.uz.

## 5-MAVZU: SINF RAHBARINING NAMUNAVIY YILLIK ISH REJASINI TUZISH METODIKASI

### Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo'yilgan pedagogik talablar.
2. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari.
3. Sinf rahbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasini o'rgatish haqida ma'lumot berish.

**Tayanch so'zlar:** sinf rahbari, sinf hujjatlari, tarbiyaviy ish, rejalashtirish, faoliyat, tadbirlar, badiiy-estetik tarbiya, fan to'garaklari, istiqbolli reja, joriy reja, taqvim-mavzu reja.

### Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo'yilgan pedagogik talablar

Hozirgi davrda maktab va uydagi o'quv-tarbiya ishlarnini amalgaoshirayotgan pedagogik jamoaoldiga juda katta vazifalar qo'yilmoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirishi, g'oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirishi, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilishi, mehnatga vaongli kasb tanlashga tayyorlashi lozim. Bu vazifalarni hal qilishda sinf rahbari muhim rol o'ynaydi. Chunki, u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalgaoshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. Jumladan, sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalgaoshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holdao'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilar bilan darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini o'stirish, har bir o'quvchiningindividial-psixik xususiyatlarini hisobgaolgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'lig'ini mustahkamlashta ham e'tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazidao'quvchilarning yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. Orqada qolayotganlargao'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarni yo'naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi,

maktab miqiyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlardao'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, o'quv kuni uzaytirilgan guruqlarining tarbiyachilar, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliquqoluvchilar bilan yaqin aloqao'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilar o'rtasidao'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarni; sinf jurnali, o'quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo, tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiyligining darajasiga bog'liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam egallab borishi bilan o'zining bilimini, ongini oshiradi.

Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongingin vaxulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun mutaxassisligi yo'nalishida malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishningo'zigina yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir o'tkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobilyati juda ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jondildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil vaadolatlichkeit namunasi, alohida nazokat (etiket), sopolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo'lishini taqozo qiladi. Sinf rahbarlaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhibi shundaki, **sinf rahbarining o'zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy barkamollikka mos bo'lishi kerak.** Sinf rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtida u kommunikativ qobilyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan voqeja va hodisalarни faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishning sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Sinf rahbari maktabdagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatining o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi, uddasidan

chiqaolmaydigan sohasi bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Sinf rahbari pedagoglar, ota-onalar vao'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtayi nazarini hisobgaolishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaroaloqalarning to'g'ri bo'lismiga ta'sir o'tkazishi va, ayni vaqtida, o'zining o'rnini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularning kreativ hamda kognitiv fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamishag 'amxo'rlik qilib boradi.

Ayrim maktablarda yuqori o'zlashtirishga erishishgao'quv, didaktik masala sifatida matabda ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

Maktabdaolib boriladigan tarbiyaviy ishlar sistemasi to'g'ri va bevosita sinfda o'zlashtirishni ko'tarishga ta'sir etadi. Sinf rahbari o'qituvchilar bilan hamkorlikda bolalarni o'qishga onglib munosabatda bo'lishgao'rgatadi. O'quvchilarning o'qishlarini nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi vao'z sinfidagi o'quvchilar bilan birgalikda sinfda o'quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi.

### **Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rejalshtirish**

Tarbiya jarayonining mazmunini bolalarga beriladigan ma'naviy-axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e'tiqod, intizom, xulq-atvorning bir butun holati tashkil etadi. Aziz va muqaddas bo'lgan O'zbekistonning kelgusi istiqboli va taraqqiyoti uchun fidoyilik ko'rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o'zgacha xarakter kasb etmoqda. Chunonchi:

- fuqarolik, demokratik jamiyatni barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;
- vatanini har doim turli g'arazli kuch va oqimlardan himoya etuvchi;
- diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va mehr-muravvatli bo'lish;
- davlat siyosatini tushunish,unga fldoi bo'lish;
- o'zligini anglash, ajodolar merosini qadrlash;
- yuqoridaq komil insonga xos sifatlarni tarbiyalash;
- maqsadning aniqligi, uni to'g'ri yo'naltirish madaniyati;
- tarbiyachi-o'qituvchi va tarbiyalanuvchining hamkorlik faoliyati;
- o'zini anglash, mustaqil fikrlovchi, teran tafakkur sohibi bo'lish, chin e'tiqodlilik kabilalar.

Tarbiyaviy ishlarning mazmuniga bir butun tizim sifatida yondashishdan ko'zlangan bosh maqsad:

— „Yangi O'zbekistonning milliy mafkurasi“dagi bosh g'oyalar bolalarning ongida o'ziga xos va mos ravishda singdirish;

— Xalqimizning boy an'ana, udum, urf-odatlari va ajdodlarimiz rnerosidan foydalanish;

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-e'tiqodni tarbiyalash;

— Insonparvarlik, Ezgulik, Bunyodkorlik g'oyalari mohiyatini izohlash;

— Mehr-muruvvatilik va bag'rikenglik tushunchalarini singdirish.

O'zbekistonning yangi milliy g'oyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod vakillari sifatida tarbiyalanadi. Bu tarbiyaning mexanizmlari quyidagicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari:

1) *ongida* – insonparvarlik g'oyasining ustuvor bo'lishi;

2) *axloqida* – ezgulik fazilatlarining tarkib topishi;

3) *dunyoqarashida* – bunyodkorlik g'oyalaring shakllanishi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida tarbiyaviy faoliyatini rejalshtirish quyidagi o'ziga xos qoidalarga ega:

a) sinf jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganish;

b) o'quvchilarining oilaviy hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagiburchi va vazifasini o'rganish;

d) kundalik o'zgarishlarga o'quvchilarining munosabati;

e) o'quvchilarining sharqona milliy urf-odat, an'analar haqidagi bilim darajasi;

f) qomusiy ma'rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarining ijodiyotidan namuna bilishlari;

Yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o'rnlidir. Shundagina har bir o'qituvchi-tarbiyachilarining betakror, bir-biriga o'xshamagan tarbiyaviy tadbir rejalar dunyoga keladi. Bunday rejalar tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lib, ko'zlangan maqsadga erishtira oladi.

### **Tarbiyaviy ishlarni rejalshtirishning asosiy omillari:**

- Vatanga muhabbat va insonparvarlik.
- Milliy istiqlol maskurasini shakllantirish.
- Jismoniy barkamollik (sog'lom avlod uchun).
- Ota-onalar bilan ishlash.
- Ma'naviy tarbiya (odob-axloq).
- Go'zallik tarbiysi.

- Iqtisodiy tarbiya.
- Ekologik tarbiya.

Bu ishlarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Tarbiyaviy tadbirlar rejasi va undagi mavzular davr talabiga javob berishi.
2. Tanlangan mavzular milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo'lishi.
3. Tarbiyaviy tadbirlarda uzviylik qoidasiga amal qilingan bo'lishi.
4. Mavzular o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo'lishi.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bosqichida o'qituvchining mas'uliyatlari talazalari talaygina. Jumladan,

Birinchidan, dasturda ko'zda tutilgan ishlarni tayyorlangan ssenariy asosida uning borishiga tuzatishlar kiritib, vazifasini amalga oshiradi va kuzatib boradi.

Ikkinchidan, o'qituvchi butun jamoa va ayrim tarbiyalanuvchilarni kuzatib boradi, chunki u biladiki, tarbiyaviy ishlarni tarbiyalanuvchilarda muayyan fazilatlarni rivojlantiradi, bu fazilatlarining shakllanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Uchinchidan, o'qituvchi tashkiliy masalalarining aniq hal etilishinikuzatib boradi. Umuman, bu bosqichdagi boshqaruv faoliyati darsdagi ayni shunday faoliyatdan kam farqlanadi, ammo u murakkabroq, chunki hisobga olish, nazorat qilish va ko'plab omillarga tuzatish kiritish lozim bo'ladi. Xususan:

- tarbiyalanuvchilarni o'zining ishtiroti bilan chegaralab qo'ymaslik kerak.
- tarbiyalanuvchilarga o'z fikrlari va hissiyotlarini erkin ifodalashlari uchun xalaqit bermaslik lozim.
- hodisalarining rivojini diqqat bilan kuzatish va uning nazoratdan chekkaga chiqishiga yo'l qo'ymaslik kerak.
- nomaqbul harakatlarni oqilona va o'z vaqtida tuzatish.
- bo'lib o'tayotgan jarayonni sezdirmasdan qayd etib borish lozim.
- natijalarni e'lon qilish.
- jamoaviy muhokama yoki individual pedagogik tahlil hamda yutuq va kamchiliklarning sabablarini ochish maqsadi qo'yiladi.

**Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy uslubiy talablar nimalardan iborat?**

Sinf rahbarlari o'tkazilayotgan ishlarni hamda ularning o'quvchilar tarbiyasi ko'rsatgan ta'sirini har kuni tahlil qilishlari, o'zlarini erishgan yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tushunishga harakat qilishlari, jamoasining rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlatni qayd qilishlari kerak. Shunday qilib,

rejalashtirishning har bir bosqichiga tayyorlanish muntazam olib boriladi. Jamoani va ayrim o'quvchilarni o'rganish yuzasidan olib borilgan barcha ishlarni sinfga pedagogik tavsifnomasi yoziladi. Mazkur tavsifnomasi sinf jamoasining o'ziga nos aniq xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Har bir sinf rahbari o'z-o'zini boshqarishning saylab qo'yiladigan o'quvchilar qo'mitasi hamda bolalar va yoshlar tashkilotlari bilan birgaishlab, sinf jamoasiga rahbarlik qilish yuzasidan olib boriladigan amaliyishlarda bu talabni ro'yobga chiqaradi. Tajribali sinf rahbarlari o'zining kuzatishlari va xulosalarini alohidavaraqlarga qisqacha qilib yozib boradi. Bular maxsus jildlarda saqlanadi. To'plangan ma'lumotlar o'quvchilar jamoasi hayotini, uning erishganyuquqlari va kamchiliklarni keyinchalik tahlil qilish uchun xizmat qiladi. Sinf rahbari o'quv yili oxirida sinf jamoasi ishini tahlil qilishga alohida e'tibor beradi. Bunda rejada belgilangan vazifalami qanday haletilganligini, sinf ijtimoiy hayotida qanday ishtirot etganligini, mamlakatimizdagagi va chet ellardagi voqealarga qanday qaraganligini, amalga oshirilgan ishlardan qaysilari muvaffaqiyatli bo'lgan va an'anaga aylanishi kerakligini, o'quvchilar o'rtasida qanday munosabatlar vujudga kelganligini, sinf faollarinining tashabbuskorligi, mustaqilligi, obro'-e'tibori va boshqa masalalarni atroflicha tahlil qilish muhimdir.

Sinf rahbari tarbiyaviy-pedafofik jarayonda tajriba ortirgan sari ancha murakkab masalalar bilan qiziqa boshlaydi. Uni sinfdagi ishlarni qanchalik muvaffaqiyatli o'tgani emas, balki ular o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatgani, sinfning ijtimoiy foydali ishlarda ishtirot etishi emas, balki ishtirot etish sabablarini qiziqitradi. Shuni nazarda tutish kerakki, sinf rahbari o'z sinf jamoasi oldiga qo'yadigan aniq tarbiyaviy vazifalari dastlabki vazqlarda uncha murakkab bo'imasligi mumkin. Masalan, sinf rahbari sinfga kelgandan so'ng deyarli hamma o'quvchilar yaxshi ishlashini, lekin ularning bir-biri bilan aloqasi yo'qligini aniqladi. Bunday sinfda shunday bir ish topish kerakki, bu ish hamma o'quvchilarni yagona maqsadga olib borsin. Bolalarga bu vazifa –ijtimoiy foydali mehnat vaqtida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, qog'oz chiqindilarini topib topshirish yoki temir-tersak chiqindilarini yig'ish vajo'natish shaklida. O'z mazmuniga ko'ra juda oddiy bo'lgan bu topshiriq o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Ularda temir-tersak yig'ishda bir-birlari bilan musobaqalashib, uni tezroq bajarish ishtiyoqini hosil qiladi.

Boshqa bir sinf rahbari o'z ishlarni tahlil qilib chiqib, shunday xulosaga keldi: sinfda ko'p ishlarni o'zi bajaradi, o'quvchilar esashaxsiy hayot egalari bo'lib emas, balki ko'pincha ishning ijrochilarib o'lib qoladilar. Shuning uchun u

o'quvchilarning tashabbus vamustaqilligini rivojlantirish, barcha o'quvchilarni sinf ijtimoiy faoliyatigajalb etish va har bir o'quvchida o'ziga yoqadigan ish bo'lishgaerishish vazifasini qo'yadi. Shunday vazifa qo'ygach, sinf rahbario'quvchilarning ko'pchilik qismini zarur malaka va ko'nikmalar bilanqurollantirish uchun o'z diqqat-e'tiborini sinf faollarini tarbiyalashgaqaratish kerakligini tushunadi.

Ana shu yo'sinda izchil ish olib borilsa, tarbiyaviy vazifalar o'quvchilar uchun qiziqarli, istiqbolli vazifalarga aylanadi. Sinf rahbari turli rejalar tuzib olishi mumkin: kelajakka mo'ljallangan, ya'ni istiqbolli (yillik, bir necha yillik) va muvaqqat (oylik, haftalik, kunlik). Xo'sh rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo'lishi kerak?

Bosh manba - hukumatimizning farmon va qarorlari, Prezidentimiz qator risolalari hamda xalq ta'limi tizimining rasmiy yo'l-yo'riqlari, hujjatlari hisoblanadi. Rejaning vana bir muhim manbayi –o'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlilidir. Reja quyidagi bir qator talablarga javob berishi kerak:

1. Rejaga mustaqillik g'oyalarining singdirilishi (milliy istiqlol g'oyasini singdirish).
2. Rejaning shakl va yo'nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo'lishi.
3. Reja uzluksiz va izchil bo'lishi.
4. Rejaning aniqligi.

Ushbu talablarning qisqacha mazmuni bilan tanishib chiqamiz. Rejaga mustaqillik g'oyalarining singdirilishi. Barcha tarbiyaviy vazifalar maktab oldiga qo'yilgan asosiy maqsadni –o'quvchilarni har tomonlama, "Sog'lon avlod uchun" dasturi asosida ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, ularni hayotga, mustaqil davlat qurilishiga faol qatnashishga tayyorlash maqsadini amalga oshirishga qaratilmog'i darkor.

Sinf rahbari g'oyaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirishda bolalarni faqatkitobiy bilimlar bilan emas, balki amaliy, hayotiy tajribalar bilanqurollantirishni nazarda tutishi zarur. Bu ma'ruzachilar, siyosiy maktablar, siyosiy klublar va hokazolarni tashkil qilish mo'ljallanayotganvaqtدا o'quvchilarning o'z g'oyaviy e'tiqodlarini qay darajada ekanligini sinabko'rishga imkon beradigan vaziyatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadi. Bu ishlarni munozaralarda, bahslarda, og'zaki va yozma jurnallarda, mehnat harakatlarida, bayramlarda, bolalar va yoshlar tashkilotlari ishlarda, tabiatni, hayvonot dunyosini, tarixiy yodgorliklarni qo'riqlash kabi rang-barang tadbirlarda amalga oshirish mumkin.

Axloqiy va vatanparvarlik tarbiyalariga milliy mafkuramizning asosiy g'oyalarini tom ma'nosini bilan singib ketgan bo'lishi kerak. Ba'zan ayrim sinf rahbarlari ish faoliyatidako'ngilochar o'yinlarni ko'proq o'tkazish an'anasi ko'zga tashlanadi. Rejalashtirishda shuni nazarda tutish kerakki, u o'yinmi, u ishmi – biror maqsadga qaratilganligiga, uning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

**Rejaning shakl va yo'nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo'lishi.** Tarbiyaviy ishning xilma-xil shakl va uslublari bo'yicha ish olib borish tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar uchun yanada rang-barang va qiziqarli tarzda olib borishga yordam beradi. Rejada o'quvchilar bilan faqat umumiy holda emas, balki shu bilan birligida bolalarning qiziqishlari va mayyllarini hisobga olgan holda ham ish yuritishni nazarda tutish muhimdir.

**Reja uzluksiz va izchil bo'lishi.** Rejada belgilanadigan tarbiyaviy tadbirlar yagona tarbiyaviy jarayonning tadrijiy bo'laklaridan iborat bo'lmog'i kerak. Har bir tadbir o'zidan oldingi tadbirning davomi bo'lishi va erishilgan tarbiya natijalariga asoslanishi lozim. Bu uzluksizlik va izchillikni ta'minlaydi, erishilgan yutuqlar, qimmatli ko'nikmalarni yo'qolib ketishdan saqlaydi.

**Rejaning aniqligi.** Rejaga bajarib bo'lmaydigan ishlarni kiritmaslik kerak. Ishni rejalashtirishda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish lozim. Rejada hamma narsa: ish vaqtি, joyi, mas'ullar aniq bo'lishi, o'tkazilgantadbidan kutilayotgan taxminiy natijalar ham berilishi lozim.

Sinf rahbarining tarbivaviy ishlari rejasini bu – majburiy pedagogik hujjatdir. Uni amalga oshirish uchun sinf rahbari shaxsan mas'uldir. "Sinf rahbari haqida Nizom"da: "Sinf rahbarining ishi reja asosida olibborilishi lozim", deb belgilab qo'yilgan. Sinf rahbari umummaktab ish rejalar, bolalar yetakchisi, "Kamalak" bolalar tashkiloti kotibi ish rejalar bilan tanishib, direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yichao'rribosarlar, sinf o'qituvchilar, sinf faollari, ota-onalar bilan fikrashib, ularning qimmatli takliflarini hisobga olgan holda ishning istiqbolli rejasini tuzadi. Ishning istiqbolli rejasini sinf jamoasi to'plangan tajribaga qarab va sinf rahbarining o'z vazifalariga muvofiq ravishda bir yoki bir necha yilga tuzilishi mumkin. Nizomda "Sinfning yillik ish rejasini tuziladi. Uni tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rribosari tasdiqlaydi" deyilgan.

Rejaning ifodalinish shakli juda oddiy bo'lgani ma'qul: **ishning nomi, bajarish muddati, mas'ul kishi.** Reja qisqa va aniq bo'lishi kerak. Bo'lar-bo'lmas ishlari ro'yxatini qalashtirib, behuda, sharoitingizga mos bo'Imagan keraksiz reja tuzishiga berilib ketmaslik kerak. Rejaga faqat hayot ilgari surgan va o'quv yili davomida muvaffaqiyatlari bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlarnigina kiritish lozim.

Kiritilgan tadbirlar ham biri bog'dan, biritog'dan olib yozilmasligi, balki ular tarbiyaviy ishlar tizimida bir-biri bilan bog'langan, bir-birini to'ldiradigan holda tizimli bolishi zarur. Reja bola shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

#### **Rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.**

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasи bu – majburiy pedagogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko'rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda. Rejalashtirishda quydigilar nazarda tutilsa, uning samarasи oshadi:

1. Reja mahalliy sharoitga qarab, matabning joylashagan o'rni, albatta, o'quvchilarinrg savyasi, yoshtga qarab mumkin qadar mos tuzilishi kerak.
2. Reja muayyan maqsadga qaratilishi va real (aniq) bo'lishi zarur.
3. Bolalar va o'smirlar uyushmasi bilan kelishilishi lozim.
4. Rejada o'quvchilarning kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta'tillarida qiladigan ishlari aks etishi kerak.
5. O'tkaziladigan tadbirlarning bajaruvchi shaxslari, muddati va bajarilishi turi aniq ko'rsatilishi lozim.
6. Reja mакtab direktori o'rнbosarlari tomonidan ko'rib chiqilib, direktor tomonidan tasdiqlanishi shart.

Rejalashtirishda sinf rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari juda ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy ish jarayonini endi boshlagan, kam tajribaga egasinf rahbari, odatda, keng qamrovli ish rejasini tuzsa, pedagog esa, chegaralangan reja bilan ishlashi mumkin. Ammo har ikkala holda ham barcha sinf rahbarlarining tarbiyaviy rejasida tarbiyaviy ish faoliyatining asosiy mazmuni hamda yo'nalishlari to'la aks ettirilmog'i darkor.

Rejaning yana bir muhim manbayi – o'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlilidir.

Reja –o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy shartidir. Rejasiz ish olib borish sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va uslublari o'lda-jo'lda, tarqoq, noaniq, tasodifiy holatlarda bo'ladi va ko'r-ko'rона harakat qilishga olib keladi. Bunday taqdirda tarbiyaning asosiy vazifalarini hal etish qiyinlashadi, ba'zan esa butunlay samarasiz bo'ladi. Reja sinf rahbarining tarbiya berish faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun juda katta imkoniyatlar ochib beradi.

Reja bola shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Sinf rahbari o'quv yili oxirida sinf jamoasi ishini tahlil qilishga alohida e'tibor beradi. Bunday rejada belgilangan vazifalarini qanday hal etilganligini, sinf ijtimoiy hayotida qanday ishtirok etganligini, mamlakatimizdagi va chet ellardagi voqealarga qanday qaraganligini, amalga oshirilgan ishlardan qaysilari muvaffaqiyatliligidini, amalga oshirilgan ishlardan qaysilari muvaffaqiyatli bo'lgan va an'anaga aylanishi kerakligini, o'quvchilar o'rtasida qanday munosabatlar vujudga kelganligini, sinf faollarining tashabbuskorligi, mustaqilligi, obro'-e'tibori va boshqa masalalarni atroficha tahlil qilish muhimdir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol vatopshiriqlar**

1. Sinf rahbari deganda nimani tushunasiz?
2. Sinf rahbari faoliyatiga izoh bering.
3. Sinf rahbari ish rejasи to'g'risida ma'lumot bering.
4. Tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari faoliyatini izohlang.
5. Prezidentimiz qaysi asarlarida yosh avlod tarbiyasi to'grisida o'z fikrlarini bildirgan?
6. Sinf rahbari ish rejasи qanday talablarga javob berishi kerak?
7. O'quvchilar jamoasi bilan ishslash deganda nimani tushunasiz?
8. Sinf o'quvchilari bilan ishslashda qanday tarbiya usullaridan foydalilanadi?
9. Ota-onalar bilan ishslashda sinf rahbari qanday tadbirlar tashkil etadi?
10. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda sinf rahbari nimalarga e'tibor qaratadi?

## Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va ular bilan olib boriladigan ishlar metodikasi.

Jamo va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsnar har tomonlama tarbiyalash, unda ijobjiy sifatlarini hosil qilish, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'limga yangi turdagiga ta'limga muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatlari vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in bu *-sinflar jamoasi* sanaladi. Sinf jamoasi doirasida o'quvchilarning asosiy faoliyati o'qishdir. Aynan sinf jamoasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Bu bilan sinf jamoasi o'z negizida maktab jamoasiningshakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi bu-ijtimoiy ahamiyatni tashkil qilish, shuningdek, umumiy saylov organlariga va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi pedagogik-tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'analariga ega guruh hisoblanadi.

Demak, yuksak darajada uyuhshtirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyatlarni namoyon etadi. Ular quyidagilardir:

- Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi;
- Birgalidagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi;
- Majburiy mas'uliyatlari munosabatning yo'liga qo'yilishi;
- Saylangan umumiy rahbarliy organiga egalik.

Jamoani shakllantirish muayyan muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelishi uchun 4 bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlari: dastlab pedagog butun guruhga talab qo'yadi, so'ngra jamoa faollari jamoa a'zolaringa talab qo'yadi, so'ngra butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tarzda faoliyat olib borishni talab qiladi va, niyoyat, shaxs o'z-o'ziga talab qo'yadi.

Yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlashda, ularda oliy axloqiy sifatlarini shakllantirishda jamoa ruhida tarbiyalash alohida o'rinni egallaydi. O'quvchi maktab davrida jamoa bo'lib o'qiydi, hamjihatlikda ishlaydi. Demak, jamoatchilikning dastlabki tamoyillari bilan tanishadi va ularni o'rganib boradi.

"Jamoatchilik" tushunchasini tor ma'noda va keng ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda jamoa ma'lum guruh kishilar yig'indisi, sinf jamoasi va boshqalardir. Jamoatchilikni keng ma'noda tushunish bu, dastavval, uning obyektiv asoslarini bilishdir. Shaxsnin asosiy xususiyati jamoa bo'lib, u obyektiv asosida shakllanadi. Bu esa, dastavval, jamiyat xarakteriga va hayot sharoitiga bog'liqidir.

Jamoatchilik nazariyasining bu obyektiv qonuniyligini, albatta, hisobga olish zarur. Jamoatchilikning bunday tarixiy taraqqiyotini kuzatish hozirgi jamiyatda jamoatchilikning mohiyati nimadan iborat ekanligini, shuningdek, jamoatchilikning mohiyati nima bilan xarakterli ekanligini bilishni taqozo etadi. Buning qarashimizcha, jamoatchilik shaxsnin asosiy xususiyatigina emas, balki butun g'oyasi hamdir.

Jamoatchilikning rivojlanish dialektikasi, bir tomondan, obyektiv asosini ko'zlasa, ikkinchi tomondan, jamoaning rivojlanishi, nazariy psixologiyasi sifatida obyektiv moddiy asoslarini aks ettiradi.

Jamoatchilikda shaxsiy va jamoat manfaati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Jamoatchilik manfaati shaxsiy qiziqishni ham ko'zlaydi, shaxsiy manfaat, o'z navbatida, umummanfaatni ham ko'zlaydi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, jamoatchilik o'zining mohiyati bilan o'zining asoslariga ega. Agar jamoatchi ma'lum guruh, jamiyatni va uning manfaatini o'zida ifoda etsa, individualchi bir kishininggina manfaat va qiziqishini ifoda etadi.

Jamoatchilik kishilardagi irodaviy, aqliy va hissiyot jarayonidir. Jamoa hissiyot bo'lib, kishilarning bir-biriga va atrofdagilarga bo'lgan munosabatlarida hamda ichki kechinmalarida, kishilarning ichki his-tuyg'ularini, o'z jamoasining yuq va kamchiligi to'g'risidagi ichki kechinmalarini tushunamiz. Jamoaviylik hissi shaxsdagi aqliy jarayon bilan uzyvi bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham, kishilardagi jamoa hissini shakllantirishda bu hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yoshlarda jamoatchilikni shakllantirish bilan bir vaqtida, ularning aqliga, hissiyotiga ham ta'sir ko'rsatiladi.

Demak, o'quvchilarda jamoaviylikni shakllantirish dialektik jarayon bo'lib, shu shakllantirish bilan bir vaqtida individualizmga qarshi kurashiladi. Bu kurashda yoshlarning ongi, psixikasi individuallikni e'tirof etadi. Bu psixikaning dialektik taraqqiyoti hisoblanadi. Kishi o'zida jamoa hissi paydo bo'lishi bilan individualizmni inkor etadi. Individualizmni inkor etish jarayoni psixik va amaliy tajribada ma'lum darajada qiyinchilikni vujudga keltiradi. Bu qiyinchilik bilan kurashishirodaviy jarayonga bog'liqidir. Shuning uchun ham jamoatchilikni shakllantirishda irodaviy jarayon birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Jamoatchilik kishilarning umumiy maqsad yo'lida birlgilikda qilgan mehnat va kurash jarayonidagi birlashuvi, jipslashuvi, o'rtoqlarcha o'zaro yordam va birodarligi demakdir.

Kishilarda bir necha asrlar davomida shakllangan munosabatlar va odatlarni, albatta, birdan yo'q qilish uchun kishilarni tizimli ravishda jamoa ruhida tarbiyalab borish, ularda o'rtoqlarcha o'zaro yordam munosabatlarini hosil qilish jarurdir. Jamoa ruhida tarbiyalashda asosiy masala barcha kishilarda yuksak onglikni, Yangi O'zbekiston jamiyat qurilishi talablari darajasiga ko'tarishdan iboratdir. Yuqoridaqilarga asoslanib yoshlarni jamoa ruhida tarbiyalashning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- eng ilg'or korxona jamoalarining ish tajribasidan, ahillik, hamjihatlik, jamoa va o'rtoqlarcha o'zaro yordamlashishda ibratli oilalar, ota-onalar hayotidan misollar keltirish;

- kishilarning hayotida jamoa bo'lib, bir-birlari bilan do'stona, birodarlarcha munosabatda bo'lib yashashlari, mehnat va ijod qilishlari, hayot va turmushlarining doim go'zal va xushchaqchaq o'tishiga katta yo'l ochib berishni har tomonlama misollar asosida tushuntirish. Aksincha, kishilar o'z hayotida jamoaga va uning qo'ygan talablariga to'g'ri baho bermay hayot kechirsalar, turmush ko'ngilsiz, shirasiz va ma'naviy boyliksiz o'tishini uqtirish.

Jamoatchilikning bu xususiyatlari va tamoyillari falsafiy va pedagogik jihatdan keng va teran sharhlab beriladi. Jamiyat va shaxs munosabatlari muhim ahamiyatga ega.

Odamning shaxsligi esa, uning o'zga odamlarga, jamiyatga, vatanga, butun imkoniyatga munosabatlari bilan bog'liqdir. Demak, odam biologik tushuncha, shaxs ijtimoiy tushuncha.

Jamoaning umumiy manfaati bilan bolaning shaxsiy manfaati birlashib, uyg'unlashib ketadi. Va shu holda bola shaxsiy manfaatga nisbatan jamoaning maqsadi va manfaati muhimroq ekanligiga, bir kishi hammani (o'z jamoasidagi hamma odamlarni) o'yashi, hamma (butun jamoa) esa, shu jamoadagi har bir odamni o'yashi, g'amxo'rlik qilishi zarurligini tushunish bolalaning ongini o'stiradi. Bu jarayondagi yanayam muhimrog'i, jamoa a'zolarining o'zaro hurmatining do'stlilikka aylanishidir. Endi bola yoki o'smir do'stlarsiz hayot juda zerikarli, mazmunsiz o'tishini anglaydi.

Shunday ekan, har bir sinf rahbari o'z o'quvchilariga jamoani qanday, qaysi yo'l va vositalar yordamida shakllantirish mumkinligi, uning mohiyatini tushuntirishi maqsadga muvofigdir. Bunda jamoatchilik va o'rtoqlarcha o'zaro yordam to'g'risida hayotiy misollar va aforizmlardan foydalanish, kitoblarni o'qish, voqealardan misollar keltirish, tadbirlar o'tkazish asosida o'quvchilarni jamoaviylik ruhida tarbiyalashi muhim o'rinn tutadi.

O'quvchilar jamoatchilikning mohiyatini puxta bilgan taqdirdagina uni amalga oshirish uchun samarali kurashishlari mumkin. Bundoq'ituvchi o'quvchilarga jamoaviylik jamoa va shaxsnинг rivojlanishi uchun asosiy vosita ekanligini tarbiya jarayonida ishonarli va ta'sirli uqtira olishi zarur.

Jamo va shaxs muammosi yosh avlodni tarbiyalashning eng dolzarb nazariy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ham o'quvchilarni jamoatchilik ruhiyatiga, jamoa hayotiga, jamoa bo'lib uyushishga odatlantirish, malaka hosil qilish, jamoatchilik ongini shakllantirish umumiyo o'rta ta'lif muassasalarining vazifasi hisoblanadi.

Shaxs faqatgina har tomonlama rivojlangan bo'lib qolmasdan, balki u ijtimoiy faol bo'lishi, o'zining borkuch va imkoniyatlarini Vatanga xizmat qilish uchun zo'r berish hamda jamiyatda o'rnini topa olishi kerak. Bundan tashqari, shaxsnинг Vatanga xizmat qilishida uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyat va iqtidoridan samarali darajada foydalaniladi.

Jamoatchilikning asosiy xususiyatlardan biri o'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishdir. Chunki, vatanparvarlik hissiyoti kishilarning o'z ona-Vataniga, foydiriga g'amxo'rlikdir. Haqiqiy vatanparvar o'z ona-Vatani, xalqining gullab-yashnasi, erkinligi uchun kurashadi.

Demak, ona-Vatanimizning taqdiri, dastavval, butun mehnatkash xalqning taqdiridir. Buning uchun kurashhar bir kishining burchidir. Vatanparvarlik bu - kishining axloqiy xususiyatidir, o'z ona-Vatanining munosib fuqarosi bo'lishi uchun timmay intilishidir. Shuning uchun qadim vaqtlardan beri vatanparvarlik tuyg'usining asosida o'z Vatanini sevish, uni ardoqlash, ko'z qorachig'idek asrab-avvalash tushunilgan.

Millatlararo totuvlik ham jamoatchilikning asosiy xususiyatlardan hisoblanadi. Maktab jamoasida o'quvchilarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash adabiyot, geografiya, rus tili, chet tili va boshqa fanlarni o'qitish asosida amalga oshiriladi, degan fikr noto'g'ri. Bola, dastlab, oilada ilk yoshiqidan, so'ngra maktabning birinchi sinfidan boshlab vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi. Oilada hamma katta-kichiklар birga bo'lishib, radio, televizordan bir necha millat o'quvchilarining o'zaro do'stligi va o'rtoqligi haqidagi eshitirishlarini tinglaydilar, ko'radilar va birgalikda muhokama qiladilar. Bu esa juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, maktab jamoasida olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ham o'quvchilarning millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalanishiga ta'sir ko'rsatadigan kuchli vositadir. Ayniqsa, maktab jamoasida o'zbek, rus, ukrain, belarus, gruzin, arman, qozoq, tojik, turkman, ozarbayjon, tatar, qoraqalpoq va boshqa millat bolalarining bir-birlari bilan juda quvnoq va ahil bo'lib o'qiyotganliklari, yashayotganliklari bu millatlararo totuvlikni mustahkamlaydi va ular o'rtasida do'stlikni yanada rivojlanishi hamda mustahkamlanishida katta rol o'ynaydi. Demak, maktab jamoasida millatlararo totuvlik tarbiyasining xususiyatlari quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Maktab jamoasi bolalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda ular e'tiborini, albatta, bir millatning ikkinchi bir millatdan farq qiladigan urf-odatlari, millatga xos xususiyatlari emas, balki turli millat vakillarini bir maqsad uchun birlashtiradigan va yaqinlashtiradigan umumiyo an'analarga qaratish.

2. Maktab jamoasi bolalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga bag'ishlangan suhbatlarda turli millat xalqlarning hayotidan misollar keltirish, ularning tinchlik, mehnat, ozodlik, tenglik, qardoshlik va baxt-saodat uchun olib borayotgan hayotiy intilishlarini ko'rsatib o'tish.

3. Dunyodagi barcha millat xalqlarining birdamlik uchun kurashlari natijasida millatlar o'rtasida vujudga kelgan umuminsoniy qadriyatlarini bolalar ongiga singdirish. Masalan, o'zbek xalqining mehmono'stligi va ota-onalarni surmat qilishlari singari milliy an'analar bilan bolalarni tanishtirish.

4. Maktab jamoasida o'quvchilarni har bir millatning o'zaro do'stligi, qardoshlarcha munosabati, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashi, o'zaro surmat ruhida tarbiyalash baynalmilal tarbiyaning birinchi vazifasidir.

Jamoaviylik tarbiyasining xususiyatlaridan yana biri o'rtoqlarcha yordamdir. O'rtoqlarcha o'zaro yordam hissi, dastavval, oilada, maktab sharoitida, jamoa bo'lib ishlash jarayonida singib boradi. Jamiyatimizda har bir kishi o'zaro o'rtoqlarcha yordamlashishni, bunga ehtiyoj borligini yoshlikdan, o'quvchilik chog'idan his eta boshlaydi. O'qituvchi, ota-onalar bu hisni qo'llab-quvvatlashi, uning kengroq shakllanishiga barcha vositalar bilan, pedagogik mahorati bilan yordam berishlari zarur. O'quvchilarga bu sohada ijtimoiy fanlar eng yaqin ko'makechidir. O'quvchilar kishilar, jamoalar, davlatlar o'tasidagi o'zaro yordamni bilib, ularning ma'nosini tushunib boradilar. Kishilarning, o'quvchilarning xat o'qishda va o'zaro munosabatlarda o'zaro o'rtoqlashish, yordamlashishdek hissini tarbiyalashda ajoyib manba bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari o'rtoqlarcha o'zaro yordamning navbatdagi formasи bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchining doimiy biriktirib qo'yilishidir. Xuddi shuningdek, guruhga, sinfga va boshqalarga biriktirib qo'yish ham o'zaro yordam formasidir. O'rtoqlarcha o'zaro yordamning yana bir formasи birlashib kichkina guruh sifatida dars tayyorlashda namoyon bo'ladi.

O'rtoqlacha o'zaro yordam o'quvchilarning san'at havaskorlari, sport musobaqalariga o'quvchilarini tayyorlashda, ularning rahbarlar ishlariga yordam berishlarida ko'rindi. O'rtoqlarcha o'zaro yordam shanbalik, hasharlarda o'quvchilri faol qatnashtirish yo'lidir. Mehnatga ongli munosabatda bo'lish harakatlari, mamlakatimizda shanbaliklar va yakshanbaliklar uysushtirish, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Shuni aytish kerakki, maktab jamoasi-o'quvchilarda jamoatchilik hissini tarbiyalashning asosiy manbai hisoblanadi.

Har qanday bolalar jamoasi, u qanday tarzda bo'lishidan, uning oldiga qanday o'ziga xos vazifa qo'yilishidan qat'i nazar, tarbiyachi undan bolalarmi tarbiyalash manbai sifatida foydalanishi shart. Makkabbolalar jamoasi o'quvchilarda tarbiyaning u yoki bu tarkibiy qismi va sifatlari manbai sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, maktab jamoasi o'quvchilarda jamoatchilik hissini tarbiyalashning manbai ekanligini dastavval o'quvchilarning jamoa bo'lib ijtimoiy-foydali ishlarga qatnashishida, jamoa bo'lib sayohattлага borishida, yozgi mehnat va dam olish lagerlarida, turli musobaqa va ko'rik-tanlovlarda ishtirot etishtalarida yaqqol ko'rish mumkin. O'quvchilar bu tadbirdarda qatnashishi bilan ularda birgalashib umummanfaat yo'lida mehnat qilish, jamoa manfaati uchun qayg'urish va umummanfaatni shaxsiy manfaatdan yuqori qo'yish, o'zaro o'rtoqlarcha yordam, hamkorlik, birlik, ahillik singari axloqiy sifatlar shakllana boradi. Ayrim hollarda, ba'zi o'quvchilarda jamoatchilikka zid bo'lgan shaxsiyatparastlik, xudbinlik kabi salbiy-axloqiy ko'rinishlar ham paydo bo'lib qolishi mumkin. Bizning fikrimizcha, maktab jamoasi o'quvchilarda jamoatchilik hissini tarbiyalashning manbai ekanligini belgilashda yuqoridaq kabi hollarni hisobga olishlari shart.

Demak, jamoatchilik tarbiyasini, dastavval, birgalikdagi jamoa bo'lib, ko'pehilik foydasi uchun mehnat qilish, shaxsiy manfaatini umummanfaatiga bo'ysundirish, bir-birlariga beg'araz va o'rtoqlarcha o'zaro yordam berish farzida o'quvchilar ongiga singdirish ko'zda tutiladi.

O'rta maktab o'quvchilarini tarbiya jarayonida jamoatchilik va o'rtoqlarcha yordam ruhida tarbiyalashning xilma-xil yo'l va vositalari mavjud. Chunonchi, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga qatnashtirish, sport musobaqlari, sayohat, munozara va konferensiylar, sind soatlari, sind majlisi, o'rtoqlarcha o'zaro yordam haqida individual va jamoa suhbatlar o'tkazish, maktab radiosи va shahitishlari hamda maktab devoriy gazetasi singari maktabda olib boriladigan ish turlari o'quvchilarni jamoatchilik ruhida tarbiyalashning eng asosiy vositalari bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va ularning jamoatchilik haqida olgan bilimlarini amaliy hayotga tatbiq qilishlarini aniq maqsad asosida munozaralar o'tkazish orqali o'rganib boorish juda ahamiyatlidir. Ma'lumki, sind rahbari va maktab tarbiya ishlarining tashkilotchisi vaqtqi-vaqtqi bilan o'quvchilar o'tasida tashkil qiladigan munozaralario'zining oldiga qo'ygan vazifalari va formasи bilan boshqa mavzudagi munozaralardan ma'lum darajada farqlanadi.

Munozara o'tkazishdan taxminan bir oy ilgari munozara mavzusi tanlanib, o'quvchilar diqqatiga havola qilinadi. Bunda munozara shartlari, talablari, munozaraga tayyorlanish uchun kimlardan maslahat olish, qanday adabiyotlar o'qish hamda munozara mavzusining taxminiy rejasи va yo'l-yo'riqlari haqida ma'lumot beriladi.

Munozara vaqtida o'quvchi shu mavzu bo'yicha o'z bilganlarini erkin holda gapirib beradi. Munozara o'quvchiga murakkab masalalarni tushunib olishga, o'z tushunchasini o'rtoqlari oldida namoyish qilishga va bilim doirasining tengayishiga yordam beradi.

Munozarada o'quvchi o'rtoqlarning qimmatli fikr va maslahatlaridan bahramand bo'ladi. Shuningdek, munozarani yakunlab bergen o'qituvchilarning aniq fanlari o'quvchilar bilimini to'ldirishga yordam beradi. Shuning uchun ham o'quvchilar munozaraga katta qiziqish bilan tayyorlanadilar va faol ishtirok etadilar.

Jamoatchilik va o'rtoqlarcha o'zaro yordam dastavval kishilarning umumiy maqsad yo'lida birlashib mehnat qilishida namoyon bo'ladi. Bizda har qanday ongli ijodiy mehnat, shuningdek, qishloq xo'jaligi va sanoat sohasidagi mehnat kishilarining bilimi, aql-idrokini, irodasini ishga solish orqali bajariladi.

Bularning asosida birlik, hamkorlik, o'rtoqlarcha o'zaro yordam yotadi. Buziz mehnat sifati va unumdorligi ko'ngildagidek bo'lmaydi. Demak, o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnati o'z bilim, his-tuyg'u va irodasini sarflab hamkorlikda o'zaro yordamlashib ishslashlari jamoatchilik hissining qaror topayotganligi bilan bog'liqidir. Shuning uchun o'quvchilarning birgalashib ishlashi, umumiy maqsadni ko'zlab mehnat qilishi jamoatchilikning asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Jamoa, ijtimoiy-foydali mehnat maktab o'quvchilarining do'stlashishiga, birlashishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va, shu bilan birga, barcha o'quvchilarning umummaktab jamoasi atrofida mahkam jipslashuviga yordam beradi. O'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnatga qatnashishi ularda o'zaro ongli munosabat, do'stlik, o'rtoqlik, hamkorlik hislarining o'sishiga yordam beradi. Shuni aytish kerakki, o'quvchilar bajaradigan ishning, vazifaning maqsadi qanchalik aniq bo'lsa, o'quvchilarning o'zaro aloqasi va birligi shunchalik kuchaya boradi.

O'quvchilar biror ishni jamoa bo'lib bajarishi bilan o'sha ishidan qanoat hosil qiladi, sinf va maktab jamoasi oldida o'z burchini o'tagani bilan quvonadi. Binobarin, o'quvchilarda mehnatga, umumuxalq ishiga qiziqish kuchayadi, yangicha ishslash va yashash, o'qish va o'rganishni hayotiy zaruriyat sifatida tobora chuqur anglay boradi.

Umuman olganda, o'quvchilarni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish ularga hozirgi zamон mehnat madaniyatining sinalgan yo'llarini o'rgatish yo'li bilan o'quvchilarga mehnatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, mehnat ahllarini hurmatlash, mehnat qilish orqali zavq-shavq olishga alohida e'tibor beriladi. Bu o'quvchilarimizda mehnatsevarlik, o'z ishining ustasi, ijodkori bo'lib tarbiyalanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabda o'quvchilarni ijtimoiy-foydali mehnat qilishga jalb etishga, jamoa bo'lib mehnat qilishga, mehnat bilan madaniy dam olish yo'llariga ham alohida e'tibor beriladi.

Hashar o'zining tarixiy va ijtimoiy ildizlariga ega. O'tmishda og'ir mashaqqatli mehnat natijasida kambag'al dehqonlar o'zlariga ajratilgan yerlarni ishslashda yakkaligi sababli va imkoniyati bo'Imaganligi hamda o'zaro jamoa bo'lib bir-birlariga yordam berish va shu orqali ijtimoiy hayotda bir-birlarini qo'llab-quvvatlash istagidan kelib chiqqan. Hashar o'zining mohiyati bilan jamoa mehnati bo'lib, jamoa tomonidan ma'lum shaxs manfaati uchun bag'ishlangan jamoa mehnati deyish ham mumkin. Chunki shu yo'l bilan ma'lum bir shaxs, bir tomondan, moddiy manfaatdor bo'ladi, ikkinchi tomondan, ma'naviy boyiydi.

Shunisi xarakterlikli, o'quvchilarning hasharga borishi ularda yaxshi kayfiyat tug'diradi. Shuning uchun hashar o'quvchilar uchun quvnoqlik, zavq-shavq baxsh etishini sezish qiyin emas. Hashar orqali o'quvchilar ota-onalari, maktab ma'muriyati, o'quvchilar jamoasi, sinf jamoasi va, umuman, o'zlarini jamoatchilik oldidagi o'quvchilik burchlarini bajarganday his qiladilar. Shu bilan birga o'quvchilar hasharda qatnashish orqali kishilar muhtojligini qondirish bilan o'zlarini yanada tetik, baquvvat va sadoqatlidek his etadilar.

Nihoyat, o'quvchilar hasharda qatnashish yo'li bilan yaqindan aloqada bo'lish, do'stlashish, o'zaro o'rtoqlarcha yordam berish, hamjihatlik, birlik, fidoyilik singari jamoatchilikka xos sifatlarni tobora ko'proq shakllantiraboradilar.

Demak, hashar o'quvchilarga jamoatchilik ruhini tarbiyalashdagi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarni jamoa ruhida tarbiyalashda o'qitish jarayoni bilan birga sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning ahamiyati benihoya muhimdir.

### Savollar va topshiriqlar.

1. Sinf rahbarligi qanaqa faoliyat turlarini o'z ichiga oladi?
2. Sinf hujjalari deganda siz nimani tushunasiz?
3. Tarbiyaviy tadbirlarning shakllarini ayтиb bering?
4. Tarbiyaviy ishni rejalshtirish bosqichlarini ayтиb bering?
5. Qanaqa tarbiyaviy tadbirlarni bilasiz?
6. Badiiy – estetik tarbiya tizimi nimalarni o'z ichiga qamrab oladi?
7. Fan to'garaklari faoliyatini ayтиb bering?
8. Sinf rahbarining istiqbolli rejasini bo'ladimi?
9. Umumta'lim matabining joriy rejasini deganda nimani tushunasiz?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Миртурсунов З. Ўзбекхалқпедагогикаси. -Т.: Фан, 1973.
2. Мунавваров А.Ў. Оила педагогикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
3. Мусурмонова О. Маънавият қадриятлари ва ёшлар тарбияси. -Т.: Ўқитувчи, 1995.

## **6-MAVZU: SINF TARBIYAVIY SOATLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА. SINF MAJLISINI TASHKIL ETISH.**

Bolalarimizni birovlarning  
qo‘ligaberib qo‘ymasdan, ularni  
o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim.

*Shavkat Mirziyoyev*

### **Reja:**

1. Sinf tarbiyaviy soatlarining tarkibiy qismlari. Sinf tarbiyaviy soatlarni tashkil etish, yushtirish va o‘tkazishning tartib va uslublari.
2. Sinf tarbiyaviy soati uchun joy tayyorlash va uning davom etish vaqtini haqida ma’lumot berish.
3. Sinf majlisini tashkil qilish va unga qo‘yligan didaktik talablar

**Tayanch so‘zlar:** sinf rahbari, sinf hujjatlari, tarbiyaviy ish, rejalashtirish, faoliyat, tadbirlar, badiiy-estetik tarbiya, fan to‘garaklari, istiqbolli reja, joriy reja, taqvim-mavzu reja.

2017-yil 6-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori qabul qilingan. Shu munosabat bilan umumta’lim mакtablarida tarbiyaviy soatlar mazmunan qayta ko‘rib chiqilib, kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirilishi belgilandi.

**Ma’lumki, sinf rahbari o‘z sinfidagi o‘quvchilarining bevosita ta’lim-tarbiya jarayoni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas’ul shaxs hisoblanadi.**

Umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida sinf rahbari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi qarorlari, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me’yoriy hujjatlar hamda Xalq ta’limi vazirligining 2020-yil 30-iyuldagisi 180-sonli buyrug‘i 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Umumiyl o‘rta ta’lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizom asosida tashkil etildi.

Mazkur Nizomda belgilanganidek, tarbiyaviy soatlarni tashkil etish va o‘tkazishdan maqsad —mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, ma’naviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

**Tarbiyaviy soatlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo‘yiladigan vazifalar:**

- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarini tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

– tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

– o‘quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlashdan iborat.

Tan olish kerak, bugungi kunda axborot oqimining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatning salbiy ta’sirlari ham sezilmoxda. Bu masalanı o‘quvchilarining ijtimoiy hayotlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida ota-onalar tomonidan bolalarning beodobligi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, ularda mas’uliyatning yetishmasligi, atrofidagilar bilan kelisha olmasligi, o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘largni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. Shuning uchun ham sinf tarbiyaviy soatlarni ishlab chiqishda Respublika ta’lim markazi tomonidan har o‘quv tili boshlanishi oldidan tashkil etiladigan an‘anaviy avgust kengashlarida beriladigan tavsiyalarga tayanish ijobji samara beradi. Sababi, ta’lim markazi mazku tavsiyalarni ishlab chiqishda tarbiya sohasidagi eng ilg‘or milliy va xaqlaro tajribaga asoslanishini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

**“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida”gi Nizomga asosan “Sinf rahbari – Ta’lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri bo‘lib, o‘ziga biriktilgan sinf o‘quvchilarining amalda belgilangan ta’lim va tarbiya olishlarini tashkil etadi.” Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, bugungi kunda ta’lim muassasalari sinf rahbarlari faoliyatida **quyidagilarga o‘xshash muammolar** ko‘zga tashlanmoqdaki, buni qayd etmaslikning iloji yo‘q:**

- ayrim sinf rahbarlari tomonidan o‘quvchilarini tarbiyalash jarayonida o‘z oldilariga qo‘ygan maqsad va vazifalarining to‘g‘ri tashkil etilmayotganligi;
- tarbiyaviy soatlarning aniq o‘quv-mavzu reja asosida tashkil etilmayotganligi;
- ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarining ko‘philigidan o‘qituvchi va sinf rahbarlarining yetarli darajada xabardor emasligi;
- ba’zi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi;
- ayrim ta’lim muassasalarida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar mavjudligi;
- ba’zi sinflardagi o‘quvchilarda kundalik daftarlarning mavjud emasligi, borlarining ham sinf rahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi;
- ayrim o‘quvchilarining darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari;
- o‘quvchilar internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari;
- voyaga yetmaganlar o‘rtasida turli zararli oqimlar ta’siriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbazarlik holatlarining uchrayotganligi;
- o‘quvchi tarbiyasida muhim o‘rin tutadigan kompetensiyalarga erishilmaganligi;

– ba'zi o'qituvchi va tarbiyachilarimizda kasbiy kompetensiyalarning yetishmasligi;

– tarbiyaviy ishlarni ta'sirchanligining pastligi;

– ota-onalar bilan samarali muloqotning yo'lga qo'yilmaganligi;

– huquqbuzarlik, mobil telefon va internet qaramligi, narkomaniya, tamaki va alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga qarshi kurash hamda bunday zararli illatlarning oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi v.h.k.

#### **Bugungi kunda umumta'lim maktablarida tarbiyaviy soatlar amalda qanday tashkil qilinmoqda?**

– bugungi kundagi aksariyat hollarda tarbiyaviy soatlar quruq gaplardan iborat bo'lib, tarbiyaviy soat mavzularidan chetga chiqib ketiladi;

– tarbiyaviy soatlarda asosiy mavzu chetda qolib, qaysidir o'quvchining xulqi muhokamaga qo'yiladi;

– tarbiyaviy soatlarda aksariyat hollarda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari va davomatlari muhokama qilinadi;

– qandaydir tadbirdargatayyorgarlik va sinf muammolarini hal etish kabi masalalar xususida so'z boradi.

#### **Tarbiyaviy soatlar qanday bo'lishi kerak?**

– Ta'lif jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy soatlar ham yaxlit tarbiyaviy usullar, ta'sirchan vositalar yordamida amalga oshirilmog'i lozim.

– Sinf rahbari ushbu tadbirdirlarni o'tkazishga doir aniq ish rejasiga ega bo'lishlari zarur.

Bugungi shiddatli davr ta'lif sohasining barcha bo'g'inlarida axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Ma'naviyat yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun ham sinf rahbarlari va butun o'qituvchilar jamoasi oldida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli g'oyalar o'rtasidagi kurash keskinlashgan, "ommaviy madaniyat" xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmog'i orqali uzatilayotgan buzg'unchi axborotlar inson qalbi va ongini o'ziga qaram qilishga urinayotgan tahlilikli zamonda mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan. **"Agar biz ta'lif-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmsak, ertangi kunimizni qurolmaymiz, o'z maqsadlarimizga yetolmaymiz."**<sup>11</sup>

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor

bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalinish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzlusiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham barcha sinf rahbarlari o'z tarbiyaviy faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Tarbiyaviy soatlar o'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga tadbiq etish maydoni hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan tarbiyaviy soatlar o'quvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tadbiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

O'quvchilarda xulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan to'g'ri va samarali foydalinish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash tarbiyaviy soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. Shuningdek, tarbiyaviy soatlar orqali o'quvchilarda to'g'ri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash, o'z iqtidorini rivojlantirish uchun turli to'garaklarni to'g'ri tanlash, tayyor ish joylarida ishlash emas, balki o'zi ish joylarni yaratishi kabi qibiliyatlar shakllantiriladi.

Har yangi o'quv yili boshlanishi oldidan Respublika ta'lif markazi tomonidan tavsiya etiladigan Tarbiyaviy soat ( hozirda "Sinf soatlari" deb yuritiladi) dasturlari oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi—Vatanparvarlik, axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigiyenik, ekologik hamda estetik tarbiya, shuningdek, o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltiradi. Tarbiyaviy soatlarning mazkur yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasida ta'lifning uzlusizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularda yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ko'zda tutadi:

**Kommunikativ kompetensiya**— ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlash olish layoqatlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiysi**— media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiysi**— doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, bayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

<sup>11</sup>Мирзиёев Ш. Миллий тараккиёт йўлимизни катъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент - «Ўзбекистон» - 2017. 348-бет.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**— jamiyatda bo‘layotgan voqeal, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya**— vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi**— aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejallarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, mazkur kompetensiyalar har bir tarbiyaviy soatning mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Umumta’lim maktablarining I-XI sinf o‘quvchilar uchun tuzilgan “Tarbiyaviy soatlar uchun namunaviy mavzular rejasi” mazmunan tarbiyaviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda, yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuziladi. Bundan tashqari, mazkur rejada fan oyliklari davomida o‘quvchilar uchun tarbiyaviy dars soatlarini o‘tishda nimalarga e’tibor berish kerakligi e’tiborga olingan.

Sinf rabbarlari uchun amaliy va uslubiy yordam sifatida Respublika Ta’lim markazi mutaxassislar va amaliyotchilar hamkorligida “Tarbiyaviy soat”larning mashg‘ulot ishlanmalari ham tavsiya etiladi.

Umumta’lim maktablarining 5-sinfdan yuqori bo‘lgan sinfo‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan “Tarbiyaviy soat” mashg‘ulot ishlanmalarida mazmunan o‘quvchilarda tarbiyaviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolar hikmatlariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, bola huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiy tarbiya, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilalar bilan bir qatorda yurtimizda o‘tkaziladigan umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga e’tibor berish lozimligi to‘g‘risida ham tavsiyalar berilgan.

Tarbiyaviy soatlarni quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin bo‘ladi:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat, ma’ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Tarbiyaviy soatlarda foydalishish uchunmavzuga doir adabiyotlar ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbati, bahs-

munozara, treninglar va boshqa har xil noan’anaviy tarzda tashkil etish mumkin.(Izoh: Taqdim etilayotgan tarbiyaviy soatlar dasturiga umumta’lim maktablarining sindf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko‘ra 15 % gacha o‘tgartirish kiritilishi mumkin.)

Quyida sindf rahbarlari faoliyatini tartibga soluvchi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sindf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizomning mazmuni bilan tanishish mumkin:

**“Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sindf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizom<sup>12</sup>**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini sindf rahbarlarining (keyingi o‘rinlarda sindf rahbarlari deb yuritiladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Sinf rahbarlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjalariiga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining buyruqlariga, mazkur nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjalarga muvofiq amalga oshiradi.

**2-bob. Sinf rahbarlarining asosiy vazifalari va funksiyalari**

3. Quyidagilar sindf rahbarlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ta’lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o‘ziga biriktirilgan sindf o‘quvchilarining (keyingi o‘rinlarda sindf o‘quvchilar deb yuritiladi) amalda belgilangan ta’lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;

- odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga qat’yan amal qilish, jamoada namunali bo‘lish;

- o‘quvchilarning o‘sib-ulg‘ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhitoj o‘quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalibda milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, mas’uliyat, tashabbuskorlik, ishibitarmonlik kabi hislatlarni uyg‘otish;

- sindf o‘quvchilarining ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasini tashkil etishda o‘qituvchilar, yoshlar yetakchisi, psixolog, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o‘rinlarda ota-onalar deb yuritiladi), ta’lim muassasasi rahbariyati orqali voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash.

Sinf rahbarlari qonun hujjalariiga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

4.Sinf rahbarlari o‘zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

<sup>12</sup> Hujjalarni 2020-yil 30-iyuldagagi 180-tonli buyrug‘ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan. Manba: uzedu.uz.

- har tomonlama yetuk, barkamol – ma’naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o‘quvchilarining qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlari uchun tegishli shart- sharoitlar yaratish;

- pedagogik va o‘quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariiga qarab yondashishni yo‘lga qo‘yish;

- ertalabki saflanishlarda sinf o‘quvchilarining belgilangan tartibda to‘liq ishtirok etishlarini ta‘minlash;

- biriktirilgan sinf xonasidagi mayjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta‘minlash.

Sinf rahbarlari o‘z faoliyatini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlarni va aniq mezonlar asosida tashkil etadi.

Jumladan:

**A) Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishida:**

- o‘quvchilarни Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

- o‘quvchilar ongiga buyuk ajodolarimiz merosi va xalqimizning bugungi buniyodkorlik ishlariiga yuksak ehtirom tuyg‘ularini singdirish, yurtimizdagи buniyodkorlik ishlari, inshootlar va ma‘rifat maskanlari bilan ularni tanishtirib borish;

- sinda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, tarbiya jarayoniga boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me‘yorlarini tatbiq etish, mehnatga ijodi yunosabatni tarbiyalash;

- o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- o‘quvchilarni o‘zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalash;

- o‘quvchilarni o‘z huquq va majburiyatlarini biladigan va ularga riyoq qiladigan inson sifatidatarbiyalash.

**B) ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik yo‘nalishida:**

- barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila - mahalla - ta‘lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida sinf ota-onalar majlislarini o‘tkazib borish;

- o‘quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilash, jumladan, kam tahninlangan oilalar farzandlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, ota-onsa qarovisiz qolgan, vasiylik va homiyilikka berilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy huquqlarini himoyalash;

- o‘quvchilarning ta‘lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish;

- o‘quvchilar kundalik daftarlaring yuritilishini nazorat va tahlil qilish, o‘quv qurollarining mavjudligi va to‘g‘ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish;

- o‘quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ‘ibot ishlarni olib borish;

- ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish, o‘tkazgan tarbiyaviy ishlarni yuzasidan pedagogik kengashlarda hisobot berish;

- darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qilish, natijalari bo‘yicha direktor huzuridagi yig‘ilishlarga ma’lumot kiritib borish;

- o‘quvchilami ota-onalar va kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ruhida tarbiyalash, ularga kamtarlik, saxiylik va saxovatparvarlik, insonlarga yordam berish, mehrbonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

**D) o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish yo‘nalishida:**

- o‘quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab fan to‘garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyoqlik va o‘lkashunoslik yo‘nalishidagi to‘garaklarga, klublarga jalb qilish;

- qobiliyatli va iste’dodli o‘quvchilami rag‘batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

- milliy madaniyatning asosi bo‘lgan musiqa va qo‘shiq, kino, adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me’morchilik kabi xalq amaliy san’ati turlari vositasida o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ularni madaniyat maskanlariga ota-onalar bilan hamkorlikda jalb etish;

- o‘quvchilarni yozgi sog‘lomlashtirish oromgochlarda dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta‘til kunlarini mazmunli o‘tkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish;

- turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda (bayramlar, ko‘rik-tanlov, sport mosobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar) sinf o‘quvchilarining faol ishtirokini ta‘minlash;

**E) o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘nalishida:**

- sinf jamoasi bilan birligida sinf faollarini saylash va sinf ishlarni rojalashtirish, o‘quvchilar davomatini muntazam kuzatib borish va tahlil qilish;

- sinf o‘quvchilarining ehtiyoji va qiziqishlarini har tomonlama o‘rganish, ularni ahil jamoaga jipslashtirish va tashabbuskor o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash;

- har bir o‘quvchining o‘zi uchun kun tartibi tuzishini tashkil etish va uning bajarilishini ota-onalar hamkorligida nazorat qilish;

- o‘quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, har bir fuqaro, shaxs va muassasalar tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan qonun hujjatlari, ijtimoiy-iqtisodiy

va siyosiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida tushunchalar berib borish, qonunga hurmat hissini shakllantirish;

- o'quvchilarda maktab hududi, binosi, yo'laklari va sinf xonalarini ozoda tutish bilan bog'liq ekologik tarbiya ko'nikmalarini mustahkamlab borish.

#### F) pedagogik jamoa bilan bиргаликда:

- sinf o'quvchilarining ta'lif muassasasi (ustavida belgilangan) ichki tartib qoidalarini bajarishlarini ta'minlash;

- sinf jurnali va faoliyatiga doir boshqa hujjatlarning to'g'ri yuritilishini tahninlash;

- o'quvchilar o'zlashtirishini yuqori darajaga ko'tarish, tartib-intizomni mustahkamlash maqsadida sinf majlislarini o'tkazib borish;

- o'qishda yutuqlarga erishgan, umumi y foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlash, ularning ota-onasiga tashakkurnoma, minnatdorchilik xatlari yuborish bo'yicha taklif berish;

- sog'lom turmush tarzi, oilaviy hayot gigiyenasi hamda jismoniy tarbiya, zararli odatlardan saqlanish kabi masalalarga e'tibor berish;

- o'quvchilarning past o'zlashtirish sabablarini aniqlash, bartaraf etish bo'yicha tegishli fan o'qituvchilari, yoshlar yetakchisi va maktab psixolog bilan bирgalikda yordam berish;

- ta'lif muassasasi tibbiyot xodimlari, o'qituvchilari, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishini nazorat qilish;

- o'quvchilarning ta'lif muassasasida texnika xavfsizligi, ularni muhofaza qilish, sanitariya- gigiyena qoidalari va me'yorlari talablariga rioya qilishini ta'minlash;

- kasbiy malakasini oshirib borish, yo'nalishi bo'yicha turli seminarlarda ishtirot etish.

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalami ham amalga oshirishi mumkin.

5. Sinf rahbarlari zimmasiga mazkur nizom va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifalami yuklash, ularni ish vaqtidan tashqari, faoliyatiga oid bo'lmagan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

6. Ta'lif muassasasidan tashqarida darsdan keyingi va ta'til paytidagi o'quvchilarning xatti-harakatlari uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sinf rahbarlari javobgar hisoblanmaydi.

#### 3-bob. Sinf rahbarlarining huquq va majburiyatları

7. Sinf rahbarlari ushbu nizomda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

- sinf o'quvchilarining dars mashg'ulotlari va imtihonlarida ishtirot etish;

- bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar tashkil etish bo'yicha ta'lif muassasasi rahbariyatiga taklif kiritish;

- o'quvchilar tarbiyasiga oid ilg'or ish tajribalarini amalga oshirish bo'yicha ta'lif muassasasi rahbariyatiga tashabbus bilan chiqish;

- sinf faottlari ishini nazorat qilish, ular bilan bирgalikda yig'ilish kun tartibini belgilash va sinf yig'ilishlarini uyushtirish;

- o'qishda yutuqlarga erishgan, umumi y foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlashga tavsiya etish;

- sinf soatlarni rejalashtirishda o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tanlangan mavzularga o'zgartirishlar kiritish;

- sinf soatlari mavzularining ta'sirchanligini oshirish uchun maktab psixologi bilan yaqindan hamkorlik qilish, zarur holatlarda dars jarayoniga maktab psixologini taklif qilish;

- o'quvchilarning ota-onalari bilan ta'lif-tarbiya masalalari yuzasidan subbatlashish, hamkorlik qilish, pedagogik maslahatlar berish, o'quvchilar xulqini baholash;

- hamkorlikda olib boriladigan tadbirlarda muntazam qatnashmaydigan, farzandi tarbiyasiga e'tiborsiz ota-onalar bo'yicha maktab kuzatuv kengashiga, "Olla-mahalla-ta'lif muassasasi hamkorligi" Jamoat kengashiga murojaat qilish.

Sinf rahbarlari o'z vazifa va majburiyatlarini bajarishda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 8. Sinf rahbarlarining majburiyatları quyidagilardan iborat:

- sinf o'quvchilari bilan "bolaga do'stona munosabatda bo'lish" tamoyiliga rioya etgan holda munosabatda bo'lish, pedagogik jamoa, o'quvchilarning ota-onalari bilan muloqotda vazmin va xushmuomala bo'lish;

- sinf O'quvchilarining davomatini nazorat qilish, sababsiz darsga kelmagan o'quvchilarning ota-onalari bilan (telefon orqali) bog'lanib, darsga kelmaganlik sabablarini o'rganish, natijalari bo'yicha maktab rahbariyatiga axborot (zarur hollarda yozma) kiritish;

"O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalarida mobil telefonlardan foydalanan tartibi to'g'risidagi nizom", "Umumi o'rta ta'lif maktabi o'qituvchi va o'quvchilarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari" hamda "Davlat umumiy o'rta ta'lif muassasalarini o'quvchilar uchun zamonaviy yagona maktab formasini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom" mazmun- mohiyatini va talablarini sinf o'quvchilari va ularning ota-onalari e'tiboriga yetkazish;

- amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliysi, majburiyi va javobgarligi to'g'risida o'quvchilarning ota-onalari o'tasida tushuntirish ishlarini olib borish;

- o'zining ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilimlarini oshirib borish.

#### 4-bob. Sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish tartibi

9. O'qituvchilar orasidan ta'lif muassasasi direktori tomonidan sinf rahbarlari tayinlanadi va ozod etiladi.

10. Sinf rahbari quyidagi mezonlarga asosan tanlab olinadi:

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan;

- maktabda to'liq stavkada asosiy ishchi sifatida faoliyat olib borayotgan;

- odob-axloqi va xulqi bilan o'quvchilarga shaxsiy namuna bo'la oladigan;

- ruhiy jihatdan barqaror bo'lgan;

- o'quvchilar bilan ishlash jarayoniga mas'uliyat bilan yondasha oladigan. Boshlang'ich sinfda asosiy (o'qish, ona tili, matematika) fanlardan dars beradigan o'qituvchi sinf rahbari hisoblanadi.

O'rta va yuqori sinflarda sinf rahbarining o'zi ta'lif beradigan fani doirasida ham o'quvchilari bilan yaqindan ishlashini inobatga olgan holda o'quvchilarni guruhlarga bo'lib o'qitishni talab etadigan fan (jismoni tarbiya, texnologiya, chet tili, informatika va axborot texnologiyalari va boshqa) o'qituvchilari hamda orindoshlik asosida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarga sinf rahbarligini biriktirish maqsadga muvofiq emas.

11. Boshlang'ich sinfga tayinlangan sinf rahbari 1-sinfdan boshlab 4-sinfgacha o'quvchilarga yagona rahbar hisoblanadi. Xuddi shunday tartib 5-sinfdan 11-sinfga qadar ham qo'llaniladi.

12. Bir o'qituvchiga faqatgina bitta sinf rahbarligi topshiriladi. Direktor o'rinnbosarlari, psixologlar, yoshlar yetakchisi sinf rahbari bo'lishi mumkin emas.

13. Sinf rahbarlari faoliyatini ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi.

14. Sinf rahbarlarining yillik ish rejasi ta'lif muassasasining umumiyo rejasidasi ishlab chiqiladi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari tomonidan tasdiqlanadi.

15. Sinf rahbarlarining yillik ishlarini rejalashtirish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishga yordam berish, ularning samaradorligini oshirish, ishlarini muvofiqlashtirish, ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida sinf rahbarlari uslubiy birlashmalari tashkil etiladi. Sinf rahbarlari uslubiy birlashmasiga barcha sinf rahbarlari a'zo hisoblanadi.

16. Sinf rahbarlari tomonidan quyidagi hujjatlar yuritiladi:

- sinf rahbari daftari;

- matabning ichki ro'yxatiga kiritilgan tartibuzar, tarbiyasi og'ir va surunkali dars qoldiruvchi o'quvchilar bilan amalga oshirilgan ishlar yig'ma jildi.

17. Sinf rahbarlari o'quv yili choraklari va yakuni bo'yicha hisobotlar tayyorlaydi.

Sinf rahbarlari faoliyat yo'nalishlari bo'yicha hisobotlarini ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosariga topshiradi.

#### **5-bob. Sinf rahbarlari faoliyatini baholash**

18. Sinf rahbarlarining faoliyati bir yilda ikki marotaba (yanvar va iyun oyalarida) umumiy o'rta ta'lif maktablari sinf rahbarlarining yillik faoliyatini baholash ko'rsatkichlari asosida baholanadi (Nizomda jadval ilova qilingan).

19. Baholash ishlari matab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari boschchiligidida, tarkibida matab direktorining harbiy-vatanparvarlik ishlari bo'yicha o'rinnbosari- Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi, matab psixologi, yoshlar etakchisi, ijodiy-madanly masalalar bo'yicha targ'ibotchi bo'lgan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

20. Ishchi guruh tomonidan amalga oshirilgan baholash ishlarining doimiy reytingi yuritiladi va reyting natijalari maktabning o'qituvchilar xonasiga ilib qo'yiladi.

21. Faoliyati

"a'lo"

baholangansinfrahbarlarinimaktabrahbaryatitomonidanmoddiy-ma'naviyrag'batlantirishchoralariko'rildi, tarmoqvadavlatmukofotlarigatavsiyaetiladi.

22. Faoliyati "qoniqarsiz" deb topilgan sinf rahbarlariga vaziyatni o'nglash va ish samaradorligini oshirish uchun maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari tomonidan keyingi baholash davriga qadar muhlat beritadi. Navbatdagi baholash natijalari ham qoniqarsiz deb topilgan holatda mazkur sinfga boshqa pedagogi sinf rahbari qilib tayinlash bo'yicha maktab direktorining buyrug'i qabul qilinadi.

#### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

23. Ta'lif muassasasi ma'muriyatini sinf rahbarlari yordamidan faqat ushu nizomda belgilangan vazifalar doirasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari bilan kelishilgan holda foydalanishi mumkin.

24. Sinf rahbari mazkur Nizom bilan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda muntazam ravishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yan taqdirda, maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosarinining taqdimnomasiga ko'ra matab direktori tomonidan o'ziga biriktirilgan sinf rahbarligidan ozod etiladi.

Sinf rahbari tomonidan o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlar shu bo'limga kiritilib, sinf tarbiyaviy soatlari deb yuritiladi (yil davomida 33-34 soat dars jadvaliga kiritiladi), u soddalashtirilgan, barcha sinflar uchun qulay quyidagi andozaga tushirilishi mumkin. Avvalgi adabiyotlarda berilgan rejalashtirish chizmasiga "Bajarilish turi" qo'shimcha sifatida kiritildi. Maqsad, rejalashtirilgan mavzu, masalan, "Ota-onam – suyangan tog'im" yuzasidan suhbat, kecha, konferensiya uchrashuv, ekskursiya va hokazolar o'tkazish mumkin. Albatta, bu tadbirlarning barchasini bir o'quv yilda o'tkazib, sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasida bu mavzu har yili takrorlanib, bajarilish turi o'zgartirib boriladi. Sinf rahbari mehnatining unumli bo'lishida bu usul ancha samara beradi.

No	Tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish turi	Vaqti	Mas'ul shaxs	Ijrosi haqida
1	Ota-onam - suyangan tog'im	Uchrashuv	Mart oyining 1-haftasi	Sinf ota- onalar qo'mitasi raisi	Tadbirda ...-nafar ota-on, ...-nafar o'quvchi ishtirot etdi

Sinf tarbiyaviy soatlarning mavzulari turabandagi tarkibiy qismi larni o'zichiga olad ivayuqorida qandozaga taribatib bilan jamlanadi.

- Ma'naviyat va burch tarbiyasi
- Vatanni sevmoq iymondandir.

- Baynalmilal tarbiya
- Estetik (nafosat) tarbiyasi
- Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash
- Ekologik tarbiya
- Sog'liqni saqlash. Sog'lom avlodni tarbiyalash tadbirlari
- Jismoniy tarbiya
- Eng so'nggi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari

#### **Ma'naviyat va burch tarbiyasi**

Ma'naviyatimizning kadimiyligi, mazmun va mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, asosiy tamoyillari, uning jamiyatimiz taraqiyotidagi roli va ahamiyati, Prezidentimiz asarları va nutqlarida insonni jonli mavjudodlardan ajratib turadigan ong va til, aql-idrok va tafakkur, odamgarchilik, muruvvat va saxovat, rahm-shavqat, mehr-oqibat, iyomon-e'tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, tabiatni e'zozlash, ilm va fanni, adabiyot va san'atni, madaniyatni sevib ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o'zi va o'zga millat kishilarini, ularning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish va qadrlash xislatlarini tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinadi.

Ekologik tarbiya inson samarali mehnati, tabiat noz-ne' matlарidan oqilona foydalanishi va uning go'zalliklaridan bahramand bo'lishi tufayli farovon hayot kechiradi. O'quvchilarda bu tushunchani shakllantirishda ekologik tarbiya muhimmo'rintutadi. Ekologik tarbiya bu –o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan beparvo bo'lmaslik, tabiat, inson, hayvonot va o'simliklar dunyosini e'zozlashni shakllantirish demakdir. Bu jarayon dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

Tarbiyaning muhim sohasi sanalmish jismoniy tarbiya haqidagi o'zbek mutafakkir olimi, yetuk pedagog Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobidan olingen ushbu parchani o'rganish o'rinnlidir: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog'badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlарinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'lidur. Biz sihatimizni saqlamak ila amr o'linganmiz, shuning uchun vujudimiz hifzi-sihatga zid bo'lgan yomon odatlар ila churitmakdan saqlanmakligimiz lozimdur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila terisi kabitur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib astarini yuvub ovora bo'lmoq kabidurki, har vagt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiysi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur."<sup>13</sup>

<sup>13</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston, yoxud axloq. T., 2008.

#### **Jismoniy tarbiya**

Eng so'nggi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari. Mustaqillik tufayli hayotimiz kundan-kunga farovonlashib borayotgani shubhasiz. Albita, buning negizida Prezidentimiz va hukumatimizning yangi-yangi farmon, buyruq va ko'rsatmalari yotadi. Buni biz shartli ravishda rejaga "Eng so'nggi yangiliklar" deb kiritdik. Bu bo'lim rejaning eng oxirgi tadbirlaridan hisoblanadi va rejaning oxiriga kiritiladi. Tarixiy sanalardan so'ng qayd qilinadi. Tarbiyaviy tadbirlarda ularni o'rganish va hayotga tatbiq etish zarur, ya'ni zamon talablariga ko'ra chiqarilgan yangiliklar reja tuzilgandan so'ng e'lon qilinsa, sind rahbari tuzilgagan tarbiyaviy tadbirni o'quv yilining qaysi yarim yilligidan qat'i nazar, tarixiy sanalardan keyin mavzuni qayd etadi va tegishli tadbir o'tkazadi.

Maktab rahbarlari rejani tasdiqlayotgan vaqtlarida bu bo'limning qay tarzda shu eiganingiga ahamiyat berishlari zarur.

#### **Tarbiyaviy ishlar yig'ma jildida nimalar bo'lishi kerak?**

Sinf tarbiyaviy yig'ma jildi sind rahbarining tarbiyaviy sohada olib boriladigan ishlar to'plamidir. Bunda faqat o'quvchilarning yosh xususiyatlariiga qarab tarbiya borasida kerak bo'ladigan materiallar bo'lishi kerak.

Har bir o'quv yilining boshida o'tkaziladigan ota-onalarning sind majlisini imly, nazary, ma'naviy va metodik jihatdan mazmunan tashkil qila bilish otalaymosh bunday majlislarni orziqib kutib doimiy qatnashuvchi bo'lishiha zamin boshiraydi. Bunday majliso-qituvchidan ko'p bilim va mahorat talab etadi. Dastlab umbagi masalalar yuzasidan tayyorgarlikni bir oy oldin boshlash kerak. Bular:

- har bir oila a'zosи va shart-sharoiti haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi;
- oila va atrofdagi ijtimoiy munosabat muhitini soz yoki nosozliginianiqlash;
- har bir o'quvchi shaxsi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi;
- oilda bolani maktabga tayyorlash tartibi kabilar.

Birinchi majlisni o'tkazishdan oldin o'qituvchining tayyorgarligi:

1. Majlis mavzusi va maqsadini aniqlash.
2. Majlis o'tadigan joyni jihozlash.
3. Majlis o'tkazish metodini tanlash; suhbat, tushuntirish.
4. Maktab tarixi va kelajakdagи rejalarini haqida qisqa ma'lumot tayyorlash.
5. Ota-onalar jamoasi nizomini ko'rgazma tariqasida tayyorlash (maktabahbariyatining nizom haqidagi chiqishini hozirlash).
6. Sind ota-onalar qo'mitasini saylash.

Birinchi ota-onalar majlisining samarasini ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiga bog'liqdir. Uning o'zini tutishi, muomalasi, ishbilarmonligi, har bir o'quvchi va oilasi haqida ma'lumotga ega bo'lishi, ota-onalarda ijobji taassurot qoldiradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabdagи ota-onalar majlisining yuqori saviyada tashkil etilmasligi va o'tkazilmasligi ota-onalarni maktabdansovitadi. Albita tayyorgariksiz, quruq rasmiyatchilikka asoslangan, nomiga tashkil qilingan ota-onalar majlisi bu – sizni bolangiz yaxshi, sizniki yomon deyish yoki tabellarni berib qo'l qo'ydirishdir. Ayniqsa «yomon» o'qiydigan bolalarning ota-onalarni jamoa orasida obro'sizlantirishga intilish holatlari, ota-onalarni

maktabdan uzoqlashib ketishiga sabab bo‘ladi.Bunday majlislardan voz kechish kerak. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda: “Yangi O‘zbekistonning poydevori maktab ostonasidan boshlanar ekan”, yangilanayotgan O‘zbekiston Respublikasining milliy mafkurasini mustahkamlovchi maktab – ota-onalarning yangicha munosabati yosh avlodning tarbiyasida niroyatda zarurdir.Har bir ota-onalar majlisini ulkan maqsadga qaratilgan,turli pedagogik innovatsion shakkarda tashkil qilish, talabga muvofiqdir. Ya’ni:

- «Pedagog maslahatiga amal qilamiz» mavzusidagi majlislar;
- «Uchrashuvchi majlis», (olim, tibbiy xodim, san’at, madaniyat vakillari bilan babs-munozaramajlislari: ta’lim-tarbiyaga doir mummolar yuzasidan yoki pedagogik adabiyotlar yuzasidan; «Merosga ixlos» majlislari;
- bola tarbiyasiga doir Qur’oni Karim, Hadisi Sharif va mutafakkirlarning dono fikrlaridan foydalanish;
- sinf ota-onalar majlisini o’tkazish tartibi;
- sinf o’qituvchisi va ota-onalar qo’mitasi a’zolarining oldingi majlislarida qabul qilingan qarorlarining bajarilishi haqida axborotlari eshitiladi.

Majlis maqsadiga ko’ra mavzuning e’lon qilinishi (yuqorida ko’rsatilgan majlis turiga ko’ra uning mazmuni asoslab beriladi).Ota-onalarning fikr va mulohazalari eshitiladi. O’quv-tarbiya ishlaridan savol va talablar muhokama etiladi.

Turli masalalar hal qilinadi. Sinf majlisi qarori chiqarilib, tasdiqlanadi. O’qituvchi kelgusi majlis rejasи bilan tanishtiradi. Majlis o’tkazish tartibi mavzunu o’ziga xos xususiyatiga ko’ra o’zgarib boradi.

Inson kamoloti shunchalik murakkabki unga hayotiy tajriba yetarli emas uning uchun o’rganish, bilim, o’qish niroyatda zarurdir. K.D.Ushinskiyning «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «Pedagogik adabiyot orasida» nomlirisolalarida «Ota-ona uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o’rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi bilim xalq ruhibidan sug’orilgan-xalqchilikg’oyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon tarbiyachilik san’atiga ega bo‘la oladilar», – deyilgan.

Pedagogik bilim ota-onalar uchun niroyatda zarur. Bu bilim maktabda, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Lekin hayotimizdagi yangi-yangi muammolar pedagogik bilimini yanada kuchaytirishni, chuqurlashtirishni talab etadi.

Maktabdagi pedagogik bilim turli shakkarda amalga oshiriladi. Masalan, pedagogik ma’ruza, ilmiy, metodik kengash, «Savollaringizga javob beramiz» (ota-onalar kuni) kabi. Ota-onalar uchun ma’ruza ota-onalarga pedagogik bilim beradigan turlardan biridir. Ota-onalar uchun mo’ljallangan ma’ruza ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egab olishi kerak.

Ota-onalar uchun pedagogik bilim beradigan ma’ruzalar mavzularidan namuna:

- barkamol insontarbiyasida ota-onaningo ‘rni.
- oilada iqtisodiy tarbiya.

■ ma’naviy meros va oila.

- siz o’tmish avlodlaringizni bilasizmi? Oilanoma (oila shajarasi) yaratishmasalari.
- mutafakkirlar ijodiyotida oila tarbiysi.
- farzand tarbiyasida xalqimiz qo’llagan usullar.
- oiladagi adolat –to‘g’ri tarbiya asosidir.
- farzandingiz saxiy, muruvvatli bo‘lsin desangiz?
- oilada iyomon-e’tiqod tarbiysi.

Ota-onalar uchun tanlangan mavzular quyidagicha rejalashtiriladi:

#### ***Mavzu: «Ma’naviy meros va oila».***

Maqсад: Ota-onalarga o’tmish merosimizdan bolani oiladatarbiyalash haqidagi mutafakkir va ma’rifatparvarlar asarlaridagi ta’limotlar haqida bilim borish.

Ma’ruzani ta’minlovchi manbalar:

- a) o’tmish ma’rifatparvar va mutafakkirlarimizning asarlari (Abu Ali Ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», Alisher Navoiyning «Mahbub-ul qulub», Husayn Voiz Koshiflyning «Axloqiy Muhsiniy» asarlaridagi oila tarbiyasiga oid qarashlar va g’oyalar,

b) ko’rgazmalar-allomalarining rasmlari va kitob namunalari.

- c) didaktik materiallar, tarbiyaga oid hikmatli so’zlar yozilgan kartochkalar, faktlar.

Ma’ruzaning kirish qismidamilliy mafkura hamda milliy meros haqidatishuncha, bu borada O’zbekiston rahbariyatining olib borayotgan siyosati haqida ma’lumot beriladi.

Ma’ruzaning asosiy qismi Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshiflyning asarlaridagi davomiylik g’oyalarining bir-biri bilan bog’langanligi, asarlarining yaratilishi haqida ma’lumot beriladi. So’ngra asardagi ota-onalarning o’rni va hurmati, ularning vazifa, burchlari haqidagi ma’lumotlar. Oilada ayol va erkak fazilatlari, qanday qilib farzand burchini anglatishi muammolari. Axloq-odob tarbiyasidagi dono fikrlar, rivoyat, hikoyat, fanbehlar orqali asoslab, tushuntirilib maktab hayoti bilan bog’lanadi.

Ma’ruzaning yakuniy qismi

Milliy merosimizdan qanday foydalanishga doir metodik ko’rsatma va tafsiliyalar beriladi.

Maktabda «Ota-onalar kuni»ni tashkil qilish pedagogik bilim berish turaridan biridir. Ota-onalarni maktabga ma’lum kunda taklif etib turli o’quv-tarbiya ishlaridan xabardor qilish an’anaviy ahamiyatga ega bo‘lib, u «Maktabda ota-onalar kuni» yoki «Ochiq eshiklar kuni» deyiladi.

Bu kundagi ish tartibi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Pedagogik maslahat burchagini tashkil etish.
2. Bolalar ijodiyotidan ko’rgazmalar yuushtirish.
3. Ochiq darslarga ota-onalarni taklif qilish.
4. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

5. Ota-onalar uchun konsert dasturini namoyish etish.

Yuqoridagi ota-onsa va maktab hamkorligidagi ishlar metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilsa, albatta, o‘zining kutilgan ijobi natijasini berishi, shubhasiz.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol vatopshiriqlar**

- 1.Sinf tarbiyaviy soatlari qanday tarkibiy qismlardan iborat?
- 2.Sinf tarbiyaviy soatlarni tashkil etish, uyuşdırish va o‘tkazishning qanday tartib va uslublari bor?
2. Sinf tarbiyaviy soati uchun joy tayyorlash va uning davom etish vaqtini haqida ma‘lumot bering.
3. Sinf majlisini tashkil qilishga qo‘yilgan didaktik talablar nimalardan iborat?

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. A. Avloniy “Turkiy Guluston yoxud axloq” (nashrga tayyorlovchi Holiqov L.)- Toshkent: O‘qituvchi, 1992. –B 160.
2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008-y.
3. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014-y.
4. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.
5. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.

#### **7-MAVZU: SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNING MAQSADI VA VAZIFALARI**

##### **Beja:**

1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tashkillashtirishda unga oid konsepsiyaning ahamiyati.Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari

2. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkillashtirishda tashkilotchi tomonidan bajariladigan ishlar.

**Mavzuning vazifasi.** Bo‘lajak o‘qituvchilarni sinfdan va maktabdan ishqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.

**Tayanch so‘zlar.** Maktab, jamoa, sinf, tarbiya, tashkilot, maket, ishlanma, ishpshiriq.

1993-yili Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar” konsepsiysi tasdiqlangan edi. 1997-yili “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonim va “Kadrorlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilnishi, Respublikamizda ma‘naviyatga alohida e’tibor munosabati va ta’lim sohasini tubdan isloh qilish surʼati tufayli mazkur konsepsiya qayta ishlab chiqildi va Xalq ta’limi vazirligining 1999-yil 30-iyuldaggi 8/5-sonli hay’at qarori bilan tasdiqandi.

Konsepsiya uch bo‘limdan iborat bo‘lib, uning **birinchi bobি** “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasining asoslari” deb nomlanadi. Hunda konsepsiyanı ishlab chiqishning asoslari ko‘rsatiladi. Mustaqillikdan so‘ng turli sohalarda, jumladan xalq ta’limi tizimida ham o‘sib kelayotgan yangi avlod ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘iq jarayonni qayta ko‘rib boshlanganligi fan va madaniyatning so‘nggi nuqtalari yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘lgani bayon etiladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning samaradorlini oshirish komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay usullarini topib joriy etishga bog‘liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga ketirish uchun tarbiyaning usisi barcha g‘oyalarni ko‘rib chiqish, asosiy e’tibor bolalarga qaratilishi, ijobiy tajribalardan unumli foydalanish keltirib chiqiladi.

**Konsepsiyaning ikkinchi bo‘limi** “Tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsad va vazifalari» deb nomlanadi, unda tadbirning bosh maqsadi – yosh avlodni ma‘naviy axloqiy tarbiyalashda boy milliy, ma‘naviy – tarixiy an’analarga, urf-istifari umumbashariy qadiriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, shakl va vositalami ishlab chiqib amalga oshirish kiritilishi, deya ko‘rsatiladi.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jumoniyo rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyatlar yaratishdan iboratligi ta’kidlanadi. Belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarni amalga oshirish uchun yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Shu bilan birga tarbiyaning asosiy tizimi ko‘rsatiladi.

**Konsepsiyaning uchinchi bosqichi.** “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakl va uslublari. Erkin tafakkur yurituvchi shaxslarni

tarbiyalash” deb nomlanadi. Bunda vatanparvar va komil inson tarbiyasi mazmuni alohida yoritib beriladi. Vatanparlik tuyg’usini o‘quvchilarda shakllantirishning zamonaviy uslublari haqida fikr yuritiladi. Konsepsiyada o‘quvchilarga beriladigan huquqiy, iqtisodiy, ekologik, estetik, jismoniy tarbiyalar mazmuni va ularni sinfdan, maktabdan tashqari tadbirlar jarayonida tashkil etish yo‘l va shakllari haqida atroficha to‘xtab o‘tilgan. O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularga iqtisodiy bilimlar berish masalari ham yoritilgan.

Uchunchi bo‘limda iste’dodli va zukko bolalarni aniqlash, ularni tarbiyalash, mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Konsepsiyada erkin firklovchi yoshlarni tarbiyalash, ayniqsa o‘quvchilarning o‘z-o‘zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi, ularni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalashga imkoniyat yaratish masalari ham e’tibordan chetda qolmaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasini amalga oshirishning ilmiy-metodik ta’minotiga, konsepsiyani amalga oshirishning samaradorligi xalq ta’limi barcha tizim faoliyatlariga, mahalliy sharoitlarga moslab, uni amalga oshirish bog‘liqligi masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratilgan.

#### **Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakli va uslublari**

Respublikada qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020)da sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rn masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilashga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlaridagi o‘quv jarayonini to‘ldiradi va kengaytiradi, o‘quvchilarning bilim olishlari, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini ko‘rsatishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari tashkil etilgan to‘garaklarda, jumladan, fan to‘garaklarida o‘z faniga qiziqqan o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar tashkil etisho‘quvchilarning qiziqishlarini yanada o‘stiradi.

**Sinfdan tashqari ishlarni** quyidagi to‘garaklarda tashkil etish mumkin: fan to‘garaklari “Mohir qo‘llar” to‘garaklari; “Duradgorlik” to‘garagi; turli sport to‘garaklari; “Badiiy havaskorlik to‘garagi” va hokazolar.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bolalarni ijodkorlikka da’vat etuvchi tarbiyaviy maskandir.

**Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni** olib boruvchi bolalar va o‘smyrlar sport maktablari, musiqa va san’at maktablari, yoshlar ijod saroylari, yosh texniklar klublari, yosh tabiatshunoslar uylari maktab tarbiyasining uzviy davomchisi sifatiga faoliyat ko‘rsatmoqda.O‘zbekiston Respublikasining “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni Konsepsiyasi” (1999) bu ishlarni va amalga oshirishda asos bo‘ladi.

Konsepsiyada hozirgi paytda axloqiy va ma’naviy jihatdan ishlarni o‘mirlar orasida kuchaytirish zarurligi, axloqsiz ongli ijtimoiy shaxs bo‘la olmasligini anglatish maktab va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tarbiyachilar oldida umumimoniy axloq qoidalari asosida yoshlarga tarbiya berish zarurligi ingsirilgan. Konsepsiyada vatanparvar va baynalmilal komil inson tarbiyasi huquqiy, iqtisodiy, tabiiy, ekologik tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, iste’dodli va zukko bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash, mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mazmuni va ularni amalga oshirish yo‘llari haqida atroficha fikr yuritiladi.

Ta’lim-tarbiyaning jiddiy muammolarini aniqlash, uzlusiz amaliy tarbiya mazmuni asoslarini yaratish, maktablar, maxsus bilim yurtlari, texnikum va kollejlarhamda oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari faoliyatini yaxshilash mezonlarini ishtab chiqish bugungi kun talabidir. Buning uchun quyidagi tadbirlarga e’tibor urashish lozim bo‘ladi: tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlar majmuasi va maqsadli dasturlar tuzish; tarbiyaviy ishlarni zamон talablari orasida tashkil etadigan pedagogik xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, tarbiyaviy ishlarni hal qilish uchun respublikaning barcha kuchlari O‘zbekiston FA, oliy o‘quv yurtlari, fan tarmoqlari, davlat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy ashorot vositalari hamda ilmiy pedagogik bo‘limlar faoliyatini birlashtirish zarur.

Yoshlar bilan ishlashda, ularni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda har bir tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatini chuqur anglab, sin’gra uni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda tashabbuskorlik, ishlardarmonlik kabi xislatlarni shakllantirishga alohida urg‘u berish orqali o‘qituvchidan alohida mahorat talab qilinadi.

Bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga maktab jamoasi, oila va jamoa tashkilotlari birdek javobgar bo‘lganliklari sababli ham bo‘lajak o‘quvchilarini bu boradagi bilimlar bilan qurollantirish pedagogika oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun fan ushbu mavzu doirasida yuqorida qayd etilgan ma’lumatlar bilan talabalarni yana bir bora tanishtirib, o‘tgan mavzularda berilgan ma’lumatlar qisman qaysidir ma’neida takrorlansa ham, ularga to‘xtlib o‘tishni joiz deb bildik.

**Maktab—** o‘qituvchi rahbarligida ta’lim oluvchilarga ta’lim beradigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o‘quv-tarbiya muassasasi. Maktablarni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Beriladigan bilimlarning xarakteriga ko‘ra – umumiyl va kasbiy maktablar;
2. Beriladigan bilimlarning ko‘lamiga ko‘ra – boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus, oliy maktablar;
3. Maktabning kim tomonidan ta’milanishi va boshqarilishiga ko‘ra – davlat, xususiy, jamoa maktabları;
4. Ta’lim oluvchilarning jinslariga ko‘ra – aralash (ayollar va erkaklar), faqat ayollar (Xotin-qizlar bilim yurtlari), va faqat erkaklar (o‘g‘il bolalar) maktabları;
5. Ta’lim oluvchilarning e’tiqodlariga ko‘ra – dunyoviy va diniy maktablar;

6. Ta'lif oluvchilarning o'quv muassasalarida bo'lishiga ko'ra - qatnab o'qiydigan va tunab qolinadigan (internat) maktablar.

Bundan tashqari, yo'nalishlar (sohalar) yoki oqimlar bo'yicha maktablar bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekistondagi matematiklar maktabi, O'zbekistondagi informatiklar maktabi, ayrim hollarda buyuk olimlar, shoirlar, akademiklar maktablari (Al Xorazmiy nomidagi maktab, akademik S.Sirojiddinov nomidagi matematiklar maktabi, Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim nomidagi, H.Xudoiberdiyeva nomidagi, Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktablari va h.k.) - bular ilmiy maktablar. Ma'mun akademiyasi, Ulug'bek rasadxonasi dagi faoliyatlar ham ilmiy maktablar sirasiga kiradi. Ayniqsa, buyuk olimlarimizga nisbatan «Maktab yaratgan olim» degan ulug' nom shular jumlasidandir.

**Maktab pedagogikasi** – oilaviy o'rta maktabda o'quvchilarga ta'lif berish va tarbiyalashning qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika bo'lib, umumiylar maktablarining yuqori sinf o'quvchi yoshida bo'lgan bolalar, o'quv – tarbiyaviy jarayoning o'ziga xosligini tadqiq etadi.

**Maktabdan tashqari ta'lif** – bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa shaxslar maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan ta'lif. yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan ta'lif.

**Maktabdan tashqari ta'lif muassasalari** – «faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan, bolalar, o'smirlar, ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar sog'lomlashdirish muassasalari» kiradi.

Ta'lif muassasalariga rahbarlik qilishning eng asosiy tamoyillaridan biri bu, albatta, **rejalilik tamoyilidir**. Bu tamoyil yordamida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda izchillik va uzlusizlikka erishiladi. Bu esa jamoa tomonidan olib borilayotgan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning istiqbollini tomonlarini ko'rsatib turadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar quyidagi hamkorlik tizimi asosida rejalshtirilishi pedagogik samaradorlikka erishtiradi. Bular:

- tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rnbosari rahbarligida;
- sinf rahbarlari ishtirokida;
- metodik birlashmalar ishtirokida;
- tajribali o'qituvchilar ishtirokida;
- maktab kutubxona rahbariyati yetakchilari ishtirokida;
- o'quvchi-yoshlar tashkiloti yetakchilari ishtirokida;
- o'quvchilar uyushmasi rahbarlari ishtirokida;
- ota-onalar qo'mitasiga zolari ishtirokida;
- to'garak rahbarlarining ishtirokida;

<sup>1</sup>Педагогика фанидан изоҳли лугат

- yoshlar saroylari xodimlari ishtirokida;
- yosh texniklar saroylari xodimlari ishtirokida;
- yosh tabiatshunoslar uylari xodimlari ishtirokida;
- turli sport to'garak va maktablarining murabbiylari ishtirokida;
- san'at va musiqa maktablarining o'qituvchilari yordamida tuzish va bu fejoni maktabning yig'ilishida muhokamadan o'tkazib tasdiqlatib olish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy fioliyatini rejalshtirish o'ziga xos qoidalarga egaligi B.Normurodova tomonidan tayyorlangan «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» deb nomlangan o'quv qo'llanmada quyidagicha bayon qilingan.Bu

1. "Har bir sinf jamoasining tarbiyalangan darajasini o'rganish.
2. O'quvchilarning oilaviy hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini qanday his etishi.
3. Kundalik o'zgarishlarga o'quvchilarning munosabati.
4. O'quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an'analar haqidagi bilim darajasi.
5. Qomusiy ma'rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari. Mazkur qoidalalar bog'chada sodda holda qo'llaniladi.

Yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o'rinnlidir. Shundagina har bir o'qituvchi-tarbiyachilarning betakror, bir-biriga o'xshamagan tarbiyaviy tadbir rejalarini bunyodga keladi. Bunday rejalar tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lib, maqsadga erishtira oladi.»

#### **Tarbiyaviy ishlarni rejalshtirishning asosiy omillari:**

1. Vatanga muhabbat va insonorvarlik.
2. Milliy mafkurani singdirish.
3. Umuminsoniy qadriyatlarga hurmat.
4. Milliy qadriyatlар.
5. Milliy urf – odatlar.
6. Tabiatga muhabbat
7. Jamiyat qoidalari.
8. Ma'naviy tarbiya (axloq va odob).
9. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
10. Intellektual salohiyatni yuksaltirish.
11. Mehnatga ongli yondashuvni tarkib toptirish.
12. Ijtimoiy foydali mehnatning mohiyatini anglatish.
13. Oila tarbiysi.
14. Fuqarolik tarbiysi.
15. Ma'naviy immunitetni oshirish tarbiysi.
16. Iqtisodiy tarbiya.
17. Ekologik tarbiya.
18. Go'zallik tarbiysi.

19. Jismoniy barkamollik (sog'lom avlod uchun).

20. Ota-onalar bilan ishlash.

Yuqoridagi omillarga tayangan holdasinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi maqsadga muvoffiqdir.

1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning rejasi umummaqtab rejalariga mos bo'lishi.

2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi

3. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmunida milliy tarbiya ruhi sezilishi.

4. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar zamon bilan hamnafas ruhda olib borilishi.

5. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar uchun tanlanayotgan mavzular milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi.

6. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiysi mazmunidan chetga chiqmasligi.Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilar qiziqishlariga asoslanishi.Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tarbiya tamoyillariga mos bo'lishi.

7. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni bilan ota onalarning yaqindan tanish bo'lishi.

8. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jamoatchilik fikriga uyg'un bo'lishi.

9. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jamoatchilik tashkilotlarining rejalarini boytishi.

10. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar izchillik va uzliksizlik tamoyillarga qurilgan bo'lishi.

11. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning yosh davrlar xususiyatlarini chetlab o'tmasligi

12. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar yo'nalishlarini tanlashda o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasiga e'tibor qaratilishi.

13. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning bilim darajasiga mos bo'lishi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishdasinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisi o'ziga yuklatilgan bir qancha vazifalarini bajarishi kerak bo'ladi. Bular:

- Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish;

- Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar ishtirokchilarining saviyasini o'rganib chiqishi;

- Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar ishtirokchilarining yoshlarini va uning xususiyatlarini bilishi;

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mavzulari qay darajada talabga javob berishini o'rganishi;

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilar tashkilotlari va sinf faoliyatlari yordamida yo'iga qo'yilganligini nazorat qilishi;

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar yo'nalishiga bevosita fahharlik qilgan holda o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatishi;

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda sinf fahharlari faoliyatiga xolisona yondashish va yordam berish;

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ota-onalarning yordamini inobatga olish va ularga uslubiy yordam berish;

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar samarali yakunga ega bo'lishi uchun sinf faoliyatlarga uslubiy yordam ko'rsatish.

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar ya'ni umummaqtab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning bo'sh yug'ularini samarali tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

» Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar doimiy ravishda bir-birini to'ldirishi va boyitishiga e'tibor qaratishi maqsadga muvoffiqdir

#### **Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda:**

» bolalarning yosh xususiyatlariga;

» maktabning geografik joylashuviga;

» maktabning shart-sharoitlariga;

» ijodiy birlashmalarning imkoniyatlariga

» ilmiy markazlarning yo'nalishlariga;

» o'quv adabiyotlar;

» badiiy adabiyotlar;

» ilmiy adabiyotlar;

» siyosiy va ijtimoiy adabiyotlar;

» laboratoriya uskunalari;

» ko'rgazmali qo'llanmalar;

» tajribalar;

» ijodiy tusdagisi ishlarni bajarish;

» asboblar niyoyihalash;

» mакетлар тайярлаш;

» modellarni yasashga ham jiddiy e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda xalq xo'jaligining turli sohalarda bo'lgani kabi xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni qayta ko'rib chiqishni davr talabi taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Ma'naviyat va ma'rifat“ jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariiga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omildir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu Konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijodiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzlusiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilishdir.

Tarbiyaning bosh maqsadi —yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, amalda joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi —shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrleshga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maqlashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlар, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (birbirini tushunadigan, mohribonlik, shafqatilik, irqi va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanishi lozim;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlesh, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish, o'z xalqi, davlati, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'ufiyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'limg'orish;

- mustaqil davlatimiz — O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va holisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirmoq kerak;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish hisoblarini shakllantirish;

- sog'iomi turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib o'sha sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

- yoshlarimizni erkin, mustaqil fikrleshga o'rgatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:

- tarbiyada tarbiyalanuvchi shaxsini olyi ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini humatlash, uning ijtimoiy, huquqiy va erkinligini e'tiborga olish;

- yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

- milliylikning o'ziga xos an'analarini va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'sasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mohribonlarcha munosabatda bo'lish.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarining qiziqishi, istaglari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rangbarangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari, xilma-xil ta'limg'orish ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan.

Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lif-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi, ularda mustaqil, tashabbuskorona ishtirot etishadi. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobji hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

—pedagoglar va o'quvchilar o'rtaida o'zaro hurmat munosabatlari shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;

—ulg'atgan inson shaxsini tarbiyada oliv ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarus.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- c) duradgorlik to'garaklari;
- d) sport to'garagi;
- e) badiiy to'garak.

Bu to'garaklarni o'rta umumta'lif maktablarida sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqliklari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maqlashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

—darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;

—o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;

—sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'naliishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;

—umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tashkilotlarda qatnashish;

—o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligining uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular, ko'pincha, o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kirish mumkin:

- tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;
- sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvcchi shaxslarni aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmsandan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqсадga erishish qiyin. Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p surʼajada o'quv jarayonini tashkil etish savyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishiga bog'liqidir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni istiyor ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga osbiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faoliyot, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy foydalı mehnat, siyosiy axborot, bayram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyatini va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idorak etiladi, qayta ishlanaadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlarini qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasini keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'y sunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyat unda qonashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lif olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdag'i barcha maktablarning vazifalari bir

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o'quvchilarning shaxslararo real, ya'ni aniq mavjud bo'lgan aloqalarini hisobga olish ikki xil maqsadga: guruh a'zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o'rtasidagi muomalaga ta'sir ko'rsatish, bundan tashqari, o'z oldilariga qo'ygan har bir maqsadiga erishish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning ilk maktabdagi qadamidanq tarbiyaviy ishning chinakam jamoatchilik munosabatlarini yaratishga zo'imkoniyat beradigan, bolalarda bir-birlariga g'amxo'r munosabatda bo'lishni tarbiyalaydigan, individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadigan usullarni tanlaydi. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda bolalarga o'zlarini qiziqtiruvchi faoliyat turini tanlashga yordam beradi. Biroq, ko'pincha, kichik yoshdagi o'quvchilar yosh xususiyatlariga ko'ra, o'z xususiyatlarini to'g'ri baholay olmaydilar. Bolalarning o'sishi ularda jamoatchilik malaka va ko'nikmalarining shakkilanib borishi bilan o'qituvchi-tarbiyachining bolalar jamoasiga rahbarlik qilishidagi jarayonini o'zgartirib boradi. O'qituvchi boshlang'ich sinflardayoq ahil bolalar jamoasini yaratish asosida sog'lom jamoatchilik fikrini yaratmog'i kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar tarbiyaviy jamoasini yaratish sohasidagi ishini yuqori sinflarning sinf rahbarlari davom ettiradilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni ta'lif va tarbiyaning tabiiy sharoitida, ularning jamoa faoliyati jarayonida o'rganadilar. Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga biror maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir vaqtini uzaytiradi, u o'qituvchining darslarda egallagan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, bolalarning qobiliyatini rivojlantirish, ularning xilma-xil qiziqishlarini qondirish, madaniy dam olishlarini uyuştirish imkonini beradi. Sinfdan tashqari ish bolalarni jamiyat hayotiga jalb qilishning katta imkoniyatlariga ega.

Bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilib, uni quyidagi ikki bosqichga bo'ladilar:

- jamoani dastlabki jipslashtirish;
- jamoani shakkllantirish va uning har bir a'zosini rivojlanish.

Jamoani shakkllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi muktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi.

Pedagoglar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobjiy natija beradi:

- ❖ o'quvchi shaxsini hurmat qilish;
- ❖ muayyan muktab yoki sinfdagi sharoitni hisobga olish;
- ❖ qo'yilayotgan talablarning aniq bo'lishi.

O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga qo'yilayotgan talablar ularda ma'naviy madaniyatni shakkllantirishga qilishi shart.

O'qituvchi qo'yilayotgan talablarning hajmi, tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi kerak. O'quvchilarga talablar qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirib, ularning shamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularni muntazam ravishda nazorat qilib borishdan iborat. O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish, ko'pincha, umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta'lif muassasasi direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari istiqbolli rejalar va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish xulq-hollarda amalda ko'rsatish, keyinroq sinflar bo'yicha sinf majlislarida, suhbatlar uyuştirish jarayonida amalga oshiriladi. Xulq-atvorni tarkib bo'lib qilib oshirishga qaraganda murakkab. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi angishlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi nazorat o'rnatilmog'i lozim. Nazorat qilib borish turli shartlar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik shundan baholarni qayd etib borish va boshqalar. Nazorat haqqoniy va muntazam bo'lish kerak. Uning natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish lozim.

**Jamoani uyuştirish va jipslashtirish.** U faollarini tarbiyalash bilan shambarchas bog'liq. Jamoa faollarini shakkllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Jamoa faollarini aniqlash uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini, ularning jamoa ishlarida ishtiroti, xulq-atvorni kuzatib borishi, har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish yaxshiligi aniqlashi zarur.

Jamo faollarining tarkibini bolalarning o'zları, albatta, pedagog ishtirotida ra'habarlighida tanlashsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda pedagog jamoa faoliyatining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifa yuklash, ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. O'quvchilar jamoasini shakkllantirish haqida tushuncha bering.
2. Jamoa orqali tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
3. Jamoa ishini tashkil etishda sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Tarbiya jarayonining mohiyati nimalardan iborat?
5. Jamoa ishini tashkil etishda sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. O'quvchilar o'rtasida salbiy holatlar ro'y bermasligi uchun qanday yo'ilish kerak?

## 11-MAVZU: OILA, MAKTAB, MAHALLA HAMKORLIGINING SHAXS MA'NAVİYATI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

### Reja:

1. Maktab oila va jamoatchilik hamkorligi konsepsiysi haqida.
2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda maktab, oila va jamoatchilikning tutgan o'rni.

Mamlakatimiz kelajagi vorislari bo'lmish yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvosiflashtirish borasida tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiysi ma'lum dasturilamal bo'ldi. Keyingi yillarda ta'lim tizimida, xususan, xalq ta'limi tizimida ko'plab o'zgarishlar va yangiliklar amalga oshirilganligi, davlat va hukumatimiz tomonidan xalq ta'limi sohasini amalga oshirilganligi, davlat va hukumatimiz tomonidan xalq ta'limi sohasini rivojlantrishga qo'yilayotgan talablar natijasi o'laroq Mazkur Konsepsiyaning rivojlantrishga qo'yilayotgan talablar natijasi o'laroq Mazkur Konsepsiyaning uzviy davomi sifatida Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 7-fevraldagagi 46сонли buyrug'i 1-ilovasi bilan qabul qilingan Xalqa'limivazirlighuzuridagi "Oila-mahalla-ta'limmuassasasi" hamkorligi Jamoatkengashi to'g'risidagi Nizom qabul qilindi.<sup>17</sup>

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 14-avgustdagagi PQ-3907-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila institute va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilano zaro hamkorligini yanada rivojlantrish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2012-yil 19-iyundagi 175-ton qarorlariga muvosif O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'limmuassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar, xalq ta'limibosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari hamda ta'lim muassasalari huzuridagi "Oila-mahalla-ta'limmuassasasi" hamkorligi Jamoat kengashlari faoliyat tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizomda Jamoat kengashining maqsad va vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

#### Jamoat kengashining asosiy maqsadlari

- jismonan soglon va ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila, ota-onalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorliqda olib boradigan faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish;

<sup>17</sup>Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 7-fevraldagagi 46-tonli buyrug'i 1-ilovasi bilan qabul qilingan Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi to'g'risidagi Nizom. Manba: uzedo.uz

- farzand tarbiyasida davlat va jamoat tashkilotlari hamda jamoatchilik faoliyini oshirish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

- o'quvchi va yoshlar o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan farzandborlik, zo'ravonlik, jinoatchilik, giyohvandlik, daydichilik va tilamchilik, diniy aqidaparastlik, missionerlik va "ommaviy madaniyat" kabi ma'naviy va ushbu tubantlik illatlarining oldini olishda manfaatdor vazirlik, idora va mahalliy fikriniyatlar bilan hamkorlikda tashkiliy-pedagogik ishlarni tashkil etish.

#### Jamoatkengashining vazifalari:

- oila, umumta'lim maktablari va mahalla hamkorligining samaradorligi va nijadoligini ta'minlash;

- ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish;

- ta'lim muassasalaridagi tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada iskomilashtirishga oid tadbirlarni amalgga oshirish;

- o'quvchi-yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbiga vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, teljakka ishonch va intilish, mehnatsevarlik, bonyodkorlik, ma'rifatparvarlik kabi g'oyalar va fazilatlarni singdirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasi va muktaraviy immunitetni mustahkamlash orqali zararli odatlar yo'liga kirishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalgga oshirish;

- o'quvchi-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, mahalla va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning ilk va asosiy ko'nikmalarini shakllantirish hamda tafyllantirish;

- o'quvchi-yoshlarga nisbatan "Hech kim, hech qachon e'tibordan chetda qolgan emas" tamoyilini joriy etish va faoliyat davomida bu masalaga doimiy shamiyat qaratish;

- ta'lim muassasasida ayrim o'quvchilarni kamsitish, ularga zo'ravonlik qilish holatlarining oldini olish va bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqiladigan dasurlar tayyorlanishida ishtirok etish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish;

- o'quvchi-yoshlar va ularning ota-onalari uchun ta'lim-tarbiya faoliyatini iskomilashtirish bo'yicha mutaxassislarni jaib qilgan holda turli sotsiologik raevnomalar, amaliy treninglar, master-klasslar o'tkazish, psixologik maslahatlar ishlash etish;

- hududiy jamoat kengashlari faoliyatini muvosiflashtirib borish.

Bu bilan birga maktab jamoat kengashi quyidagi vazifalarni ham amalgga shiradi:

- o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash;

- ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini qonunchilik hujjalariiga muvosif bepul darsliklar bilan ta'minlash;

- ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini homiylar mablag'larini jaib qilgan holda o'quv qurollari bilan ta'min-lash;

- ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq qishqi bosh-kiyim ajratish bo'yicha buyurtmani shakllantirish;

- zaruratdan kelib chiqib, ota-onalarga farzandlarining ta'lim-tarbiya olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishlariga ko'maklashish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalarini moddiy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.

Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalarini hamkorligini mustahkamlash borasida olib boriladigan ishlar Nizomda quyidagi asosiy uch guruhga bo'lib ko'rsatilgan. Bular,

#### Ota-onalar qo'mitasi quyidagi vazifalarni bajaradilar:

1. Maktab ota-onalar qo'mitasi raisi maktab pedagogik kengashining a'zosi hisoblanadi. U mактабдаги муаммоларни hal qilishda faol ishtirok etib, kerakli maslahatlarni beradi.

2. Ota-onalar qo'mitasi mактаб учун зарур bo'lgan barcha shart-sharoitlarni hozirlashda mahalla, jamoatchilik va otaliq tashkilotlardan boshlab to Respublika rahbarigacha iltimos bilan murojaat qilishga haqlidir.

3. Ota-onalar qo'mitasi mактабдаги ichki tartib-intizomni mustahkamlash maqsadida uni mактаб ma'muriyat bilan hamkorlikda muhokama qilishi mumkin.

4. Har bir ota-onani o'z farzandining hatti-harakati uchun mактабда, mahalla va jamoatchilik oldida, otaliq tashkiloti oldida muhokama qilishga, mahalladagi barcha ota-onalarni pedagogik bilimlarga jalb qilishga haqlidir.

5. Ota-onalar qo'mitasi o'z uchastkasidagi ota-onani, o'quvchini o'z faoliyatiga va o'z tarbiyasiga olish huquqiga egadir.

6. Ota-onalar orasidagi yoki ota-onalar bilan o'qituvchi orasidagi barcha nizolarni bartaraf etish va hal qilish huquqiga egadir.

7. Ota-onalar qo'mitasi mahalladagi o'quvchilarning va tarbiyachilarning salomatligi uchun qayg'urishi shart.

Maktab va ta'lim tizimini rivojlantirish hamda zamonamizga yetuk yosh avlodni yetkazib berishda bunday ibratli tadbirdarlari har bir mактабдаги ota-onalar qo'mitasi bilishi va shu tarzda ish olib borishi kerak. Maktab ota-onalar qo'mitasi mahalla oldida, ota-onalar va jamoatchilik oldida turli seminar va ma'ruza tashkil etishi kerak.

## 12-MAVZU: OILA VA JAMIYATNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

### Itaja:

1. Oilaning jamiyatda tigan o'rni.

2. Oila - tarbiya maskani.

3. Oilaning muhim vazifalari.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatning rivojini ta'miniydig'an, yangi avlodni dunyoga keltinb, ma'naviy va jomoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mojizalaridan biri bo'lib, u jomonlarga xos "tabiiy-biologik" (jinsiy munosabatlar), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (nikohni davlat yo'li bilan qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-onsa va bolalar o'rtasidagi mehr-oqibat tuyg'usi va tushshular) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlidir.

**Oila maqsadi** - ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzandlarni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta'minlash.

**Oilaning vazifasi** - er-xotinning birgalikda xo jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan ta'minlash hamda jamiyatga sog'lom, aqlli, har tomonlamo barkamol farzand tarbiyalash. Oila mazmun va mohiyatga ko'ra har bir xalq, har bir millat uchun o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga egadir. Sharqda oila tushunchasi oila qurish va lining mustahkamligini, farovonligi va tashqarorigini ta'minlash insonning o'z millati, avlod-ajdodlari, jamiyatni oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, oila o'zbek xalqi uchun eng muqaddas tarkibdir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Oilada o'zaro furoat va qattiq tartib bo'limasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchini ado etmasa, bu biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqinlarining, qo'shmlarining eson-omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oly darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".

**Otilaviy tarbiya deganda** ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlarini asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa qummoni omillarni shakllantirish maqsadida mutazam izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi.

Shaxq xalqlari, jumladan, o'zbek oilasida bola tarbiyasiga alohida e'tibor bera qaraganlar. Oila turmushning eng zarur qismidir. Inson oilada dunyoga ketadi. Oila insoniyat kelajagini davom ettiradi. O'zbek oilalarida tarbiyalangan farzandning hayotdag'i har qanday hatti-harakatining oqibati to'g'ri baholangan. Yosha monand ta'sir ko'rsatish yo'l va vositalari yaratilgan. Kerak bo'lganda tashqaroriga turlardan foydalilanigan, lozim bo'lsa jazolangan. Farg'ambaramizning hadisi shariflarida "Farzandingizni izzat-ikrom qilish bilan tashqaroriga odobini ham yaxshilanglar" deb bejiz aytildagan. Yosh avlodni turmushda keksa avlodning xizmati, ayniqsa benihoyadir. Oila jamiyatning eng

kichik o'chog'idir. Bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga yetadi Keksalar ko'pincha "Qush uyasida ko'rganini qiladi." deyishadi. Shuning uchun ham kelajagimizning qanday bo'lishi bugun qanday hayot kechirayotganimizga, bolalarimizga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg'ular, qanday orzular bilan toldirayotganimizga bog'liq. Hayotning achchiq-chuchugini ko'rgan, sinovlariga bardosh bergen keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan qaraydigan kishi bo'lmasa kerak. Ular o'zlarining bilganni sidqidildan farzandlarga o'rgaladilar, ayni paytda donishmandlik bilan yoshlarni yomon xatolardan asrashga harakat qiladilar. Ular insoniyat abadiy zanjirida o'tmishda erishilgan boy ma'naviy qadriyatlami kelajak avlodga yetkazuvchilardir.

O'zbekistonda tarbiya borasida to'plangan va izohlangan tarbiya metodlar kamol topayotgan yosh avlod ta'lif-tarbiyasida ma'rifiy ahamiyatga ega. Mustaqillik munosabati bilan o'tmishda yashab ijod etgan olim-ufuzalo va buyuk mutafakkirlarimiz hamda ularning asarları xalqimiziing moddiy va ma'naviy boyliklari hisoblanib, bu boyliklar bilan haqli ravishda g'ururlanamiz. Ular xalqimiz tomonidan ming yillar davomida to'plangan, tajribadan o'tkazilgan tarbiya metodlarini barkamol inson kamoloti uchun, inson va uning tarbiyasini, insoniylik g'oyalari uchun bo'lgan intilishlarini to'pladilar, targ'ib qildilar.

O'zbek xalqining ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan kattalarga hurmat, yoshlarga mehr-shafqat, mehmono'stlik, chanqagan odamga suv, keksalarga joy berish, qo'l yuvmoqchi bo'lgan kishining qo'liga suv quyish, sochiq tutish, g'am-g'ussaga tushgan xonadonga borib ko'rish va ko'ngil ko'tarish singari urf-odatlar bor. Sharq omili milliy odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borgani tarixdan ma'lum. Ko'p sohalarida qalam tebratgan ensiklopedist olim Abu Ali ibn Sino o'zidan odinli o'tgan olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy dalillarni va tajribalarni tartibga soldi. U ayniqsa, Arastu va Abu Nasr Forobiyning ilg'or fikrlarini yanada rivojlanтириб, inson aqli oqimning, koinotning sir-u asrorlarini bilishga, o'rganishga qobil ekanligini isbotlashga urindi. El zakovati, bilm, buyuk ilmiy asarları bilan jahondagi barcha xalqlarning hurmatiga musharraf bo'lgan Ibn Sino buyuk muallim ham edi. Uning "Donishnama" asarida ta'lif-tarbiya, ilm-ma'rifikat, insonning ruhiyati, axloq va odob kabi masalalar to'g'risida ta'lif-tarbiyaga oid chuqr fikrlar ifodalongan. Ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo oila, ota-on shug'ullanmog'i lozim, deydi.

Alisher Navoiyning tarbiyaga oid qarashlari deyarli barcha asarlarida o'z ifodasini topgan. "Hayrat- ul abror" kitobida tarbiyaning asosiy uslublarini sanab, ko'rsatib, bola tarbiyasiga va uning shaxs sifatida shakllanishiga katta ahamiyat berib, bolani baxt "chirog'i"deb ta'riflaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Agar oila bu tarbiya uslubini to'g'ri tatbiq eta olsa, qo'llay olsa oiladagi bolalar hayotlarida o'z baxtlariga tez erishadilar, degan g'oyani ifodalaydi.

A.Navoiyning ta'kidlashicha: Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish, buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Oilada bosh tarbiyachi otadir - deb

birinchi u. Uning fikricha, ota-bolalar tarbiyasida qattiqqo'llik va hatto kerak bo'lsa, jazo berishga qadar ta'sir ko'rsatuvchidir.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaning zamoni shunday deydi:"Endi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ilgan kundan hisoblanmak,vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni qozonlanturmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilish? Qayda qilish? degan savol keladur. Bu savolga, "birinchi uy tarbiyasi, bu ona qizilgosh" deb ta'kidlaydi. Bola tarbiyasida onaning vazifalariga alohida e'tibor beriladi. Mumkin qadar sipo, bosiq va chidamli bo'lishi lozimligini maslahat beriladi. Buning uchun oila a'zolarining har biriga ma'lum vazifalar yuklatilgan bo'lishi kerak. Chunonchi, erkak kishi oilada boshliq rolini bajaradigan bo'lgani uchun, u oilaning zarur talablarini bajarishi lozim, nimaiki va'da qilgan bo'lsa, o'z va'dasi ustidan chiqishi shart.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasiga oid o'z fikr va mulohazalarini bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim ekanligini ta'kidlaydi, bolalarga yaxshi, munosib ilm tanlashni ota-onaning dastlabki olivjanob hisoblaydi.

Kaykovus o'zining "Qobusnomha" asarida "Ota-onani hurmatlash haqida"gi shunday deydi: aql yuzasidan bilgilki, ota-onaning izzat va hurmatini boshqiga olish lozimdir, chunki farzandining asli ota-onadir. Nima uchun ota-onani surʼat qilaman deb ko'nglinga keltirma. Bilgilki, ular Sening uchun o'limga ham joybor turadilar. Agar har farzand aqlli va dono bo'lsa, ota-onaning mehir-muhabbatini ado qilishdan bosh tortmaydi. Ota-onaning ishi seni parvarish qilish va enga yaxshilik o'rgatishdir.

Har turli ilm va hunarни farzandingga o'rgatgaysen, toki otalik shartin va shaxsiga qo'shilishda eng, avvalo, oila a'zolarining o'rni beqiyosdir. Ota-onani tarbiya berishda yetakechi shaxs hisoblanadi, otaning oiladagi o'rni, o'zini tutiishi, surʼat turishi, so'zlash madaniyati hamma-hammasi bolaning tarbiyasiga o'z qo'shy va ijobjiy ta'sir yo'lini ko'rsatadi. Bolalarga samimiyl va mehr-muruvvatli bo'lish vaqt kelganda xatosini ko'rsatib o'tish, uni yomon jihatlarini ko'ra bilish va unga kerakli, ya'ni psixologiyasiga ijobjiy ta'sir ko'vsaladigan holatlarni misol tashqasida aytib o'tish kerak. Onaning oihdagisi o'rni muhim jarayon sanalib, ona va bolalarga shaxsnинг shakllanishida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxslar are munosabatlar tizimiga kiradi. Chunki bola dunyoga kelar ekan, u ilk surʼa una qornida rivojlanadi va asta-sekinlik bilan o'sa boshlaydi.

Abdurahmon Jomiy onani azizlab o'z mehri bilan hattoki jonini bemoqqa tashqasida ulug' zotlar ekanliklarini ta'kidlaydi."Men nechuk onamni 103

- uy jihozlash vositalarini shinam joylashtirish, kiyim-kechaklarni did bilan saqlash, remont qilish, yuvish, dazmollah, eskirganini butlash, ko'rpa-to'shak qoplash;

- bolalarni ozoda va sog'lom o'sishini, odobli va hayoli bo'lishini ta'minlaydigan sharoit yaratishda g'ayrat-shijoatli bo'lish;

- qizlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish, ularga milliy urf-odatlarning ijobji xususiyatlarini: ovqat pishirish, uy jihozlash, mehmon kutish, mehmon kuzatish, keksalarga xizmat qilish, ularning iffatli, iboli, hayoli bo'lishlariga erishish;

- har qanday qiyinchilik sharoitida ham o'zini-o'zi idora qila olish, farzandlariga har tomonlama o'rnak ko'rsatish, ularga va otasiga sodiq, mehribon, g'amxo'r bo'lish, ular oldida ehtiyyotlik bilan hayo saqlash, jiddiy va sirli bo'lish;

- farzandlariga kundalik hayot mobaynida ota-onaga, qaynona va qaynotaga xizmat qilishning eng yaxshi namunasini ko'rsatib borish;

- farzandlarining o'qishi, Vatan xizmatida bo'lishi, uylanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha harakatlarni sidqidildan amalda bajarishi;

- farzandlarini bir- biriga oqibatli va mehribon qilib o'stirish;

- tullik paytida yoki erning oiladan uzoqdaligida otalik burchini ham o'/zimmasiga olish va bajarish.

Biroq shuni unutmaslik kerakki, otalik va onalik burchlarini qat'iy chegaran bilan ajratib bo'lmaydi. Kundalik hayot mobaynida ularni bajarishda er xotingga, xotin erga ko'maklashib yuborishi mumkin.

Tarbiyaning murakkabligi haqida Amir Temur: "Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko'ra chucherroq mushohada undan ham chucherroq donishmandlik kerakligiga ishonch hosilqildim" degan edi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining asosiy tamoyillari quyidagilar bilan qat'iy belgilab berilgan:

• oila jamiyat va davlat muhofazasida;

• barcha fuqarolar - jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida teng;

• ayol bilan erkak oilada teng huquqqa ega;

• faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish;

• ixtiyorli va erkin nikoh;

• davlat nazorati asosida nikohdan erkin ajralish;

• davlat otalik, onalik va bolalikni muhofaza etadi va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qiladi;

• bolalarni milliy istiqlol mafkurasi asosida tarbiyalash va boshqalardir.

Topshiriq: O'zbek milliy an'analariga binoan, oilada otaning va onaning o'rni va vazifalarini nimalardan iboratligini sharhlang.

#### **Oila bolani to'g'ri tarbiyalash shart-sharoitlari**

Oilaning asosiy vazifasi bola shaxsini hayotga, jamiyatdagi faol turmush tarziga tayyorlashdan iborat. Sog'lom oila muhitini yaratish bola tarbiyasida

ahamiyatga ega. Oiladagi turmush tarzi ta'sirida bolada ijobjiy yoki salbiy tarkib topadi.

Oilada bola hayotini to'g'ri uyuşdırısh, ularni vaqtadan to'g'ri va unumli qizlarni tarbiyalashga o'rgatish - kun tartibiga ryoja • qilishga o'rgatish muvaffaqiyatlari oila tayyorlanishining asosidir.

Bolaning oiladagi vaqtini o'qish, mehnat qilish, o'ynash, dars tayyorlash uchun to'g'ri taqsimlash oilaning ijtimoiy qurilishiga bog'liq. Oilada bolalar uchun shahida xona yoki hech bo'limasa, burchak ajratib berib, ularning kundalik tartib uchun o'g'iz vaqtida darslarni tayyorlashiga sharoit yaratish zarur. Bolalar xonasiga yorug', quruq, sof havo aylanadigan imkoniyatlari, gigiyena talablariga javob beradigan bo'lishi lozim.

Ola-onal bolaning o'qishi, ishlashi va dam olishini qat'iy tartibga solishga shahida e'tibor berishi kerak. Ishlashi va dam olishning mutanosiblashtirilishi bolaning sog'lom o'sishiga, aqliy rivojlanishiga va barcha faoliyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng yaxshi dam olish - uylashdir. Tiniqib uylash organizmning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi. Uyqidan turgandan so'ng shahidi badantarbiya qilishga odatlantirish zarur, Ertalabki badantarbiya mustakallarning to'g'ri o'sishiga, qaddi- qomatni to'g'ri tutishga, organizmda shahida almashinuvini yaxhilashga yordam beradi, tetiklashtiradi. Tetiklik shahida ishlash istagini uyg'otadi. Ertalabki badantarbiya bolaning ish qobiliyatini shahid bilan birga, uni tartibli, intizomli qilib tarbiyalaydi.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi bolaning sog'lom o'sishi va ishlashi uchun katta ahamiyatga ega. Maktab yoshidagi bolalarga bir kunda to'rt mara ovqatlanish tavsiya etiladi. Bolani qat'iy belgilangan soatlarda ovqatlanishga, ovqatlanishdan oldin qo'l yuvishga, ovqatdan so'ng og'zini shayxashga odatlantirish lozim. Bu bilan bolaga ovqatlanish madaniyatini rivojlatadi.

Bola yaxshi o'qishi uchun eng yaxshi vaqt aqliy mehnatga ajratilishi lozim. Bola maktabiga I smenada o'qisa soat 15 dan boshlab, II smenada o'qisa soat 9 dan boshlab oy vazifalarini bajarishi kerak.

Kun tartibida bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri uyuşdırısh katta ahamiyatiga ega. Bo'sh vaqtida bolalar sinfdan tashqari o'qish, musiqa tinglash, televisor ko'rish, radio eshitirishlarini tinglash, turli to'garaklarga qatnashish, harakati o'yinlar o'ynash, sayr-sayohatlarga borish kabilalar bilan shahid umumishlarini tashkil qilishda ota-onalar va o'qituvchilarning hamkorligi g'oyalig'li muhim.

Bolalarda yaxshi fazilatlarni vujudga keltirishda shaxsiy namuna va sog'lom muhit katta ahamiyatga ega. Ota-onalar, oiladagi o'zaro munosabatlar shahid, halol, rostgovlikka asosanilgan bo'lsa, bunday oilada farzandlar mehrli, intizomli, odobli, xushmuomala bo'lib shakllanadilar.

III. Niyoziyning quyidagi ibratli sherini tahlil qiling:

## OTAMIZ

Fikr etib insof qilsak jumlamiz,  
Otamizdir eng muqaddas qiblamiz.  
Toki tongdin kechgacha mehnat etib,  
Tarbiya qilgan bizni, zahmat chekib.  
Ya'ni boqqan oshu-non bizga topub,  
Ustimidni yoz-u qish to'yla yopub.  
O'zi och qolsa, bizzi qoldirmadi,  
O'ynadik mehnatga hech soldirmadi.  
Biz mana mакtabda yurgaymiz o'qub,  
Pul topar bizchun ato mehnat kutub.  
Otadin kim boqsa bizga mehribon?  
Otamiz qubon erur bizlarga jon.  
Otamiz bo'lsun desak bizdan rizo,  
O'qusak ham rozi, ham qilgay duo.

## ONAMIZ

Otamizdan ham muqaddas onamiz,  
Biz uchun bo'lguchi chin qurbanimiz...  
Parcha go'sht erdik tug'ilgan vaqtimiz,  
Onamizning bag'ri bo'ldi taxtimiz.  
Kechalar sovuq beshiklarni quchib,  
Tutdi ko'krak, shirin uyqudin kechib.  
Ikki-uch yil bag'ri uzra ko'tarib.  
Katta qildi o'zi mehnatda horub.  
Jonus dilda asradi bizni suyub,  
Dedi bizni, boshqa orzuni qo'yib.  
Og'risa bir joyimiz, yig'lab yurib,  
Har eshikni kezdi, doru axtarub.  
Yana yoq bizga onadek mehribon,  
Sujnaga qalqon, bosh uzra soyabon  
Bizga ham lozim ani shod aylasak,  
Bizga qilgan xizmatin yod aylasak

Bolalarda chiroyli xulq-atvor ko'nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota-onasi kundalik hayotida ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'rнida, me'yorida, maqsadga muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga ibrat-namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'mi kelganda nasihat qilish, qat'iy tanbe berish, bola bilan vaqtinchalik gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabati o'zgartirish, ishontirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'batlantirish va qoralash kehlisidagi hisoblanadi. Har bir ota-onasi bola tarbiysining ijobil vositalar shunday uslublar hisoblanadi.

yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy quidalarni o'zlaslitirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo'ladi. Negaki, ota-onasi bola tarbiyasi g'oyat nozik murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta bilimni, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Maqsad aniqligi tarbiyaning asosidir, to'g'riroq'i, u tarbiya ishlarini maqsadga muvofiq to'g'ri yurish imkonini beradi. Demak, olyi maqsad - yosh avlodni milliy tarbiyalarimiz, yaxshi urf-odatlarni bilganda, bu harakat ota-onasi ruhan va jisman barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi.

Xo'sh, komil insonni shakllantirishda oila tarbiyasida biz nimalarga e'tibor berishimi zarur?

1. Oila bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi

2. Bolani aql (talabchanlik) bilan sevganda, uning qiziqishlariga diqqat berganda, mazkur yoshidagi talab va ehtiyojlarini bilganda, bu harakat ota-onasi ruhan va jisman barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi.

3. Ota-onasi hamma bolalariga bir xilda munosabatda bo'lishi tarbiyaning shartidir. Bola tarbiyasi g'oyat nozik, bu narsa vaqtini qo'ldan boy bermay, muntazam shug'ullanishni talab etadi. Bolaga munosabatda, birinchi yilliga nisbatan quyidagicha belgilash mumkin: 3 yoshgacha, 3-7 yoshgacha, 7-10 yoshgacha, 10-14, 14-16, keyin 18 yoshgacha.

4. Tarbiya ishi mакtab bilan oila hamda jamoatchilik hamkorligida amalga shartidigan murakkab, mas'uliyatli va sharafli vazifadir. Bu vazifaning to'g'ri hujumishi ota-onalarni ham, mакtabni ham, jamoatchilikni ham xushnud etadi, buдан keladigan tarbiya samarasini har tomonlama manfaatli bo'ladi, shuni nazarda ota-onasi farzandining o'qituvchisini ustoz bilib, u bilan tarbiyada bamaslahat ishlashi, o'z navbatida, o'qituvchi ham o'quvchisining ota-onasini g'oyat yurishini va hurmat bilan qalbiga yaqin tutishi kerak. Bolaning o'sish bosqichini uning qurʼati tarbiya olishini oila bilan bog'lasak, turmush kechirishdagi hissasi g'oyat yurishini his etamiz.

Ota-onasi bola tarbiyasiga oid bo'lgan hikmatli fikrlar.

1. Tarib-intizomning eng zo'r bo'lgan maskanni-oila sanaladi.

2. Bola uchun birinchi saboq, mayli itoatkorlik bo'la qolsin, shunda senimani zarur deb topsang, o'sha ikkinchi saboq bo'ladi.

3. Bola tabiatiga bolalikda singdirilgan tarbiyaning o'mi katta bo'ladi.

4. Bolalarni o'stirish va tarbiyalash ulkan jiddiy va haddan tashqari mas'uliyatli ish hisobladи.

5. Bola tarbiyasi uchun davlatni boshqarishdan ko'ra ham teranroq undan ham churorroq donishmandlik kerak.

• Odatda bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o'yib yozilg'an harflarga o'xshaydiki, ular daraxt bilan birga o'sadi, voyaga yetadi, daraxtning tarkibiy qismiga aylanib boradi.

• Dastlabki paytda bola uchun ona tarbiyasi hamma narsadan muhimdir, binobarin axloel bolaga tuyg'u sifatida singdirib yuborilmog'i zarur.

• Ota donoligi bola uchun chinakam saboqdir.

• Har bir insonni tarbiyalasa bo'ladi, ammo tarbiyalangan insonni tarbiyalash qiyin ishdir.

• Tarbiyani yoshlidan singdirmoq, kutilayotgan falokatning oldini olishdan ko'ra afzalroq.

## **JAMAVZU OTA-ONALAR BILAN ISHLASH OTA-ONALARGA TARBIYAGA OID BILIM BERISH**

### **Reja:**

1. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.

2. Oilaning bola tarbiyasida xalq milliy an'analaridan foydalanishi.

3. Oilavly munosabatlar va bola tarbiyasida Sharq mutafakkirlarini fikrlari.

4. Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish

XXI asrning dastlabki yildanoq ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot etish – O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasiga aylandi. Asosiy maqsad yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini o'minlashga xizmat qilish, jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etish, millati, tili va dinidan qar'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida mustaqillik g'oyalariga qarab va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptirish bo'lib qoldi. Albatta, milliy istiqbol mafkurasining bosh g'oyasi va uning maqsadlarini o'quvchi – yoshlar maiga singdirishda ta'lim-tarbiya bilan bir qatorda oilaning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillardan biri huqiqanadi. Oila – jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy manbalarga ega. Zero, insonning taqdiri ham, kelajakdag'i yutuqlari ham, kasb tushshisi ham, axloqli-odobi bo'lishi ham oilaga bog'liqdir. Chunki, farzandlarimizning yaxshi xulqi, axloqi oilada kamol topadi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq jamiyat hayotida milliy qadriyatlarni ishlash va ular asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida turish huquqiga ega" deb ta'kidlanishi bilan birga ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetqinlariga qadar boqish va tarbiyalashga, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanliklari 64-, 66-muddatlarda ko'rsatilgan. Darhaqiqat, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash kelajagimiz garovidir. Shuning uchun ham bolalarda yoshligidanoq milliy urf-odatlar, udumlar, an'analar va axloqiy madaniyati haqidagi tushunchalarini shakllantirish, oilaga bog'liq. Bolaning pok va sof sadoqat, ma'naviy jihatdan yuksak bo'lib o'sishi, oilaga oiladagi mustahkam, tinch va tovvugiga bog'liq. Chunki, unda tarbiyalanayotgan yosh avlod ham ma'naviy jihatdan yetuk, sog'lom, mustaqil fikrli komil inson bo'lib voyaga yetadi. Albatta bolaning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi oila totuvligi, uning davomiyligi oila a'zolarining ruhiyatiga o'zligini qanchalik darajada anglaganligida, o'z mustaqil okriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgandagina ishlajleha ta'milanadi. Oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi bolada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosini tashkil etadi. Biroq oila, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra har bir farzand uchun o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib, oila a'zolarining o'z burchlari, bir-biriga nisbatan ezunglik,

mehr-oqibat, yaxshi va munosib tarzda yashash, oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. Shuningdek, kattalarning yoshlarga bergan saboqlari, ro'zg'or tutish, bola tarbiyalash bobidagi tajriba o'g'il va qizlarga oila mustahkamligini ta'minlashda keyin ham asqotadi. Oila – tarbiya maskani. Tarbiya uning eng muhim vazifalaridan sanaladi. Shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irlsiy xususiyatlarini, balti ulardagi xatti-harakat, axloq-odob, muomala qoidalarini ham o'zlashtirib boradi. Ota-onsa o'ttasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oly maqom qadriyatlar ona suti, oila a'zolarining mehri va namunasi bilan bola xulqi, ongiga singiydi. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma'naviy, gigiyenik, jinsiy tarbiyasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Bu o'rinda misoli ota-onsa – san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. O'zbek oilalariga xos yana boshqa xarakterli xususiyatlar ham mavjud. Ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z qimmatini saqlab qolmoqda. Ya'ni, bolajonlilik, serfazandlik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila byudjetining ota-onsa tomonidan boshqarilishi, kichiklarning kattalarga izzat-ikromi, oila g'ururi, sha'nini himoya qilish uning har bir a'zosi uchun burchga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyga alohida mehrmuhabbat tuyg'usini rivojlantiradi. Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, u farzand tug'ilmasdan ancha oldin boshlanadi. Ya'ni, bo'lajak ota-onaning salomatligi, kayfiyati, nasl-nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyon, axloqodobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga ma'naviy va jismoniy tayyorligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmuni farzandlarda o'z ota-onasidan, oilasi, ajodolari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, Vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analaridan g'ururlanish hissini uyg'otishdan iborat. Xullas, insonning dastlab oila sharoitida shakllanib yetiladigan barkamol, ma'naviyati yuksak jamiyat barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, bola o'z tarbiyasiga ko'ra g'oyat ta'sirlanuvchan bo'ladi. Ota-onalar o'z bolalarini bilishlariga nisbatan bolalar o'z ota-onalarini yaxshiroq biladilar. Bola ilk yoshligidanoq kattalarning harakatlari taqlid qiladi, ularning so'zlarini takrorlaydi. Kishi ulg'aygach, bolaligida ko'rgan hamma narsani takrorlamaydi, ammo ana shu narsalarning barchasi uning qalbida, ongida o'zidan qandaydir iz qoldirgan holda saqlanib qoladi. Shuning uchun ham oilada bolalarg'a beriladigan nasihat va o'gitlar, ma'rifiy g'oyalar shaxs tarbiysi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega. Oilada ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlар haqida fikr yuritilishi ta'lim-tarbiyaga katta ta'sir etadi. Chunki oila muhitida bolalarni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to'g'risidagi fikrlar farzand barkamolligining asosini tashkil etadi. Oilada bolalarni ilm olishga da'vat etish, bilimli kishilardan yaxshilik kelishiga

ishonish, ularning fikrini eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etish lozimligi hisobidagi o'gitlar, ilm-ma'rifat ishlari, ezgu maqsadlarni amalga oshirish muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Chunki, inson ilm-ma'rifatli bo'lsa, odamlarga huzur bosh etadi. Bilimli bo'lish bilan birga, yomon xatti-harakatlarni sodir etishdan xususiyatlarini bayon etish oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Ma'lumki, bilimli, ma'rifatli bo'lish kishining kibr-havodon uzoqroq surʼini ta'mintaydi, o'gitlarda insonning kibr-havodon uzoq bo'lishi atrofdagi xususiyatlar bilan ijobiy munosabatni o'rnatna olishi uchun zamin hozirlaydi. Ilm sari qurʼonish qutug', ezgu ish sanaladi. Demak, har bir kishi ilm o'rganish sari intilishi, o'shshirilgan bilimlarga amal qilishi, kibr-havodon voz kechishi zarurdir. Ilm o'rganish yo'tida aziyat chekkan, mashaqqat tortgan kishigina uni to'laqonli qurʼonish olishi, kasb-hunar sirlarini mukammal egallashi mumkin. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlaridan yana biri bu aqlni rivojlantirishdir. Chunki, aqli odamning zehni o'tkir bo'ladi, u har qanday o'git-qimmatini tezda o'z ongiga singdirib oladi. Inson zehnining o'tkirligi, har qanday xususiyatni hal eta olish layoqatini xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning yordagi o'tjani ko'rib, unga ega bo'lish ilinjida pastga sho'ng'ishida sodir etadigan etiboridir. Oqil odam zehnining tezligi qush parvoziga qiyoslanadi. Aqli, bilimli kishilar behuda gaplarga ahamiyat, befoyda, o'zgalarga ziyon yetkazuvchi ishlarni amalga oshirmaydi. Nojoiz berilayotgan hadyalarga uchmaydi. Amalga oshirayotgan har bir harakati evaziga in'om-ehson kutmaydi, bahosi u qadar bolalarni bo'lmagan sovg'alarmi o'z qadr-qimmatidan yuqori qo'ymaydi. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash xususiyatlaridan yana biri xushxulqlikdir. Humin va hunar egasi bo'lish, ezbilik, yaxshilik yo'lida hamda umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat hisoblanadi. Kishilar o'rtasida o'sha qurʼonish, o'zaro ahillikning yuzaga kelishi yurtning farovon bo'lishi, shundankeying to'kin-sochin yashashining asosiy omilidir. Oilada bolalarni inson shaxsi va uning qadr-qimmatini ulug'lashga o'rgatish, mehmondo'stlik, do'stlik, o'sha hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar egallashga isteklasi, ishtiyoq va ehtiyoj, vatanparvarlik va qonqardoshlik tuyg'usiga ega bo'lishi, isjamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adulat va ahataslik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, axloqodob qoidalari, sihat-sababatlikni saqlashga oid o'gitlar haqida ma'lumotlar berish insonni yoshlikda o'sha maqsadga intilishga tinimsiz harakat qilish, voyaga yetganida uning shakllarni, mehnati natijasini ko'rish tushunchalarini shakllantiradi. Ko'rinib tashkil etadi, oilaning ta'lim-tarbiya borasidagi donishmandligi bola kamolotining xususiyatini tashkil etadi.

### Otaning bola tarbiyasida xalq milliy an'analaridan foydalanishi.

Xalq – axloqiy qadriyatlar, qimmatli an'analar ijodkori. Xalq qadriyatlar va an'analarini o'zinining ozodligi uchun olib borgan kurashlardan mardonavor ijod etadi. Ularni tolmas mehnatda, chet el bosqinchilari bilan qilgan janglarida qurʼonish etadi va e'zozlanadi.

An'analarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy mazmuni turli tarixiy davrlarda, ayniqsa keskin kurashlarda yaqqol ko'rindi. Ommaviy xalq harakatlari, inqilobiy janglar avj olgan davrda ham kishilar ijtimoiy qiziqishlar bilan yashaganlari Yuksak g'oyalalar uchun kurashgan vaqtarda ham an'analar tarkib topgan.

Urf-odatlar va marosimlar ota-bobolar tomonidan ijro etilib, ularning avlodlari ham shu urf-odatlar va marosimlarga rioya qilishlari lozim bo'lgan Ensiklopediyada an'ana quyidagicha ta'riflanadi: "an'ana" (lot. trado – uzatish) ijtimoiy va madaniy merosning avloddan avlodga o'tadigan muayyan jamiyatlarda, sinflarda va ijtimoiy guruhlarda uzoq vaqt saqlanadigan elementi bo'lib, u ijtimoiy merosning obyekt (moddiy va ma'naviy qadriyat) larini o'z ichiga qamrab oladi.

Kichik Ensiklopediyada bu ta'rif shunday aniqlashtirilgan: "An'analar tarixdan tarkib topgan va avloddan avlodga o'tadigan odatlar, ijtimoiy tartib, xulq normasi, g'oyalardan iboratdir". Pedagogika lug'atida an'ana xususida shunday deyiladi: "Oilaviy an'ana (lotincha – trado – uzatish so'zidan olingen) oilada qabul qilinganva katta avlod kichik avlodga beradigan odatlar hamda xulq normalarining majmuyi. An'analar tasodifan vujudga kelmasligi, balki yillar mobaynida tarkib topishi ma'lum. Demak, an'analar ko'p marta takrorlanadigan va ajdoddan avlodga o'tadigan muayyan qarashlar, e'tiqodlar, didlar, xatti-harakat normalari va qoidalari, ishlar va hodisalardir. Biz a'analar yashashining asosiy sharti ko'p qirrali murakkab hodisadir. Uni turli belgilariغا ko'ra tasniflash mumkin.

Urf-odat va an'analar nima?", "Ular bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?". Bularni aniqlashning muhimligi shundaki, mavjud adabiyotlarda mazkur muammolarni yoritish bo'yicha juda ko'p chalkashliklar uchraydi, ayrim tushunchalar aralashib ketadi va hokazo. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobida "odat" so'zi muayyan xalqda qabul qilingan usullar, harakat tarzi, tamoyillar" deb izohlanadi. An'analar esa tarixdan tarkib topgan va ajdoddan avlodga o'tib kelgan marosimlar, axloqiylik normasi deb ta'riflanadi.

Bizningcha, urf-odatlar va an'analarini bundaay izohlash ilmiy nuqtai nazardan u qadar to'g'ri emas. Chunki mazkur holda "an'ana – urf-odat" va "urf-odat – an'ana" tushunchlari ta'rifi orasiga tenglik belgisi qo'yilgan. Holbuki, bizningcha odatga nisbatan keng tushunchalardir.

An'ana tushunchasida muayyan marosimlar va axloq qoidalari birlashadi. An'ana o'ziga xos integratsiyalangan va ahamiyatli hodisa bo'lib, unda avlodlarning ijtimoiy hayotga bog'liq tajribasi umumi shaklda aks etadi. An'ana qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lib, u ijtimoiy va madaniy merosda uzoq davrlar mobaynida saqlanadi, keyingi avlodlar qabul qilinadi va yil davomida yangi elementlar bilan boyib boraveradi. Binobarin, an'ana muayyan marosimlarga, udumlarga, urf-odatlarga qaraganda ancha keng va umumlashgan hodisadir.

An'analar, urf-odatlar va bayramlarning har bir muayyan tarixiy davrning mahsulidir. Ular moddiy turmush shart-sharoitlarining ta'siri bilan paydo bo'lgan, rivojlangan, takomillashgan, asrlar osha ajdoddan avlodga o'tib kelgan va xalqning yaxshi orzu niyatlar hamda ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashirgan bo'ladi. Ilg'or an'analar yangi davr, ijtimoiy tuzum ehtiyojlariga moslashadi.

Masalan, mehnatsavarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehmono'stlik, bolalar tarbiyasini bilan bog'liq an'analar asrlar davomida yaralgan.

Har bir avlod o'zidan oldingi avlodkardan meros qolgan an'analar va urf-odatlarini mehnati, bilimi, tajribalari bilan boyitadi va rivojlantiradi.

Marosimlar – an'ananing badiiylashgan, ramziy belgilar, obrazlar, musiqa, qo'shiq, publisistik va badiiy so'z vositasida anglashiladigan muayyan g'iyalar, axloq normalari shaklidagi ko'rinishi. Marosim bir nechta rasm-rusum, shumlar zanjiridan iborat. U an'analarning tantanali badiiylashgan qismi bo'lib, umaviy harakatlar yig'indisidir.

Marosim urf-odatlarning hamma vazifasini ado ettishga qodir emas, balki uning biror qismi – boshlanshi, kulminatsiyasi, tugallanishini namoyon qiladi. Bo'sh urf-odat keng rejali xatti-harakat majmui bo'lsa (to'y, bayramlar, armiya shaxsiy qayrilish va hokazolar), marosim ana shu tantana (urf-odat) ni o'tkazish yoki hadiylashgan qismidir.

Bayramlar – kishilarning xususiy va jamoa bo'lib hayot kechirish hamonining yig'indisi bo'lgan tarixiy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelan, o'zida ideallarni, estetik ehtiyojlarni ifodalagan an'analar va urf-odatlarning muayyan shakldagi tantanali ko'rinishi. Bayram – jamiyat, davlat, umumi yuruh, oila hayotidagi biror muhim va quvondchlari voqeaga bag'ishlangan fikrlar. Bayramlar bir qancha elementlarni o'zida namoyon qilib, siyosiy tadbirlar (tantanali majlis, ilg'orlarni mukofotlash), o'ziga xos odatlar (xalq bayramlari, moshnokashlar namoyishi), oilaviy tantanalar (qarindoshlar, do'stlar uchrashuv) tantanaming zanjiridan iborat. Xalq an'analarini, urf-odatlar va bayramlar tantanaming jamoa bo'lib uyushishlarini, muloqotga kirishishlarini taqozo etadi. Ettan, ular xalq hayotining barcha tomonlari - iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiy, moshnayi, harbiy, kasb-hunar va ishlab chiqarish jabhalirida namoyon bo'лади.

An'ana, bayram va urf-odatlar turmush madaniyati tushunchasining tarkibida harakat qiladi. An'ana va urf-odatlar kishilarning o'zaro va jamiyatga munosabatlarni takror ishlab chiqarishda, oldingi avlod erishgan moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zida aks ettirib, keyingi avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

#### Oilaviy munosabatlар va bola tarbiyasida Sharq mutafakkirlarini fikrlari.

- dunyoqarashi va tafakkur ko'laming kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan shahriyari va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- o'quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan isham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish uslublari bilan qurollanganligi.

Har bir o'qituvchi uchun o'quvchilarga to'g'ri, omilkor axborot uzatish va suhbattoshini ishontira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bunda o'qituvchining muloqot madaniyati, ma'naviy olamining kengligi muhim shahriyatta ega. O'qituvchilarning pedagogik faoliyati uzlusizdir, u pedagogik muloqot madaniyatini muntazam shakllantirib borishida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berishi lozim:

1. Yuksak pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan o'z-o'zini anglashi, o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobji va zaif imkonlarini bilishi) va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini shahriyashadi.

2. Kishilar bilan o'zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllantirib borishi, muloqot asosida to'g'ri bashorat qilish sezgilarini mashq qildirishi, o'zining ideal tasavvurlarini, imkoniyatlarini boshqalar (o'qituvchilar jamoasi, o'quvchilar, ota-onalar) qanday baholashi haqidagi refleksiv tasavvurlarini tahlil qilishi.

3. O'zida muosharat odobining muhim xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan istisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlashi.

4. O'quvchilar va ota-onalar bilan tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan turli ishlarni olib borishi, bunda o'zaro fikr almashish asosida pedagogik tashkilotchilik qobiliyatini takomillashtirib borishi.

5. Muloqot jarayonida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni engish imkonlarini shakllantirishi, dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratishi.

O'qituvchi muloqot madaniyati asosida faoliyat olib borgan taqdirda ham, o'quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar, ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hot. Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. O'quvchilar jamoasida sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga javobgar shaxs o'qituvchidir. Bu barcha davrlar pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik hodisa.

Ayniqsa, ushbu holat endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh o'quvchilarning pedagogik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh o'quvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini himiy nazorat qilish, ularga to'g'ri yo'nalish berish, barcha o'quv muassasalari pedagogik jamoatchiligiga, ustoz o'qituvchilar zimmasiga yuklatilishi lozim.

Pedagogik faoliyatda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'qituvchining yoshiga va ish tajribasi ko'lamiga odatda o'quvchilar hech qachon e'tibor bermaydilar. Chunki, o'quvchilar yoshidan va tajribasidan qat'iy nazar barcha bermaydilar. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik muloqotning o'ziga xos an'analari, milliyligimizga mos shakl va metodlari mavjud.

Zero, mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov asarlariida ta'kidlanganidek, "Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridan oq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda". Bu ulkan mashaqqatlar evaziga amalga oshirilib kelinayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiyo yo'nalihidir. Hozirgi zamon o'qituvchisidan, hayot sinovlariga bardoshli bo'lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o'zining munosib o'rnnini topish, yuksak ma'rifatli va ulkan salohiyatli bo'lish, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avvalo o'z bo'lgan iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yituqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Ushbu erishiladigan yituqlar o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning savyatlari, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi shaxsining professional jihatlarini va o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri o'zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik sifat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o'qituvchi bilimining savyatlari va tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo'ladi.

muloqot jarayonida tarbiyalanuvchi ob'ektning javob harakati imkoniyatlarini oldindan ko'ra bilish;

ob'ektda psixologik to'siq va salbiy qarashlarni keltirib chiqaruvchi vositalarni qo'liga kiritish;

vaziyatning o'zgarishiga qarab foydalanish mumkin bo'lgan muloqotlarning bir nechta modeliga ega bo'lish;

o'quvchilar jamoasi fikrlarini tinglash, ularning mulohazalariga qo'shilish, ularga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish;

o'zaro muloqot natijalarini baholash va erishilgan yituqlar hamda tashriflarning pedagogik-psixologik vositalar asosida taqqoslash.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchining shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida va xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy savyatlari, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi hislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning savyatlari, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi shaxsining professional jihatlarini va o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri o'zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik sifat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o'qituvchi bilimining savyatlari va tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo'ladi.

#### 4-Hova

##### Pedagogik muloqotda muomala madaniyati

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar tarbiyalash yo'llaridan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi qiziqardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-akloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakhtanotirishda, intellektual jihatdan rivojlanotirishda o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'kidlash joizki, pedagogik kasbga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, o'qituvchilarning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish bo'lmalarini hosil qilish kabi vazifalarga javobgarlik hissi o'qituvchilar sifatida yuklatildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlanganidek, «Yosh avlodimizning qatlari va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning suju ni ma'muni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan eng qurilma haqidagi haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhim, o'z mustaqil fikriga ega, shuning qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-

O'qituvchi bilan o'quvchilarning muloqotda bir-birlarini o'zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, har bir o'qituvchining ruhiyatiga qarab muomala qilinmasligi, barchaga bir xil majburiy itoatkorlik munosabati, o'quvchilarni tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emotsiyonal jihatdan salbiy tus berilgan buyruq shaklidagi muloqot doimiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun, har bir o'qituvchi o'zining muammolaridan, yo'l qo'yilgan kamchiliklардан kelib chiqib, qiyinchiliklarni tahlil qilish bilan bartaraf etishi lozim.

Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo'naliшини mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtiroychilarining imkoniyatlarini ochishga ko'maklashuvchi uning shaxsli hislatlarini rivojlanotirib borishni ta'minlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi. Muloqotga ba'zi o'quvchilarning sub'ektiv qarashlarini aniqlash, shu o'quvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinishi uchun zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak.

Mazkur vaziyatlarda o'zaro harakatlarning tizimli vositalari majmuasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

*tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo'lishi kerak... bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxslar tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kavh etadi». Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchilarning yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladidi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zamirida shakllanib, takomillashadi.*

Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va hatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituveli shaxsi haqidagi qarashlari, uning hatti-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobjiy natijalar bermaydi. O'qituvchi sub'ekti bilan, o'quvchi ob'ekti o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etadi, natijada o'quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivoilanmaydi.

Pedagogik muloqot madaniyatni o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. *Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomalao'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehnint qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.*

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
  2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhidat tarbiyalaydi.
  3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsoni shakllantriradi.
  4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir qisqa bilimni o'tqazadi.

Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomaladagi o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;
  - muomala obyekti bo'lmish o'quvchilar diqqatini jaib qiluvchi nutq, pauzalar harakat, imo-ishoralarini o'z o'rniда ishlatsihi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;
  - o'quvchilarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jaib etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy mulqotga tayyorlashi;

o'quvchilarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini  
O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchilar ongiga ijobiliy ta'sir qiladigan  
usullarini.

Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning hatti-harakatlari idagi chuqur ma'no va haqiqiy shaharlarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning qizil tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvop usullaridan yig'ibalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish sifatida qaratilib, birlashtiruvchi hamda o'mini to'ldiruvchi vazifasini tajiradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish sifatida bo'lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo'ladi.

Pedagogik muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, umuman o'quvchilar janmasi haqida, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga ega bo'ladi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. SHu bilan birga, o'qituvchi muloqot asosida tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimas bir satilik,adolatsizlik, qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo'ladi va tuzatib bo'lmaydigan og'ir qibatlarga olib kelishi mumkin. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madanivatiya erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi:

- pedagogik muloqot orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi ob'ekt bilan o'ziga muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;

o'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy  
muloqotda jiofib natiialarga erishish kalitidir;

o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik  
tashishlar tavanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatlari saqlaydi;

o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, muomalasi bilan ular hissiyorida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham olishga qodir bo'ldi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida ob'ekt va sub'ekting ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg'unlashuvni sodir bo'ladi. Ishbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muomalaning asosiy tufayli so'zdir. So'z – mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'rurasida, shaxs monolog va deklamatsivalarida o'z ifodasini topadi.

Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o'quvchilarning shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o'qituvchini g'oyatxilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga

imkoniyat yaratadi. Bular sirdan qaraganda unchalik ahamiyatlari bo'limasida, o'quvchilar ichki dunyosida sodir bo'layotgan, ularni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

O'qituvchi o'quvchilarning ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim. O'qituvchining muloqot madaniyati asosida gapiradigan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar o'quvchilar tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi, bu o'quvchining fikr mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bundao'qituvchi mahoratinining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyano'quvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.

### 5-ilova

#### Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri

Odamlarning mehr-oqibati, bir-birlariga nisbatan o'zaro hurmat e'tiborda bo'lishlari o'zaro muomala jarayonida namoyon bo'ladi. Xalqimizda azaldan muloqot salomlashish madaniyatidan boshlanadi. Salomlashish turli xalqlarda har xil amalga oshiriladi. Xalqimizda salomlashish axloqlilikning yuksak namunasi sifatida e'tirof etilib, uning negizida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shu millatning ruhiy xususiyatlari, o'zaro munosabatlarining ma'naviy asoslari, bo'lajak muloqotning xarakteri, o'zaro hamkorligi aks etadi. "Qur'oni karim"da salomlashish odobi musulmon ahlining qat'iy majburiy burchi tarzida bayon etiladi: "Ey mo'minlar, o'z uylaringizdan boshqa uylarga to izn so'ramaguningizcha va egalariga salom bermaguningizcha kirmangiz. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad ushbu eslatmadan ibrat olsangizlar"(24.27), (24.61).

Ajodlarimiz madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z, xalq tilining tunganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda Abu Nasr Forobi, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Hisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va G'arb donishmandlarining boy meroslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga etkazish asosiy muammo sifatida targ'ib qilingan.

Ular so'zni va nutqni ta'lim-tarbiyada ilohiy ne'mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so'zning o'z o'rni va ahamiyati borgilini, tarbiyada so'zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so'z sehri mo'jizalar yarata olishini ta'kidlab kelganlar. Bularning barchasi mudarris va shogirdlarning samimiyl muloqoti jarayonida amalga oshirilgan. Mudarrislarni barkamol va tarbiyalangan insonning o'nta nishonasi borgilini alohida ta'kidlashgan:

- birinchisi: xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;
- ikkinchisi: yoshlikdan o'z nafsiga erk bermaslik;
- uchinchisi: birovlardan aslo ayb qidirmsaslik;

to'rtinchisi:yomonlik va omadsizlikka yaxshilikka yo'yish; beshinchisi: agar gunohkor uzr so'rasha, uzriniqabul qilish va kechirimli bo'lish;

oltinchisi: muhojirlar hojatini chiqarish;

ettinchisi:doimo el g'amini eyish;

sakkizinchisi:aybini tan olish;

te'qqizinchisi:elbilan ochiqchehrali bo'lish;

o'ninchisi: odamlar bilan doimo shirin muomaladabo'lish.

Muloqot Sharqona tarbiyada axloq qo'rg'i sanalgan. Muallim har bir o'quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim savyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o'zaro muloqotida namoyon bo'lishini ushishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot – azaldan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi bo'lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til – aloqa quroli sifatida ta'riflanadi.

Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo'lsa, qisqa vaqt ichida qolg' orasida obro'-e'tibor topadi. Ko'p gapirish hech qachon kishiga obro' ketirmaydi. Shuninguchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, ayubadigan har bir so'zga hurmat bilan, o'ylab yondashish lozimligini uqtirib o'tganlar. O'qituvchi "so'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan qiyatdarni o'yla'shi (I.P.Pavlov) kerak. Alisher Navoiyo'z adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqidagi noyob fikrlarni bayon qilgan. Byungi kunda ham bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. "Til shirinligi – ko'ngilga yoqimlidir, muloymiligi esa joydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun acal kabi toltidir" - deydi alloma.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining til boyligi muhim ahamiyatga ega: bir tomonidan, shirin tillilik o'quvchilarni o'qitish va tafakkurini qaynatirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi, o'qituvchining til boyligi nutqining obruzli, chiroqli, jarangdor, nomonali bo'lishini ta'minlaydi, natijada o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Tuman, til va nutqning teranligi, o'qituvchining mahoratini, ma'naviy boyligini, o'quvchilik qobiliyatining qay darajada ekanligini ifodalaydigan o'ichov, ko'rsatkich hisoblanadi. Amerikalik taniqli shoir Rolf Emerson: "Nutq qudratli kuch ni ishonotiradi, undaydi, majbur qiladi" deydi. Sharq mutafakkirlari ijodida til va nutq vositalari orqali notiq, voiz, badihago'y, qissaxon kabi maxsus san'at shifai va mudarrislar diniy, ta'lim-tarbiyaviy, islomiy aqidalarini ommaga singirishgan, pand-nasihatlar qilishgani bayon etiladi. Ushbu nutq sohiblari keng qarorli bilimga, boy axborotga ega bo'lishgan.

Alisher Navoiy "Voiz olimning o'zi avvalo halol ish ko'ruchchi bo'lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni" o'z asarlarida bayon etgan. Shuning uchun til shifai va notiqlik san'ati ustida ishslash, nutq madaniyatini takomillashtirib turish harbir o'qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas'uliyati xicoblanadi. Fa'mu tarbiya jarayonida nutqning ta'sir kuchi nihoyatda beqiyosdir. O'quvchining tili, nutqiy qobiliyatni o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga,

xulq-avtori va fikr yuritishlariga ulkan ta'sir etuvchi kuchli vositalardu O'qituvchining "til boyligi va notiqlik san'ati barcha zamонlarda yonma yashab kelgan" (A.P.Chexov). Uning his tuyg'usi, intilishlari, iroda va e'tiqodi nutqida aks etadi. O'qituvchi til boyligi bilan o'quvchilarida xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hissiyotlari uyg'otadi, bilim olishga undaydi. Shuning uchun o'qituvchi "tilning xalq o'mish, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita" (K.D. Ushinsky) ekanligini unutmasligi kerak.

*Kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida shirinsuxanlik, go'zallik, so'zlashuv ohangidagi muloyimlik myosharat odobi deyiladi. Muosharat odobi insonning go'dakligida ota-onas bag'rida, oilada shakkantirilishi kerak. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyiladi xalq maqollarida. Oilada o'rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo'ladi. Bola maktabda, ulg'aygach esa, ijtimoiy muhitda ko'nikma hosil qilish jarayonida oilasida o'rganilgan muosharat odobining kuch-qudratini doimo his qildi.*

O'quvchilarga muosharat odobini shakkantirish uchun o'qituvchining o'sti avvalo xushmuomalaligini namoyish etib, o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikr bo'lib, o'nak bo'lishi muhim ahamiyatga ega. SHarq mutafakkirlari asarlarida muosharat odobi turli ko'rinish va nomlarda bayon etiladi. Jumladan, Al Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi asosiy g'oya – fozil kishilar obraz. U kim bo'lishidan qat'iy nazar shohim, gadomi, oddiy fuqaromi fozil kishidir. Shaharning fozil kishilarini bir-birlariga nisbatan hurmat va izzatda bo'ladilar. Ota-onas farzand, ustoz va shogird, do'stlar, qarindoshlar o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom mavjud. Forobiy asarida bundan bir necha asr ilgari ham ota-bobolarimizning ma'naviyatini naqadar yuksak bo'lganligi va bu avlodlarga o'nak bo'lishi ta'kidlanadi. Onore de Balzak "Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma'rifatli ekanligidan dalolat beradi" deydi. Ingliz donishmandi Jon Libbok "Odamlar boodoblik yordamida hattoki kuch bilan erishish mumkin bo'lman gan g'alabalarga erishishi mumkin"ligini aytadi. Demak, muosharat odobi nafaqat milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizning ko'zgusi bo'lgan, balki turkiy xalqlarning noyob insonli fazilati sifatida e'tirof etilgan.

Insonning eng ulug', lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya'ni jamiyatda o'zo'rnini topib yashashidir. By faoliyatning murakkabligi shundaki, ko'pchilikka qo'shilish, ular bilan ahil bo'lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo'lishi kerak. Muomala va munosabatda o'quvchilarining diliga to'g'ri kelmaydigan qo'pol va dilozor muloqot olib boruvchi o'qituvchilarini hech kim yoqtirmaydi. O'quvchilar xushfe'i, shirinsuxan,adolatparvar, muomalasi shirin o'qituvchi va tarbiyachilarini dildan yoqtirishadilar va hurmat-e'tibor qilishadi. Insonlar orasida munosib o'rinni topish, inoq va hamjihat bo'lib yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon o'zining yutug'i bilan, badavlatligi bilan, ilm-hunar

bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo'ladi. Ammo insondagi kamtarlar samimiyo bo'lmog'i zapyp.

Shirin so'z muloqotga kirishishning asosiy qurolidir. U inson qalbini ilitadi, qo'pol eo'z inson kalbini jarohatlaydi. O'qituvchining "aql-zakovati, fikri, hissieg'ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'za ifoda ettiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" (Aziz Yumusov). CHunki so'zning qudrati katta. O'qituvchi o'zso'ziga, tiliga niroyatda chiyotkor bo'lmog'i lozim. Engavvalo, o'quvchilarga muomala madaniyatini, kattalar oldida o'zini tuta bilishi, gapini bo'lmasligi, yoshi ulug'larga gap qaytarmaslikni o'rgatish zarur.

Muloqot madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O'qituvchining qanchalik bilimi, aql-zakovatli ekanligio'quvchilarining bir-birlari bilan va ota-onalari bilan olib horadigan muloqoti orqali namoyon bo'ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so'z yordamida etkazadilar, amalga oshiradilar. SHu tufayli so'zlashuv munosabatlari niroyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi. Co'zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo'ladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. So'zlashuv ham o'siga xos san'atdir. Bu san'atning ildizi muosharat odobi bo'lib, uni mukammal o'rganish har bir inson uchun zarur. SHu bilan birga, ona tilini mukammal o'rgannoq va sof adabiy tilda o'quvchilar bilan muloqot qilish o'qituvchining o'stimlik qobiliyatidir.

## 6-Itova

### Pedagogik muloqot: funktsiyalari, tuzilishi va uslublari.

Psixologik lug'atlarda muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi: 1) muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni; 2) muloqot – belgilar tizimi orqali sub'ektlarning o'zaro ta'sirlashuvni.

Muloqot –ta'lim oluvchi psixologik va ijtimoiy rivojining muhim o'stimlaridan biri bo'lib, birgalikdagi faoliyatda umumiyl natijalarga erishish, shaxslaro munosabatlarni yo'liga qo'yish va qo'llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro harakati. Muloqot motivlari ta'lim o'stimining asosiy ehtiyojlari bilan tig'iz bog'langan bo'lib, ana shu asosdan kelib shiqib ularni uch muhim kategoriyasini ajratib ko'rsatish mumkin: bilish, ishlitarmonlik, shaxsiy.

Psixologiyada muloqotni tahlil qilishda uning turli jihatlariga e'tibor qaratiladi: "kommunikatsiya" (axborot almashuv), "ijtimoiy pertseptsiya" (insonni insonni idrok etishi va tushunishi), "interaktsiya" (birgalikdagi harakat). Amaliy muloqot mazkur tarkibiy qismalarning yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi. Pedagogik jarayonda muloqot faqat bir funktsiya – axborot berish bilan chegaralanadi. Biroq muloqotning barcha tarkibiy qismi – axborot almashuv va vazifalarini amalgaga

oshirish, o'zaro munosabatlarni tashkil etish, bola shaxsini bilishva unga ta'sif ko'rsatishdan foydalanish zarur.

Pedagogik muloqot deganda pedagog va o'quvchilar jamoasi o'rtasidagi o'zaro birlgiligidagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayoning tashabbuskorasi sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi hamda unga boschchilik qiladi.

A.N.Leontyev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyati baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot o'qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lif-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsiyonal muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'mintaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining o'z pedagogik mahoratidan oqiloni foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir.

Pedagogik faoliyatda muloqot o'quvchilarga zamon talablarini asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik ijhatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quydagi funktsiyalar bilan xarakterlanadi: shaxsnı o'rganish (bilish), axborot almashish va faoliyatni tashkil etish.

Muloqotning axborot almashish funksiyasi ma'naviy boylik va yangiliklar bilan o'tqoqlashish jarayonini rivojlantirish uchun ijobjiy ishtyoqlar, hamkorlikdagi ishslash va fikrash uchun sharotlар yaratishdan iborat.

Rollar almashinishi yordamida muloqot o'matish esa ularda u yoki ijtimoiy shakllanib qolgan xatti-harakatni dasturlaydi. O'qituvchilar o'quv tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar: darsning ayrılmış elementlarini bajarishga o'quvchilarni taklif qiladilar. Bunda o'quvchilarni tomonidan o'z shaxsi (men)ni, o'z qadr-qimmatini, shaxsini munosib baholash va kelajagini tasavvur eta bilish uchun intilishlarini ta'minlash imkoniyati tug'iladi.

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri – hamdardbo'lishdir. U boshqa kishi hissiyorlarini tushunishi, boshqalar nuqtai nazarini ma'qallash qobiliyatini shakllantirishi jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda o'quvchiga uning istaklarini tushunish va bular asosidagi o'quvchiga ta'sir etish zarurligini anglash o'qituvchi uchun juda muhimdir.

Pedagog faoliyatining didaktik va xususan tarbiyaviy vazifalarini o'qituvchi bilan o'quvchilar jamoasi o'tراسидаги sermahsul muloqot jarayonini tashkil etmasdan turib, yetarli darajada unumli tarzda amalga oshirib bo'lmaydi. Nuh tariqa pedagog faoliyatida muloqot:

birinchidan, xususan o'quv vazifalarini hal etish vositası sıfatida;

Jahon hidjatida, tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy-psixologik jihatdan ta'minlovchi

uchinchidan, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ta'limgan muvaffaqiyatli olib borilishiga imkon beradigan o'zaro shartlarning muayyan tizimini tashkil etish usuli sifatida;

to'rtinchidan, busiz o'quvchining individiga xos xususiyatlarini tarbiyalab maydigan jarayon sifatida maydonga chiqadi.

Pedagogik muloqot pedagogik jarayon mantig'iga mos keladigan dinamikka ega. Pedagogik muloqotning tuzilishida quyidagi bosqichlar alohida ko'rnatiladi: 1. Modellashtirish (bashoratga doir) – pedagogik vazifalarga o'aro harakatning kommunikativ tuzilishini o'ziga xos tarzda rejalashtirishni oshirish. 2. Bevosita muloqotni tashkil etish (kommunikativ hujum) – shuning tashabbuskorlikni o'z qo'lliga oladi, guruhni tezlik bilan ishga jalgab etish. 3. Muloqotni boshqarish – qo'llaniladigan ta'sir ko'rsatish harining kommunikativligini ta'minlash (o'quvchilarining tashabbusini fab-quvvatlash, o'quvchilarining tashabbus ko'rsatishini tashkil etish, dialogik tashkiliyoqchi yo'lga qo'yish, o'z mo'ljalini real sharoit bilan uyg'un tarzda tashkil etish). 4. Amalga oshirilayotgan pedagogik muloqot texnologiyasining yig'ini va natijalarini tahlil etish. Mazkur bosqich ko'pincha o'zining mazmuniga mos keladigan dinamikka ega.

Odaglik muloqtda uchraydigan kamchiliklar quyidagilarni kiritish mumkin: 1) ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatsoshni ortiqcha majburlash; 2) passivlik, o'zini yugori qo'yish; 3) haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish

Psixologiyada turli tipdag'i boshqaruvchilarning ijtimoiy psixologik portreti ichib chiqilgan bo'lib, unda ularning boshqaruvida bo'lgan jamoa bilan muloqoti tafsisi tahlil qilingan. O'qituvchi ham pedagogik jarayonda muloqotning eng keng farzilgan uch turidan foydalanadi: avtoritar, demokratik va liberal.

Averitar uslub. Ta'limgan oluvchilar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni, hantiki kim qayerda o'tirishigacha o'qituvchi yakka o'zi hal qiladi, ta'limgan oluvchilar tomonidan ko'srishtiladigan barcha tashabbusni taqiqlaydi. Bu uslubni o'qituvchi o'qituvchining muloqot metodlari sifatida buyruq, ko'sratma berish va tanbih sizmat qiladi.

Demokratik uslub. Bunda o'qituvchi jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha ta'lim oluvchiga etkazishga harakat qiladi, faoliyatning tekshini muhokama qilishga barchani jalb etadi; o'z vazifasini faqat nazorat va tafqiqatish deb bilmay, tarbiya bilan ham shug'ullanadi; barcha ta'lim bilarni rag'batlantiradi va ularda o'z-o'ziga ishonchni shakllantiradi; jamoada boshqarish rivojlanadi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchi barcha jamoa individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o'rtasida teng bo'lishiga harakat qiladi; tashabbus va faoliytki rag'batlantiradi.

Bunday o'qituvchining muloqotda qo'llaydigan metodlari – iltimos, maslahat, axborot berishdir.

Liberal uslub – boshqacha qilib aytganda, anarxik. O'qituvchi jamoaihayotiga umuman aralashmaslikka harakat qiladi, faolligi sust, muammolarni yuzaki ko'rib chiqadi, boshqalarning ta'siriga oson tushib qoladi. Ma'suliyatdan o'zini olib ochadi va o'z avtoritetini yo'qtadi.

V.A.Kan-Kalik pedagogik muloqotni munosabatlari va o'zaro ta'sir uslublari tashkil etishini ta'kidlab, ularni quyidagi tarzda turkumlaydi:

1) hamkorlikda olib boriladigan ijodiy ishga bo'lgan qiziqishga asoslangan muloqot. Hamkorlikda olib boriladigan *ijodiy ishga bo'lgan qiziqish asosida* muloqotda pedagog ta'lim oluvchilar va ishga nisbatan ijobiy yondashadi;

2) do'stona munosabatlari asosida qurilgan muloqot. *Do'stona munosabatlari asosida* qurilgan muloqot yuqorida ko'rib chiqilgan muloqot turiga yaqindir. Ayrim pedagoglar do'stona muloqotni noto'g'ri tushunib, chegaradan chiqib ketishadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Ushbu masofani aniqlashda o'qituvchining madaniyatni, pedagogik takti muhim rol o'yaydi;

3) o'qituvchi va ta'lim oluvchilarni ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqot. Ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqotni ham samararali deb bo'lmaydi. SHunga qaramasdan bu keng tarqalgan uslubdir. Bunda pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasida ma'lum chegara mavjud bo'lib, ularni quyidagicha ta'riflash mumkin: "Men bilaman – sizlar bilmaysizlar"; "Meni aytganimni qilinglar – mening yoshim kattaroq, tajribam ko'proq, bizni tenglashtirib bo'lmaydi". Bu uslub ko'proq avtoritarga yaqinroq bo'lib, u tashqaridan qaraganda tartibli faoliyatni amalga oshirishga yordam berganday bo'ladi, lekin yuqori samarani bermaydi;

4) qo'rqtishga asoslangan muloqot. O'qituvchi va ta'lim oluvchilarni ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqotning yuqori darajadagi ko'rinishi bu qo'rqtishga asoslangan muloqotdir. U o'zida ta'lim oluvchilarga salbiy munosabat va avtoritar boshqaruvni majassam etadi. Ushbu uslubni yorqin ifodasi sifatida quyidagi gaplarni keltirish mumkin: "Qunt bilan tinglanglar, bo'imsa ikki qo'yaman", "Hali kunlaringni ko'rsataman". Bunday uslub mashg'ulot paytida salbiy muhitni yuzaga keltiradi.

## 7-iloqa

### Pedagogik nizo va uning sabablari

Nizo – istaklari, qiziqishlari, qadriyatlar yoki tushunchalari mos kelmasligi sababli yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro aloqalar shakli (sub'ektlar individ/guruh/o'z o'zi bilan – ichki nizolar holatlarida bo'ladi).

"Nizo" va "nizoli vaziyat" tushunchalarini ajratishni bilish kerak, ular o'rtasida katta farq bor.

**Nizoli vaziyat** – ijtimoiy sub'ektlar o'rtasida haqiqiy qarama-qarshilikni jumga hettinuvchi insonlar manfaatlarining mos kelmasligi. Asosiy belgisi – nizo predicteni yuzaga kelishi, lekin hozircha ochiq faol kurashning yo'qligi.

Ya'ni to'qnashuv rivojlanishi jarayonida nizodan oldin har doim nizoli vaziyat yuzaga keladi, uning asosi hisoblanadi.

### Nizolarnito'rtturlariko'rsatiladi:

\* *ichki shahsiy*, shahsning kuchi bo'yicha tahminan teng motivlari, qiziqishlari, ishqibozligi, manfaatlarining kurashini aks ettiruvchi;

\* *shahslararo*, o'z hayotiy faoliyatida qarama-qarshi maqsadlarni amalga oshirishga intiluvchi shahslarni ifoda etadi;

\* *guruhroraro*, biri-biriga mos kelmaydigan maqsadlarni ko'zlagan va amalga oshirish yo'lida bir-biriga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy guruhrar nizo sifatida ishtirot etishlari bilan ajralib turadi;

\* *shahsiy-guruhi* – shahsning hulqi guruh qoidalari va umidlariga mos holatlarida yuzaga keladi.

Pedagogikjarayono'zigaxosmurakkabijtimoytuzilmabo'lib, shahslararo aloqalarining doimiy jarayonidaniboratdir. Albatta, bu jarayonda ikki o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy shakl doirasidan chetga chiqish holatlari kuzatiladi.

Pedagogik konflikt-pedagogik jarayonda shahslararo munosabatlarning kuzatilishi natijasi sifatida yuzaga keluvchi muamoli vaziyatdir. Pedagogik konfliktning quyidagi shakllari yuzagakeladi:

1) O'quvchi-o'quvchi

2) O'quvchi-o'qituvchi

3) O'qituvchi-o'qituvchi

Pedagogikjarayonning muhimishtirokchisio 'quvchibo'lib, shahslararo aloqalar konfliktlarkichik guruhlardaliderlik kaitish natijasidan amoyonb o'sha. Bunda shahslararo konflikt qoloq lider va guruhda e'tibor qozonayotgan ichki lider o'rtasida vujudga kelishi kuzatiladi. Konfliktli vaziyat guruhdagi ikki lider o'rtasida vujudga kelib, ular konfliktga nafaqqat o'zlarini, balki tarafdarlarini ham torishni mumkin. Bu esa konfliktik eskalyatsiyani, ya'ni uni miqyosini engayishiga sabab bo'ladi. Ayrim hollarda ikki lider o'rtasidagi koflikta tarafdarlar hududiy manfaatlar doirasida yuzaga kelsa, shahslararo konfliktning ko'lami etnik yoki hududiy mojarolar darajasigacha ko'tarilishi.

### Pedagogik nizolarning oldini olish yo'llari

Pedagogik nizolarni muvaffaqiyatli hal qilish odatda muammoni aniqlash, uni qilish, uni hal qilish bo'yicha harakatlar va natjalarni baholash siklini o'z higa etadi. Har qanday aniq bir vaziyatda nizolarni hal qilish bo'yicha siyosatni shahsning chiqishiga kirishishdan avval ularning manbalarini aniqlash zarur.

Pedagog va ta'lif oluvchi pozitsiyalarining to'g'ri kelmasligi ko'p konfliktlarga sabab bo'ladi, shuning uchun konflikt vaziyatlarda qo'llaniladigan sinalgan quyidagi qoidalarni bilish kerak:

Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o'z qo'liga olish. Bu emotsional taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoni zo'riqishdan, ortiqcha hatti-harakatlardan halos bo'lish kerak. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta'sir ham ko'rsatadi. SHunday qilib, tashqi vazminlik va xotirjamlik!

Ikkinci qoida. O'z xatti-harakatlari bilan sherigiga ta'sir ko'rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o'rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi.

Uchinchi qoida. Hamsuhbatning xatti-harakatlari motivlarini tushuna olish. Aqliy tahlilning ishga solinishi emotsional qizishni pasaytiradi. YAxshisi holatning murakkabligini tushunganligini ifoda etish (Men sizning holatingizni tushunib turibman...), o'z holatini tushuntirish (SHu meni o'ylantiryapti...) YA'ni hatti-harakatni darrov baholamang, oldin tug'ilgan vaziyatga bo'lgan munosabatingizni bildirishga harakat qiling.

To'rtinchi qoida. Maqsadni muvofiqlashdirish. Ta'lif oluvchi bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni ko'rsatish.

Beshinchi qoida. Samarali yechim borligiga ishonishingizni namoyish qiling. Va nihoyat, konflikt hal qilinganidan so'ng uni tahlil qilib chiqing (sababi va oldini olish yo'llari).

Birinchinavbatdanimasodir bo'lganliginianiqlash kerak. Muammo nimadan iborat? Ushbu bosqichda muammoni aniqlash bilan barcha rozi bo'lishi uchun hodisalarni bayon etish muhim.

Nizo tahlil qilib chiqilganidan so'ng hamkorlik ruhida birgalikda barchani murosaga keltirish yo'lini izlashga o'tish mumkin.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizoni hal qilishda nizoning sabablarini tahlil qilishdan tashqari yosh omilini hisobga olish kerak.

"O'qituvchi-o'quvchi" amalii nizoli vaziyatlar bilan bir qatorda shahsiy hususiyatdagi qarama-qarshiliklar ham uchrab turadi.

Nizoli vaziyatga tushib qolib o'qituvchi o'zining faolligini yoki suhbatdoshini yahshiroq tushunishga yoki nizoni bostirish yoki uni oldini olish maqsadida o'z psihologik holatini boshqarishga qaratishi mumkin. Birinchi holatda nizoli vaziyatni hal qilishga insonlar orasidagi bir-birini tushunishlarini yo'liga qo'yish, anglashilmovchiliklarni, kelishmovchiliklarni yo'qotish yo'li bilan erishiladi. Umuman olganda, boshqa insonni tushunish ancha murakkab. Tajribali pedagoglar nimani gapirishni (dialogda mazmunini tanlash), qanday gapirishni (suhbatni emotsional tusda olib borish), bolaga qaratilgan nutqda maqsadga erishish uchun qachon gapirishni (vaqt va o'rni), kimning oldida va nima uchun gapirishni (natijaga ishonch) biladi.

Pedagog va o'quvchi o'rtasida haqiqatda yuzaga kelgan nizoni uch darajalarda tahlil qilish mumkin:

- Ta'lif muassasasida o'quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil qilish ob'ektiv huissiyatlari nuqtai nazaridan;
- guruh, pedagogik jamoa, o'qituvchi va o'quvchining aniq shahslararo munosabatlari ijtimoiy-psihologik hususiyatlari nuqtai nazaridan;
- nizoishirokchilariyoshi, jinsi, individual-psihologik huissiyatlarini nuqtainazaridan.

Agar butun ta'lif jarayonini tashkil qilish va sharoitlarida, jamoali qoidalari tahlil tizimida, ushbu jarayonning bir-birlariga nisbatan ijobji munosabatlari, nizolarda konstruktiv hulqlariga tayyorliklarida haqiqiy ob'ektiv va ob'ektiy o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlansa, nizo samarali hal qilingan hisoblanishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006.
2. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Turon-iqbol, 2006. -
3. Omonov X.T., Madiyarova S.A. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Magistratura uchun darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2009.
4. Nigmatova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
5. Yuzlikaeva E.R., Madyarova S.A., Yanbarisova E.E., Morxova I.V. Texnologiya i praktika obuuey pedagogiki. – T., 2013.

## 16-MAVZU. TARBIYAVIY ISHLARNING O'QUVCHI TARBIYASIGA TA'SIRI. TARBIYAVIY ISHLAR ORQALI INSONPARVARLIKNI TARBIYALASH

**Reja:**

1. Tarbiyaviy ishlarning o'quvchi tarbiyasiga ta'siri.
2. Tarbiyaviy ishlar orqali insonparvarlikni tarbiyalash

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsnı shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzlusiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi. O'qituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotgga eltuvchi yetakechi omillardan biridir. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda Qur'oni Karim, Hadisi shariflardan foydalanish juda muhim. Tarbiyada inson shaxsini oliv ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya ob'ekti emas, xuddi o'zi kabi sub'ekt deb qarashi darkor. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi. O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda muhim. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarni ulkan boy va madaniy merosini chiqqo bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutasakkirlarning asarlari orqali o'kuvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, mehr - shavqat, ota - onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik - o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do'stlik, ota - onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Shu sababli insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko'chib kelgan. Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzlusizlik qoidasi. Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiyachi uyg'unligi va qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zi bu talabni unutib qo'yish, bu hol tarbiyaga yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli, o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rivoja qilish va bir sil qilish kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rivoja qilish va bir sil qilish kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rivoja qilish va bir sil qilish kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rivoja qilish va bir sil qilish kerak.

davom etadigan jarayon, unda ota - ona, o'qituvchi, jamoatchilik qamashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rivoja qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'lnarni (oila, muktab, o'quvchilar jamoasi, muktabdan tashqari tarbiya muassasalar, keng jihatshilknii) birgalikda ish ko'rinishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yuzhurni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Bola o'qishni, tarbiya olishni ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni shayxlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday psixologik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim. Ijtimoiy va shaxslaro munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individiga shaxs deyiladi. Jamiyatda rivojlanuvchi, til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi odam shaxsga - vogelikni biluvchi hamda faol ishtirovchi sub'ektgina aylanadi. Odamning insonlik jinsiga mansubligi individ shunchasi bilan ifodalanadi. Ta'lim oluvchilarning ta'lim faoliyatida zamonaviy texnologiya va ular asosida yaratilgan interfaol usullardan foydalanishi, ta'limning barcha shakllarini yangi texnika va texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy mahoratlarini zamonaviy talabi darajasida shakllantirish, ta'limning noan'anaviy o'qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy hamda uzlusiz aloqasini yaratish, ta'lim mukandiyatlarni kengaytirish, ta'lim oluvchilarga ta'lim jarayoniga nisbatan kasbiy, opozitsiyasi, tafakkur etish, ma'naviy va boshqa qiziqishlarini uyg'otish, mustaqil tarbiya kerakli ma'lumotlarni yig'ish, muammoni aniqlash, yechimlarini qidirish; oshoran bilim, malaka va ko'nikmalarini tanqidiy tahlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llash, ta'limda ishlash bilan raqobatbardosh munosabatlarni tayyorlash; tashkiliy, psixologik-pedagogik, o'quv-uslubiy, moddiy- texnik ta'minotni o'z ichiga oluvchi ish infrukturasini yaratish, shaxslarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, kerakli muhokemalarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash, axborot mukabilotidan samarali foydalanish, elektron darslik ma'lumotlar bankini yaratish, shaxslarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish, ishlab chiqilgan yechim, shaxslarni asoslash va mutaxassislar ishtirokida himoya qilish, pedagogik texnologiyalarni nazariy va amaliy egallash hamda sharoitlarini aniqlash, ta'lim shaxslari va ta'lim oluvchilar hamkorligidagi faoliyatning aniqligi va oshkoraliyi va hukumatlar.

Jamoaning ijobji rivojlanishi uning a'zolarida faoliyat motivlari (rag'batlari) ning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoa va uni rivojlanish qonuniyatlarini bilish har bir pedagog uchun muhim bo'lib, bola shaxsi rivojlanishida jamoaning roli benihoya kattadir. Zero, jamoa safida bo'lish bolada o'ziga ishonch, jamoa a'zolari o'rtasida o'z menligini topish, o'z shaxsini qaror toptirish imkonini beradi. SHuningdek, ijtimoiy ongning shakllanishida va faoliyat turlarining o'zlashtirilishida ham jamoaning o'rnini benihoya kattadir.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uziyi, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Biz tarixda katta njobji fazilatlari bilan nom qozongan ulug' bobolarimizdan hamisha ibrat olib yashaymiz. Oilada, muktabda, ko'cha-kuyda, mahallada, davralarda yoshlarimizni do'st orttirishga chaqiramiz. Yoshlikda bog'langan do'stlik iplari mustahkam bo'ladi, uni g'iybat, tuhmat shamollari uza olmaydi. Do'sting bilan bir umrga bog'lanib qolsang, kayfiyatning yaxshi bo'lsa uni baham ko'rgani, diqqat bo'lsang uni yozgani do'stingnikiga borasan, mehmon bo'lasan yoki do'sting ham shunday holatlarda senikiga keladi, ko'nglini yozadi.

Do'stlik, o'rtoqlik rishtalarining bog'lanishi va mstahkamlanishini ta'minlovchi birmuncha xislatlar -rostgo'ylik, bir-birini o'zaro hurmat qilish va sirdosh bo'lish o'rtoqlarga doimo g'amxo'r bo'lish kabilarni o'z vaqtida amalga oshirib borsak, bizning o'rtoqligimiz ortib, haqiqiy do'stlik darajasiga ko'tarila oladi, shuning uchun ham do'stlik o'rtoqlikning oliy shaklidir, deb yuritiladi. CHunki do'stlik avvalo o'rtoqlikdan boshlanadi. Kishi o'z o'rtoqlaridan birini boshqalardan ortiqroq sevadi. Uni boshqalardan ko'proq hurmat qiladi, unga nisbatan o'z moyilligini amalda ko'rsatishga intiladi. Ikkinchi tomon ham bu hurmatga hurmat bilan javob berishi ayni muddao bo'ladi. Do'stlar doimo bir-birlaridan maslahat oladilar, bir-birlarnga muntazam yordamlashib turadilar, moddiy va ma'naviy jihatdan bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydilar.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida jarayonida o'quvchilarni do'stlik, o'rtoqlik ruhida tarbiyalash jarayonini amalga oshirishning yo'lusullari, vositalari bilan tanishib chiqdik va tajriba-sinov ishlarni olib bordik.

Natijada, quyidagi xulosalarga keldik:

1. o'quvchilarda o'rtoqlik va do'stlik hissini tarbiyalashda sinf jamoasining o'rni begiyos;

2. Ajodolarimiz merosida axloqiy tuyg'ularni tarbiyalashga katta e'tibor qaratishgan, shuningdek do'stlik, o'rtoqlik, hamjihatlik sifatlari ham axloqiy sifatlarning asosiy sharti sifatida keltirilgan. Hozirda allomalarimizning boy merosi imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish maqsadga muvofigdir.

3. O'zbek xalq og'zaki ijodidan, jumladan ertaklarning imkoniyatlaridan foydalanishi keng yo'lga qo'yish zarur. Bu o'rinda o'quvchilar hayotida do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro munosabatni tarbiyalash maqsad qilib olinsa va unda shu mavzudagi ertaklarni uning vositasiga aylantirib undan foydalanilsa natija yuqori bo'ladi.

4. Dars jarayonida o'quvchilarni o'rtoqlik, do'stlik ruhida tarbiyalashda katta imkoniyatlar mavjud. Jumladan, o'qish darslarida o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik tuyg'ularini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim;

5. Do'stlik, o'rtoqlik sifatlarini shakllantirishda sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirdan kengroq foydalanish lozim.

6. Do'stlik, o'rtoqlik tuyg'ularini shakllantirishda ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish lozim; bunda bolaning ichki ma'nnaviy dunyosi, his-tuyg'ulari, munosabatlari, tengdoshlari bilan aloqalari tarbiyaviy ta'sirdan chetda qolmasligi kerak;

Biz, jamoada o'quvchilarni o'rtoqlik va do'stlik hissida tarbiyalash shakl va usullari mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz yakunida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Ota-onalar farzandlarida o'rtoqlik va do'stlik hissini tarbiyalashlari uchun farzandlarini jamoa orqali tarbiyalashga imkoniyat yaratib berishlari;

2. Sinf rahbari o'z faoliyatlarida jamoada shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va o'quvchilarida o'zaro do'stlik va o'rtoqlik tuyg'ularini shakllantirishi;

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
3. I.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida: -T.: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. – Toshkent, O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoxda. -T.: O'zbekiston, 1999.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. -T.: "Ma'nnaviyat", 2008. -176 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
8. Prezident I.A.Karimovning "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi Halqaro konferentsiyada so'zlagan nutqidan. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral.
9. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. «Xalq ta'limi», 1999 yil, 4-son, 4-11 betlar.
10. Kvasnevskogo K.A. Texnicheskoe sredstva obucheniya i metodika ik ispolzovaniya. -M., Kolos, 1998.
11. Kochitov S.I., Romanin V.A.TSO v professionalnoy shkole. M, Vissnaya shkola, 1998g.
12. Rahmonqulova S.I. IBMPC shaxsiy kompyuterida ishlash. -T.:1998.
13. Marahimov A.R., Rahmonqulova S.I. Internet va undan foydalanish asoslari.-T.: 2001.
14. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. // «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.
15. Musayev R.S. O'qitishning texnik vositalari fanidan laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarni bajarish (uslubiy qo'llanma). TIKXMII, 1999.
16. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y.
17. Sayidahmedov N. Ta'limda harakatlantiruvchi kuch. «Ma'rifat», 1998 yil, 16 yanvar.
18. Xoliqov A "Pedagogik mahorat" – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 = yil, 350 b.
19. Tolipov O. "Pedagogik texnologiya" –Toshkent.: Fan, 2005, 205 bet.
20. Yo'ldoshev J.G. Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari//Xalq ta'limi, 1999. N 4. –B. 4-11.
21. Miralimov SH. Yangi an'analar, yangi odatlar. -T.: "O'zbekiston", 1975.
22. Muhammedov A. Madaniy-oqartuv ishi pedagogikasi. T.: "O'zbekiston", 1985.

23. Shodiyev D. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarini tekshirish va baholash mezonlari. - T.: O'zPFITI, 2001. – 14 b.
24. Shodiyev D. Darslik yaratish metodologiyasi. - T.: O'zPFITI, 1994. - 21
25. Ergasheva G.S. Umumiy o'rta ta'limda o'quv materiallarini strukturalashtirish (tarkiblashtirishning) didaktik asoslari. //O'zbekiston Respublikasida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga joriy qilishning IIbosqichida pedagogika fanining vazifalari" ilmiy-amaliy konf. mat. - T.: O'zPFITI, - B. 298-301.
26. Ergasheva G.S. O'quv materialini modellashtirish // J. Pedagogik mahorat. -2002. - № 2. – B. 30-32.
27. Ergasheva G.S. Darsliklarda o'quv materiallarini saralashning ba'zi jihatlari. // Uzluksiz ta'lim jurnali. - 2003. - № 4. – B. 3-15.
28. Ergasheva G.S. O'quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashish. // Xalq ta'limi jur. - 2004. - № 3. – B. 64-66.
29. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-t. - M.: Rus tili, 1981. – 715 b.
30. O'zbekiston milliy enstiklopediyasi. «O'zbekiston milliy enstiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. III-tom. –Toshkent: 2002. – 142-b.
31. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 2012. 128 b.
32. Quvondiqov E.O. Pedagogik sinergetika va uning istiqbollari // Pedagogik mahorat.– Toshkent: 2006. – № 1. – B. 14–19.
33. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. -2012. 127 b.
34. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 112 b.
35. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 176 b.
36. G'afforova T., Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o'yinlar. Qarshi: Nasaf. – 2003.
37. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar Toshkent: Ilm ziyo. – 2004.
38. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.; O'qituvchi, 1990 . 4-bet.

Internet saytlari  
<http://www.pedagogika.uz>.  
<http://www.zionet.uz>.

## 23-MAVZU: AJDODLARIMIZ MADANIY MEROSI.SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MEROSIDA OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH

**Reja:**

1. Ajdodlarimiz madaniy merosi
2. "Avesto" - Milliy tarbiyaning manbasi sifatida.
3. Sharq mutafakkirlarining merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi har tomonlama barkamol intellektual xalohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashga bog'liq. O'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib keligan ulkan, bebabu ma'nnaviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifa bo'lib qoldi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'z ma'ruzalarida quyidagicha fikr bildirganlar. „Xalqimiz tayanchi — ajdodlarimiz qoldirgan ma'nnaviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanimishim lozim“. Zero ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarda xalqimizga xos bo'lgan insonning axloqiy-ruhiy kamolot masalasi yetakchi o'rinnutadi. Insoniyat yaratgan ma'nnaviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o'gitlari, tarbiya haqidagi fikrlari alohida o'rinn egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlari umrboqiy ma'nnaviy boylik hisoblanadi. Chunki ular hayotdan, hayot tajribalaridan kelib chiqqan va ezgu orzu niyatni ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi fikrlar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Bu fikrlar insonning shakllanishida moddiy va ma'nnaviy madaniyatning yillar davomida rivojlanishi natijasidan dalolat beradi. Shuning uchun ham har bir davrda yashab ijod etgan mutafakkir allomalarimiz „tarbiya“ so'zini turlicha izohlaganlar. Tarbiya — arabcha so'zdan olingen bo'lib, "parvarish qilmoq", "ta'lim bermoq", "o'rganish", "odob o'rgatish", "mehribonlik ko'rsatish", "himoya qilish" singari ma'nolarni anglatadi. Bu o'rinda tarbiyaviy manba sifatida Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'l mish „Avesto“ katta ahamiyatga ega. „Avesto“da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi birligiga katta e'tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab, undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan, desak, xato qilmagan bo'lamiz. Mana shunga asosan, „Avesto“ning eng asosiy manbasi bo'lgan Zardushtiylik to'g'risida so'z borganda u to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, „Avesto“da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o'rniqa munosabati to'liq yoritilgan. Zardusht ta'limotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan. „Tarbiya — hayotning eng muhim tirdagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin va yana yaxshi ovqatlanadigan

xalqdan yaxshi nasl — sog'lom avlod qoladi“, deb ta'kidlanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan vujudga keldi, taraqqiy etdi, jamiyatning o'zgarishi bilan tarbiya ham o'zgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash, bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar — axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig'indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyuştirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya — o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot — dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.

*Tarbiya deb tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytiladi.* Tarbiya bola tug'ilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Tarbiya — biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan rejaga ega bo'ladi va buning uchun maxsus vakolati mavjud bo'lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi, malakasi, xatti-harakati, yo'nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlar, istiqlol vazifalar bilan uyg'unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar.

#### 4. Buyuk allomalarimizning ta'lim-tarbiya va ma'rifat haqidagi g'oyalari.

O'z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo'lgan muayyan maqsadlarni qo'ygan davlatlar ham ta'lim-tarbiya ishlariiga befarq qaramagan. O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug'larining unishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrli bo'lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Devoniy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zunnunov va boshqalarning ta'lim-tarbiya va ma'rifat haqidagi g'oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bahovuddin Naqshbandning ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pand-u nasihatlari g'oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab, shunday degan edi: „Adab xulqni chiroyl qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir... Adab saqlash — muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug'i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysangiz ham, nimaiki qilsang, beadablik ko'rinadi. Odam o'zini bir xil sifat va ko'rinishda olib yurishi lozimki, toki odamlardaunga tasarruf (ta'sir qilish) ta'masi paydo bo'lmagin“. Abu Nasr Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir. „Ta'lim so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa, amaliyat, ish-tajriba bilan, ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi“, deydi u. Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir

shaxs munosib odam bo'lishi uchun unga ta'lim va tarbiya zarurdir. U ta'lim orqali Hazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o'rganadi. Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida „qattiq“ yoki „yumshoq“ usullardan foydalanish kerak, deb hisoblaydi:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llanadi.

2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul qo'llanilishi lozim, degan fikri bildiradi. Yusuf Xos Hojib tarbiyani juda murakkab jarayon deb tushunadi. U tarbiya kishini ezungulka o'rgatmog'i kerak. Ezguning har ishi chiroylti, har bir qadami go'zal. Ezgulik aslo qarimaydi. Tarbiya beldan madorni, fandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi, degan fikri bildiradi. Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borishni ta'kidlaydi: „Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadbab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqtigil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingning ko'nglida gina qolmasin“. Abu Rayxon Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, „Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, Shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim“, deydi. Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. „Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olilianob vazifasi, bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak“, deydi. Umar Xayyomning ta'kidlashicha, tarbiyaning maqsadi „sog'lom fikr, ziyrak aql va o'tkir zehnga ega bo'lgan insonni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i kerak“. Faqat chuhur zehngina barkamol xalqni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok, farog'atni hosil qilish mumkin, lekin shuning o'zi kifoya qilmaydi, inson yuksak axloqqa ega bo'lishi, yaqinlarini sevishi lozim. Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug'ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg'u beradi. Tarbiya va ta'lim ishlari o'qituvchi hamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozim. Mutafakkir bolalar bilan munosabatda bo'lish chog'ida ular tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jismoni jazo berishdan saqlanish, aksincha, xushmuomalalik bilan yo'l qo'yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini, biroq bu o'rinda ma'lum me'yorga amal qilish zarurligini aytadi. Alisher Navoiy o'qituvchining, ayniqsa, talabchan bo'lishi bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Alloma ma'lum fan asoslari yoki muayyan kasb-hunar sirlarini o'rganishga layoqatli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berish jamiyat uchun katta foyda keltiradi, qobiliyatizni tarbiyalashga urinish befoydadir, degan xulosaga keladi va bu o'rinda quyidagi larni bayon etadi: „Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir, qibiliyatizga tarbiya — hayf. Qobiliyatlini tarbiya

qilmaslik bilan uni nobud qilma“, degan fikrni bildiradi. Abdurahmon Jomiy, avvalo, tarbiya haqida fikr yuritar ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo‘lishini alohida ta‘kidlaydi. Jaloliddin Devoniy „Bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo‘lishi uning keyingi tarbiyasiga bog‘liq. Chunki hayotda har kuni bola ko‘radigan, muloqotda bo‘ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta‘sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-onha va boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikni o‘rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so‘zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o‘rganiladi“, deydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta‘lim-tarbiya ishini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo‘layotgan voqealar bilan bog‘liq holda olib borishni talab etadi. U yoshlar tarbiyasida, oila, ota-onalar alohida mavqega ega ekanini, maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birlikda olib borilishi keraqligini ta‘kidlaydi. Munavvarqori bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, balki muallim va keng jamao javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etadi. U yoshlarni bilimlarni puxtu egallahsga, mehnat qilishga, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo‘lishga chorlaydi, ota-onalarni farzandlarida ma‘naviyat, nafosat, go‘zallik tuyg‘ularini rivojlantirishga da‘vat qiladi. Munavvarqorining fikricha, yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg‘otish, Vatanni ozod qilish, xalq ma‘naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkin. Adib yoshligidan bolalarda mehnatga qiziqish, g‘ayrat, jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsya etadi. Abdulla Avloniyning fikricha, axloq bu xulqlar majmuyidir. Xulq esa, kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma‘lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishida yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Avloniyning ta‘kidlashicha, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqidir. Hamza Hakimzoda fikricha, maktab bolalarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o‘rgatishi kerak, maktabda dunyoviy fanlar o‘qitilishi lozim. Aqliy tarbiyada bolalar tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini, tabiat hodisalarini, ularning o‘zaro bog‘liqligini bilishlari kerak. Shundagina bolalar jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan bo‘lib yetishadilar. Zero, insonparvar odamgina kishilarni, ota-onani qadrlaydi, insoniy huquqlarni himoya qiladi, ularga hurmat-ehtiromda bo‘ladi. Uning uqtirishicha, axloqiy tarbiyada bolalarda insonparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish, bolalarni barkamol inson, go‘zal axloqli bo‘lib yetishishi uchun oilada sog‘lom muhit, tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Asqar Zunnunovning fikricha, tarbiyada bilim va tajribaga ega bo‘lgan, milliy qadriyatlardan xabardor o‘qituvchi bolalarni bilimli, go‘zal xulqli qilib yetishtirishi shubhasizdir. Ammo ularning bolalarga beradigan tarbiyasi tarbiyaning asosiy zamini bo‘lgan oila, tarbiya ilmidan xabardor ota-onha, ayniqsa, iffat, sharm-hayo, or-nomus, salbu durdonalaridan ziynatlangan, baxt-saodat mujassam bo‘lgan ona tarbiyad darajasida bo‘lmaydi. Shu o‘rinda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov

ta'kidlagantarderdek, „Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lif-tarbiyi asosining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak“. Bu esa ta'lif va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Jamiyatimiz komil insonni tarbiyalashda, uning ma'naviyatini shakllantirishda eng asosiy o'rinni egallaydi. Komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblanadi. Komil inson deganda biz, avvalo, yuksak ongli, mustaqil fikrلайдиган, түлүү атвори билан о'згаларга ибрат бо'ладиган билимли, ма'rifatli kshilarni тушунамиз. Tarbiya — vijdon ishi; ta'lif esa fanning vazifası. Keyinchalik, inson voyaga yetgach, bilmىнгىн бىرلىكلىقىنى ئىككى تىرى بىرى-بىرىنى to'ldiradi. Tarbiyaga jamiyat ئەملىرى ئۆرتىسىدا qaror topgan munosabatlarni saqlab turish uchun juda zarur bo'lgan bilimlarni uzluksiz egallash, deb qarash mumkin. Tarbiya ishida har bir kishining individual qobiliyatini rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qilish bilan, ayni chog'da, ularda atrofdagilarga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalashga hame'tibor turmoq zarur. Davlat-ning gullab-yashnashi, xalqning farog'ati oliyjanob xulq-odobga bog'liq, oliyjanob xulq-odob esa tarbiya tufaylidir. Tarbiya, asosan, fanning dilimizga jamiyat uchun foydali bo'lgan fazilat uyg'larini sochmog'i lozim. Tarbiya faqat inson zehnnini o'stirish va unga ma'lum hajmdagi bilimni singdirishgina emas, balki u insonda mehnatga tom ma'nodagi chingoqlik hissini uyg'ot-mog'i lozim, busiz odam hayotda na e'tiborli va na hastiyor bo'la oladi. Tarbiya, bu nisbatan keksaroq avlodning o'z tajribasi, o'z chitrosi, o'z e'tiqodini yosh avlodga topshirishi demakdir. Tarbiyaning bosh vazifasi odamni yaxshi qadam bosishga majbur etishgina emas, balki bu yaxshi ishlardan huzurlanishga ham o'rgatishdir; faqat ishlabgina qolmay, ishni sevish ham kerak. Tarbiya bizni yo'ldan ozdirmay turishining o'zi kifoya emas, u tobora himi yaxshilab bormog'i lozim. Nazarimizda bolalarning a'zoysi badani va rohiyatini tabiat qanday yaratgan bo'lsa, shundayligicha qoldiraverishdan qoniqmaymiz, biz ularning tarbiyasi va o'qishi haqida g'amxo'rlik qilamiz, toki yaxshi yanada yaxshilanishi, yomon esa o'zgarib, yaxshi bo'lishi kerak. Tarbiya udamda mehnatga ko'nikma va mehrni kuchaytirmog'i lozim, u insonga hayotda o'ziga loylig ish topa bilish imkoniyatini bermog'i zarur. Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash har qanday kishining ham muqaddas burchtaridan biridir. Zero, o'zini va tevarak-atrofdagilarni ma'lumotli qilishdan ham ko'ra muhimroq ish yo'q. Har bir mamlakatda insonni voyaga yetkazish sun'ati idora etish uslubi bilan shu qadar chambarchas bog'lanib ketganki, ijtimoiy tarbiyaga doir u yoki bu muhim o'zgarishni davlat tuzumining o'ziga o'zgartirish kiritmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Chinakam tarbiya yuksak eng quluklidir, aks holda, u hech nimaga yaramaydi. Barcha kashfiyotlar ichida eng go'zali yaxshi tarbiya olgan insondir.

**3. Muqaddas diniy manbalar hamda diniy mutafakkirlar asarlarida tarbiya masalasi.**

Tarbiya ikki negizga — axloq va oqillikka tayanmog'i lozim; birinchisi fazilatni o'sirsa, ikkinchisi o'zgalar illatidan himoya qiladi. Biz

tarbiyalayotgan insonda axloqiy soflik, ma'naviy boylik, jismoniy barkamollik uyg'unlashib ketmog'i lozim. Odamlar o'z sirlarini jon-jahdlari bilan yashiradilar-u, boshqalarnikini saxiylik bilan yoyadilar. Nodon o'tmishtdan saboq olmaydi, keljakni o'ylamaydi, u faqat bugungi kun bilan yashaydi. Nodonning hatto haqiqati ham o'z ziyoniga ishlaydi. Yo'qotish hamisha alamli. Hayotda hammasi aks: istaganingga intilib yetolmaysan, istamaganing oyog'ingning ostidan chiqaveradi. Xotirjam bo'limguncha ishing unmaydi. Ham baxt, ham davlat kamdan-kam hollarda birga bo'ladi. Kundalik tashvishlardan baland ko'tarila olmagan ulug' bo'lolmaydi. Birovning boshiga ish tushsa, bir-biridan suyunchi oladigan ko'payadi. Odamlar yaxshilikka bosh qo'shishmasa ham, yomonlikda bir jon-u bir tan. Dushmanlik, ko'pincha, biz sira kutmagan tomondan keladi. Bizni, ko'pincha, shubhalanish xayolimizga ham kelmaydigan kishilar chuv tushirib yurishadi (Xalq og'zaki ijodidan). Zimmangda farz bo'lgan narsani qarz va burch o'rniда ko'r. Bu hol qalbing-u dilingga rohat baxsh etib, sharafing va obro'yingni saqlash uchun eng to'g'ri yo'ldir. O'z vaqtidan kechikib berilgan in'om-ehson mahkam tortilgan zanjir misoli qattiq bo'g'uvchidir (Hadisdan). O'zi sazovor bo'limgan hamd-u sano-yu maqtovlarni talab qilish uyatsiz, telba odamlarning odatlaridandir (Hadisdan). Tavba qilgan kishi umrining nihoyasi (xotimasi) umrining boshidir (ya'ni onadan tug'ilgan kabi gunohsizdir), uning ishlari Allah taolo nazdida aybli bo'lmaydi (Hadisdan). Kimning xulqi xush, fe'l-aftori to'g'ri bo'lsa, u tilaqlariga yetadi, istiqboli porloq bo'ladi (Yusuf Xos Hojib). Inson faqat niyatnigina yo'qotishdan qayg'urish kerak, chunki har qanday xayrli ish niyatsiz durust bo'lmaydi (Hakim at-Termiziyy). Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq ham shart (Ibn Sino). Do'stlarning do'stligi mashaqqat va mehnat chog'ida bilinur (Xoja Ahror Valiy). Tarbiya uch qismidan iborat: badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, axloq tarbiyasi (Fitrat). Ilmnинг avvali sukut, so'ng eshitish, so'ng yod olish, so'ng amal qilish, so'ng uni tarqatishdir (Imom G'azzoliy). Qiyinchilik aqlning charxi-yu g'ayratning qayrog'i bo'lar ekan (Abdulla Qahhor). Ishga yarab qolsa ilming bir muddat, Yana oshirmoqqa aylagil shiddat (Mirzo Ulug'bek). Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'limgay (Imom al-Buxoriy). O'quv qaydu bo'lsa, ulug'lik bo'lar. Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar (Yusuf Xos Hojib). Qobliyatli odamni tarbiya qilmaslik — zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya xayfdir. Tarbiyangni ayab, uni nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma (Az-Zamahshariy). Har qanday mushkul ish aql egalari tufayli isloq qilinur (Alisher Navoiy). Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa (Arastu). Maktab — dunyo imoratlarining eng muqaddas va qadrлиsidi. Maktabning chin va haqiqiy ma'nosini bilgan millatlar jonlari, mollari bilan himmat va g'ayratlarini sarf etib, millatning taraqqiy rivojiga ijтиhad qilurlar (Behbudiy). Fikr tarbiyasi eng keraqli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas vazifadir (A. Avloniy). Hayot yo'lida birinchi masala maktab masalasidir (Abdurauif Fitrat). To'g'ri bolalarga, hali ular bola ekan, ota-onalar vasiylik qilishlari kerak, biroq ayni paytdi

ular bir umr bola bo'lib qolmaydigan tarzda tarbiyalanishlari lozim (X. Viland). E'tat-hurmat ota va onani, shunungdek, bolalarni ham qo'riqlab turuvchi posibondir; u ota-onani kulfat va g'amdan, bolalarni esa vijdon azobidan quiparadi (O. Balzak). Tarbiya — buyuk ish: tarbiya bilan inson qismati hal etiladi (V. Belinskiy). O'qish — tarbiya deb ataluvchi gulning faqat birlgina gulbargi, holos (V. Suxomlinskiy). O'qitish ikki barobar o'qish demakdir (J. Juber). Inson tarbiyasining bosh yo'li ishonchdir (K. Ushinskiy). Inson uchun nondon so'ng eng muhimi mablag (J. Danton). O'z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish hissini uyg'ota bilgan muallim sharafga loyiq (E. Xabbard). Kitoblar keksalikda eng yaxshi do'st, ayni paytda, yoshlikning eng aziz rahnamosidir (S. Smayls) Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do'stlardir (V. Gyugo). Odamning qanday odamligini hamisha u o'qiyyidigan kitoblardan bilish munlin (S. Smayls). Hayotda hech narsa mashaqqatlari mehnatsiz qo'lga kiritilmaydi (Goratsiy). Mehnat chinakam ollyjanoblikning yagona unvoni hisoblanadi (R. Rollan). Tinmasdan gapirib, birovga quloq solmaslik mag'rurlik belgisidir (Demokrit). Ulug' ishlar uchun telmas sabot kerak. Past odamlarning g'ururi shundan iboratki, ular doimo o'zlariga qida gapiradilar, chinakam insonlarning g'ururi esa o'zi haqida mutlaqo gapirmsalikdir (F. Volter).

Faqat bir ezgulik bor — bilim va faqat bir yomonlik bor — jaholat (Suqrot). Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa — tarbiyadir (Demokrit). Fan olg'a siljigan ayin beto'xtov yangilanib boradi (Viktor Gyugo). Oz bo'lsa ham bilmox uchun ko'p o'qimoq zarurdir (Monteskye).

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriglar:**

1. Insonning axloqiy-ruhiy kamoloti deganda nimani tushunasiz?
  2. „Avesto“da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o‘rniga munosabat qanday yoritilgan?
  3. Hazrat Bahouddin Naqshband ta’lim-tarbiyaning asosi adabdan boshlanishini aytadi. Uning ushbu fikrlarini keltiring.
  4. Kaykovus: „Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o‘rganur, o‘z ixtiyori bilan o‘rganmas“, - deya ta’kidlaydi. Siz ushbu fikrga qanday qaraysiz?.
  5. “Komil inson” tushunchasiga ta’rif bering?
  6. Mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy bola tarbiyasini olib borish jarayonida qaysi uslubdan foydalanish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi?
  7. Tarbiya haqidagi mutafakkirlarning hikmatli so‘zlaridan misollar keltiring?
  8. Axloqiy tarbiyaning vazifalarini tushuntirib bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

2. Hasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.

3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent. O'zbekiston, 1992.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: Universitet, 1998.
5. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: G.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
6. Ziyomuhamedov B., Ziyomuhamedova S., Qodirova S. Ma'naviyat asoslari. T.: O'zbekiston Milliy etiklopediyasidavlat ilmiy nashriyoti, 2000.
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008

#### **24-MAVZU: OTA-ONALARGA TARBIYAGA OID BILIM BERISH. OILAVIY URF-ODATLAR, AN'ANALAR, OTA-ONALAR VA SINF MAJLISINI TASHKIL QILISH.**

**Reja:**

1. Ota-onalarning bolalarni to'g'ri tarbiyalash shartlari.
2. Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish
3. Oilavyi urf-odatlar, an'analar
4. Ota-onalar va sinf majlisini tashkil qilish

*Bolalarning murg'ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta'sir etmaydi  
va barcha ibratlar ichida ota-ona ibratidan kuchliroq va mustahkamroq o'rinn  
oladigan ibrat yo'q. N.I.Novikov*

Yurt kelajagi hisoblanmish yosh avlodni, komil farzandlarni tarbiyalash birinchi navbatda oila va undagi muhitga chambarchas bog'liq ekanini ko'p bora atib o'tildi. Bundan ma'lum bo'ladiki birinchi bo'lib jamiyatimizdagi ota-onalarimizni shunga munosib tarzda qo'shtirnoq ichida "tarbiyalash" lozim bo'ladi. Ya'ni, ularning ongiga avvalambor har tomonlama yetuk, aqlan va ma'nana salohiyatlari oila bo'lib shakllanish zarurligini tushuntirish lozim bo'ladi. Shundagina bu oila o'zidan keyingi farzandlarini barkamol, xalq koriga yaraydigan qilib tarbiyalay oladi. Oila jamiyat hayotini rivojlantiruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim o'chog'idir.

Oila va oilavyi tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiylar tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustahkamligini ta'minlash vositalaridan biridir. Ikkinchisi tomonidan esa, bu o'z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo'llaridan biridir. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan tanishtirish niroyatda zarur.

Oilalarga tarbiyaga oid bilim berish bu faqatgina oila va oila a'zolarininggina emas, balki keng ma'noda davlat ahamiyatiga ega masala hisoblanadi. Hukumatimiz qarorlarida ta'kidlanganidek, barcha tashkilotlar, mehnat jamoalari, umuman axloqiy sog'lom, ma'naviy boy, mustahkam olibnivjudga keltirish to'g'risida, onalar haqidagi, mamlakatning kelajagi bo'lgan yoshtilar haqidagi g'amxo'rlikni kuchaytirishi zarur. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi, ularni turmushga va mehnatga tayyorlash to'g'risidagi mas'uliyatini oshirish zarur.

Jamiyatimizdagi har bir to'laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo'lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtiroy etishi lozim. Har bir yigit-qiz bo'lajak ota-nalardir. Shu sababli jamiyatimiz ularning qanday oila qurishlariga befarq qarab turolmaydi.

**Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy  
rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat.**

Tarbiyavish ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzlusiz davom etadigan jarayonidir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" 73-moddasida "Ota-onalarning bolalarga ta'lif-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlarida ota-onal o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-onalar bolalarning qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lif olishlarini ta'minlash shart", - deb ko'rsatilgan. Bu singari ulkan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun oilada ota-onalarga pedagogik bilimlar berish asosida olib borilishini har birimiz yaxshi bilishimiz kerak albatta. Buning uchun davlatimiz avvalo oilalarning mustaqil bo'lishiga asosiy e'tiborini qaratishi lozim. Farzand tarbiyasi haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIV bob "Oila" 63-moddasida "Oila jamiyatining asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", 64-modda "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar" va 66-moddasida "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatlari farzandlar o'z ota-onalarga bola tarbiyasi haqida ma'lumot berishni taqozo qiladi. Qomusimizdag'i bu burch va mas'uliyatni bajarish birinchi navbatda ota-onalar zimmasiga yuklatildi.

Ota-onalarning bu mas'uliyatini amalda bajarishlari bevosita ularning pedagogik madaniyatlariga bog'liq. Shu nuqtayi nazaridan qaralganda, oila tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish eng dolzarb masalalardan biridir. Shuning uchun ham ota-onalarga oilada bolalar tarbiyasi haqida bilim va tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyat muhim.

Oila hayotini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilish uchun o'qituvchilar, keng jamoatchilik pedagogika fani orqali aholida yordam berish, ota-onalarga tarbiyaviy bilim berish tizimini ishlab chiqishlari lozim. Pedagog olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada ortadi:

- maktab o'zining barcha ta'sirlari majmui oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olsa;
- o'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy talablarni to'g'ri tashkil eta olsalar;
- Xalq ta'limi sohasidagi idora va muassasalar tashkilotchi ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga torta olsalar;
- o'qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar muktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o'quv yillarda davom ettirilsa.

Bu masalalarni ijobjiy hal qilishda shahar, tuman hokimliklari va xalq ta'limi organlarining tarbiyaviy imkoniyatlari kengayayotgan paytdagi ta'siri hozirgi kun nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ota-onalarning o'ziga va bolalariga bo'lgan talabchanligi, katta va kichiklarning o'zaro munosabatlari, do'stona muhit, ishonch va o'zaro bir-birlarini tushunish oila, maktab va jamoatchilikning bolalar tarbiyasi yuzasidan olib

boriladigan muhim omillaridan biridir. Bunday birlikning ro'yobga chiqishida, eng avvalo, ota-onalarning siyosiy ongliligi muhim rol o'ynaydi. Chunki ota-onalarning faoliyi oilaviy hayotda o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda bolalar o'z ota-onalarning siyosiy va fuqarolik qiyofalariga qarab o'z xulq-atvorlarini tartibga soladilar. Bolalar ulg'aya boshlashi bilanoq o'z ota-onalarning qayerda ishlashlari, jamiyatda tutgan o'rinnari, ularning bilimiga qiziqa boshlaydilar. Shuning uchun ham ota-onalarning nimalarga qiziqishlarini, kimlar bilan safdosh ekanliklarini bolalar mumkin qadar ertaroq bilganlari ma'qul. Ota-onal qanday ishda bo'lmashuni jiddiy, el hurmatiga loyiq bir ish deb biladigan bo'lishi kerak. Bu borada oiladagi tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil etilishi yuzasidan javobgarlik ma'lum darajada muktabga yuklanadi. Oiladagi hukmronlikning tarbiyaviy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlash muktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni muktab belgilaydi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatlari bajarilishida, ijobjiy hal etilishida ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid targ'ibotning roli benihoyadir. Chunki ota-onalarni hozirgi zamondan ruhiy-ta'lif-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirmay turib, oilaviy tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Ommaviy-tarbiyaviy targ'ibotda eng yaxshi oilalar namunasida ta'sir ko'rsatish eng maqbul yo'ldir. Bola tarbiyasi yuzasidan oila, muktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Chunki, birinchidan, bola tarbiyasida oila, muktab va jamoatchilik hamkorligining o'zi murakkab jarayon bo'lib, bunda muallimlardan tashqari ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlar, kasaba uyushmalari ham ishtirok etishlari lozim. Ikkinchidan, ota-onalar va qarindosh-urug'lar turli mehnat jamoalarining vakillari bo'lib, ishlab chiqarish va yaro-do'starining ma'naviy hayotlaridagi omillarni muhokama qiladilar, ularning hayotga, san'atga, oilaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradilar. Shu sababli ham mana shunday toifa oilalarida tarbiya topayotgan bolalar boshqa ota-onalarning ko'chada, jamoat joylaridagi – hayot faoliyatlariga qarab o'z ota-onalari baho beradilar. To'plangan tajribalarini yasli, bog'cha muktabdag'i o'rtoqlari bilan muhokama qiladilar va hokazo. Uchinchidan, o'zbek oilalari, ularning hayot tarzi jumhuriyatimizdag'i ulkan ijtimoiy voqealar sifat jihatidan o'zgarishlarga uchratmoqda. Shu sababli hozirgi kunda oilaviy tarbiyada sifat va mazmun jihatidan o'zgarishlar qilish uchun yangi samarador yo'l va usullar qidirilmoqda. Lekin, ko'plab ota-onalar bolalar tarbiyasiga tayyor emasliklari, ularga ta'siretuvchi turli omillardan behabarliklari, bola kamolotining murakkab tomonlarinibilmasliklari natijasida oilaviy tarbiyada ko'plab ko'ngilsiz voqealar ham sodirbo'imoqda. Bunday salbiy omillar o'g'il yoki qizlarning muktabdag'i ta'lif-tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Voyaga yetmagan yoshlar, qonumbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab bo'imoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hali ham ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajaklari haqida zamondan talabi darajasida tarbiyaviy mas'uliyatni his qilmayaptilar. Ota-onalar bilan suhbatalish natijasida shu narsa aniqlandiki, ular farzandlari 15-16 yoshga yetgandagina «O'g'lim yoki qizim yuqori sinfda o'qimoqda. Kelajakda

qayerga yuborsam ekan? Qayerda o'qitsam ekan?» degan fikrga boradilar. Imkonи boricha, tanish-bilish orqali o'zлari uchun ma'qul dargohga o'qishga yoki ishga joylashtirmoqchi bo'ladi. Ular bolalarining qobiliyatiga ham, qiziqishiga ham, xohishiga ham e'tibor bermaydilar. Bunday holat ota-onalarning tarbiya masalasida aniq maqsad va dasturlari yo'qligi oqibatida sodir bo'ladi.

O'rni kelganda shuni alohida ta'kidlash kerakki ayrim maktab o'qituvchilari orasida o'z ishiga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'luchchi shaxslar ham yo'q emas. Ularning eng yomon xatolardan biri tarbiyaga oid barcha kamchiliklarni ota-onalar zimmasiga yuklab qo'yib, o'zлari esa kuzatuvchi bo'lib qolishlaridir. O'qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarni yetarli bilim bilan ta'minlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O'ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo'yish uchun ma'naviy huquqqa ega bo'ladi.

Rivoyat qiladilarki, bir ona donishmand oldiga kelibdi va bolasining tarbiyasiga qachon kirishish kerakligi haqida so'rabi. Donishmand bolaning necha yoshga kirganini so'rabi. Besh yoshga to'lganini bilib onaga xitob qilibdi:

— Tezda uyg'a qayt! Bola tarbiyasida eng kerak bo'lgan besh yilni sen boy berib qo'yibsан! Shunday, bola dastlabki yillarda tez va ko'p qabul qiladi va tarbiyaning asosiy qismini qabul qiladi. Tarbiya keyin ham davom etaveradi. «Lekin siz mevani keyin ko'ra boshlaysiz, — deydi bir donishmand — bu o'zingiz bir vaqtlar, bolangiz besh yoshigacha bergen tarbiyangiz gulining mevasidir» bu davrda bolaning olamni bilishi odamni bilishi orqali kechadi. Yaxshilik va yomonlik degan katta tushunchalar ota va onasining bir-biriga munosabati, ovozi, yarashi, harakati orqali borligiga singib boraveradi.

Donishmandlar kishi keyin umr bo'yи o'zi yashaydigan yaxshilik va yomonliklarning qariyb 90% ni aynan bolalikning ilk davrida olishini, besh yoshli bala bilan keksalik o'rtsasi bir qadam ekanligini tan olishadi.

Bugungi bolakayning ertaga qanday insон bo'lishi ko'p jihatdan bolalik deb atalgan bu davrning qanday o'tgani, uning ongi va qalbiga atrof-muhitdan nimalarni olib kirganiga bog'liqdir. Bolaga munosabatda avvalo uning yosh qiyidagicha taqsimlash darajasini inobatga olish kerak, uni yoshiga ko'ra taxminan quyidagicha taqsimlash mumkin:

#### **Tarbiyaning yoshga bog'liq jihatlari:**

1. Uch yoshgacha
2. Uchdan yetti yoshgacha
3. Yettidan o'n yoshgacha
4. O'ndan – o'n to'rt yoshgacha
5. O'n to'rtadan-o'n sakkiz yoshgacha

Bolaning bir yoshidayoq rivojlanishi jadallahadi: tana vazni uch hissa oshadi, bo'yи 25 sm o'sadi, tishlari chiqadi, ovqat chaynashni o'rganadi, emishdan to'xtaydi, bola oyog'ida turishni, kattalar qo'lini ushlab yoki o'zi mustaqil yurishni

biladi. 3 yoshgacha bu ko'rsatkich oshib boradi, qo'llar harakati takomillashadi, mustaqil kiyinadi, yechinadi, yuvinadi, qo'li bilan nozik harakatlarni qiladi, u endi qalam bilan rasm soladi, tugmasini qadaydi, gapirishga o'rganadi, shuning uchun ota-onalar juda sezgir va ehtiyyotkor bo'lishlari kerak. Tana a'zolarining to'g'ri rivojlanishi aniq-ravon so'zlashga o'rganishi, ota-onalarni sabr-toqatli, aqlirasolik bilan ish tutishlariga bog'liqdir.

Bolaning 3-7 yosh oralig'i alohida ahamiyatga ega. Bu davrda bolada zamon tushunchasi haqida to'g'ri tushunchalarini shakllantirish uchun unga yolg'on gapimaslik, savollariga to'g'ri, jiddiy javob berish kerak. Bundan tashqari bolalarda gigienik ko'nikmalarini go'dakligidanoq shakllantirish kerak 2-2, 5 yoshidan yuz-qo'l yuvishni eslatib turish, nazorat qilish va ko'maklashish zarur. Fozallikka rioya qilish faqat bolaning sog'lig'ini saqlash uchungina emas balki uni ketajakda ham pokiza bo'lishining omilidir. Bolani 2 yoshidan tishlarini tozalashsha o'rgatish kerak. Buning uchun kichkintoga bolalar tish cho'tkasi, pastasi berish lozim.

To'g'ri uyushtirilgan kun tartibi katta ahamiyatga ega. Bolani aniq belgilangan vaqtida ovqatlanirish kerak, pala-partish ovqatlanirish bolalar salomatligiga yomon ta'sir qiladi. Yosh bolalarning nerv sistemasi juda ta'sirchan bo'ladi. Bolalar darrov cbarchab qoladilar va dam olishga ehtiyoj sezadilar. Dam olishning eng muhim turi uxmlash bola har doim bir vaqtida uxmlashi lozim. Tungi va kunduzgi, uyqu muddati bolaning yoshiga bog'liq nimjon bolalar ko'proq uxmlashi lozim, uyqudan oldin ochiq havoda sayr qilish foydali, kechki ovqat yotishdan 1-1,5 saat oldin berilishi kerak.

Bola sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va uni har tomonlama rivojlanirishda chiniqtirish muhim rol o'ynaydi. 2-3 yashar bolalarning toza havo bilan chiniqishi muhimdir. Bundan tashqari quyosh vannalari suv bilan chiniqtirish ham juda foydali. Yosh bolalarni maktabgacha yoshdag'i bolalar muassasalarida tarbiya qilish, ularni oilada tarbiyalashha qaraganda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bola uchun yasli-bog'cha tanlashda "moda" orqasidan quvmaslik, sportni yoki diet tilini o'rgatadigan bog'chani qidirmaslik kerak. Uyingizga yaqin bo'lgan yasli-bog'cha eng qulay va hammasidan yaxshi bo'ladi. Uy sharoitida ba'zi bir ko'nikmalarini o'zlashtirgan bola bog'chaga borganda qynalmaydi. Qoshiqdan mustaqil foydalishni bilgan, o'zлari kiyinadigan va yechinadigan bolalar bog'chada o'zlarini dadil his qiladilar va tez ko'nikadilar.

Bundan tashqari bola hayotini o'yin va o'yinchoqlarsiz, ertaklar va musiqasiz — fantaziyasiz va ijodiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'yin va o'yinchoqlar olamida yayrab yashagan bolaning hayotini ma'naviy to'laqon deyish mumkin. Bolaga o'yinchoq tanlayotganda uning yoshi, qiziqishi va sharoiti ko'zda tutiladi.

Yoshi katta bo'lishi bilan o'g'il bolalar texnikaga oid, ayniqsa, transport va shu kabi o'yinchoqlarga qiziqishi ortadi, bu o'yinchoqlar bolalarda turli kasb va mutaxassisliklarga qiziqish tug'diradi, ota-onalar qiziqishni vaqtida payqab, rag'battantirishi kerak. Qo'g'irchoqlar qizlarning sevimli o'yinchoqlaridir, 1-2

yoshli qizchalar ko'zi ochilib yumiladigan, «Ingalaydigan qo'g'irchoqlarni yaxshi ko'radir. 1-4 yoshli qiz bolalarga plastmassadan qilingan kiyimsiz qo'g'irchoqlar ma'qul, qizlar ularni o'zlar cho'miltiradilar, kiyintiradilar, yo'rgaklaydilar. Sport o'yinchoqlari (koptok, arg'imchoq, kabilar) bolalarni jismoniy baquvvat qilishga xizmat qiladi.

**Musiqa o'yinlari bolalarni badiiy qobiliyatlarini o'stiradi. Umuman olganda bolalar o'yinchoqlari shartli ravishda 3 ta guruhga ajiratiladi:**

- 1.Syujetli o'yinchoqlar
- 2.Quruvchilik o'yinchoqlari

3.Turli materiallar agar bolani yoshlikdan o'yinchoqlarini toza tutish, ehtiyoj qilishga o'rgatib borilsa ular uy anjomlariga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lismi o'rganadilar.

Oilada bolaga tarbiya berishning qator o'ziga xos prinsiplari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lismi ta'minlaydi. Ular quyidagiicha tarbiyada ota-onaning mas'uliyati, tarbiyadagi birlik, ota-onsa obro'si, mehnat tarbiyasi, ota-onaning bola tarbiyasini bog'cha, muktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, ota-onaning barcha bolalarni teng ko'rishi, ularga adolatli munosabatda bo'lismi, tarbiyada bolaning o'sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, bola shaxsini hurmat qilish, unga talabchan bo'lismi kabilardir. Buning uchun ba'zi tarbiya usullarini bilib qo'yish foydadan xoli emas.

#### **Bola tarbiyasi prinsiplari:**

Masalan: ibrat – namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, odatlantirish, o'rni kelganda nasihat qilish, tarbiya berish, unga munosabatni o'zgartirish, ishontirish, rag'batlantirish, qoralash kabi usullar.

Tarbiyada maqsadning aniqligi muhim o'rinni tutadi maqsadimiz — barkamol avlodni tarbiyalash uni Vatanga muhabbat ruhida xalqning eng yaxshi urf-odatlari va oilaviy an'analarini ruhida, jamiyat uchun bilimdon va madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashdir. «Agar siz fuqaroni tug'ib qo'yib, uni o'z mehringizdan benasib qilsangiz, marhamat qilib jamiyatni bu razil niyattingizdan ogoh etib qo'ying – deydi A.S.Makapenko «ota-onsa mehridan benasib bolalar ko'pincha mayib kishilar bo'lib yetishadilar».

#### **Oilada hamma bolaga bir ko'zda qarash.**

Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Hamma narsada bolaga muomalada, jazolashda, ta'sir o'tkazishda, birlik bo'lismi zarur. Ko'pincha bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergan narsani dadasi ta'qil qo'yadi. Bolalar talabchan otasi bilan kam talabchan onasi va umuman talabchan bo'lmagan buvisi o'rtasida o'zlaricha yo'l topadilar. Kattalar o'rtasidagi kelishmovchilikni ko'rib bolalar mug'ombirlik, aldamchilik, xushomadgo'ylikka o'rganadi. Ayrim ota-onalar bolaga haddan tashqari mehribonlik qilib, girditton bo'ladilar, uning hamma vazifalarini o'zlar bajarishadi, barcha injiqlik va o'jarliklarini ko'tarishadi, natijada bola noshud, bemehr bo'lib o'sadi. Ota-onaning hamma bolalariga bir xil bo'lismi, tarbiyaning muhim shartlaridan bo'lib, opa ukalarning ahil, bir-biriga mehribon, oqibatli bo'lismiga olib keladi, bola nazarida

ota-onaning obro'si oshadi, odamlar bilan hisoblashishga, ularning ko'nglinii ranjitmaslikka, odamlarni qadrlashga o'rgatadi. Bir ota, bir onaning farzandlari fe'l-atvori jihatdan bir-biriga o'xshaydi, ota-onsa bolalarning sho'xini ham, qobilini ham bir xil mehr bilan sevishi, kattasini katta, kichigini kichik o'rnida bilib har birini o'ziga qarab muomala qilishi lozim. Birini ikkinchisidan ortiq ko'rish yaramaydi. Tarbiya avvalo oilada, bog'chada, so'ng maktabda, jamoatchilik tomonidan mutazam ravishda olib boriladi, tarbiyalashning muhim xususiyatlaridan biri, uni uzlusiz olib borishdir. Ba'zan onalar ikkinchi farzandni ko'rishgach kattasi g'ashlik qilayotganini aytib qolishadi, buning oldini olish uchun to'ng'ichga endi aka, opa bo'lganini aytish, ukasini boqishda yordamlashishi kerakligini tushuntirish lozim. Tarbiyada har bir bolaga alohida muomala, munosabat, e'tibor kerak. «U bolaku, bolaga bo'laveradi», «yumalab, sumalab katta bo'lsa rizqini topib yer», «hammasiga keyin o'zi o'rganib ketadi», kabi fikrlarni qo'yib, bolani tug'ilganidan voyaga yetkuncha tarbiyalab borish kerak. Bolaning tabbiy ehtiyoji bo'lgan narsalarni taqiqlash yaramaydi, bolani tez o'sayotgan organizmni harakat qilib turishni talab qiladi. Bola o'jarlik bilan gapga quloq solmaydi, yig'laydi va asabiylashadi. Keyinchalik esa vazmin, uyatchan bolaga qo'pol muomila qilinsa u juda qo'rkoq bo'lib qoladi, hayotda mustaqil yashashga qiyinaladi.

#### **Tarbiyada oilaviy muhitning o'rni**

Bolajon xalqimiz. Topgan-tutganimizni farzandlarimizdan ayamaymiz. ularning sog'lom, ma'naviyatlari, oqil va dono bo'lib ulg'ayishi, jamiyatga nafl keltiradigan insonlar bo'lishi uchun yelib-yuguramiz. Bu xalqimizga xos fazilatdir.

Farzandga g'amxo'rlik qilish, uning hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishi uchun harakat qilishning nimasi yomon. To'g'riku-ya, ammo ba'zi oilalarda bu g'amxo'rlik biryoqlama, ya'ni faqat moddiy ta'minotiga ko'proq e'tibor qaratilishi bilan namoyon bo'lmoxda. Eng yomoni esa, ayrim ota-onalar oiladagi te'kislik, ta'minot a'lo darajada ekanidan xotirjam yurishadi, bolamning ustti but, qorni to'q, ta'minoti risoladagidek deb, tarbiyaning ma'naviy jihatlariga e'tibor qaratmaydilar. Vaholanki, bola tarbiyasida oiladagi ma'naviy muhitning o'rni ko'proq ahamiyat kasb etadi. Buni dars jarayonida juda ko'p kuzatganman.

Sabiq berayotgan o'quvchilarimning ota-onalari turfa kasb egalari. Bu tafibiy, biroq ularning ma'naviy dunyoqarashlari ham turfa ekanligi meni o'yantiradi. Subbat jarayonida shuni anglab yetamanki, ular tarbiyada o'qituvchi muhim rol o'ynaydi, biz ota-onalar farzandimizning kiyimini, kitobini, daftarg'alaminini ta'minlab tursak, bas, deya fikrleshadi. Bunday ota-onalarga o'zingiz osirgi marta qaysi kitobni o'qidingiz, bolangizning dars tayyorlashini qachon nazorat qilib, ko'maklashgansiz, unga qanday ibratli hikoyatlarni aytib bergansiz, qanday kitoblarni olib berayapsiz, deya so'rashning o'zi ortiqcha.

To'g'ri, bola maktabda ta'limga olib bilan birga tarbiya ham ko'radi. Ilm dargohlarida yosh avlod har tomonlama mukammal bilim va salohiyat egasi bo'lib ulg'ayishi lozim. Bu borada davlatimiz tomonidan katta g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda.

Zamonaviy uslubda qurilgan, yuksak texnologiyalar bilan jihozlangan maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ular ixtiyorida. Ilm dargohlarida o'g'il-qizlar uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Bundan albatta, har bir ota-onaning ko'ngli to'q, lekin unutmaslik kerakki, tarbiyada ota-onaning ham, o'qituvchi-murabbiyning ham o'z o'rni bor. Mana, masalan, o'quvchilar bilan suhbatlashganimda ularning dunyoqarashi, o'y-fikri, orzu-niyatlari bilan qiziqaman. Ayrim to'kis oilada ulg'ayayotgan bolalar fikrini boqimandalik hissi egallab olgan. Ular kelajagini ota-onalari belgilab qo'yganini «faxr» bilan so'zlab berishadi.

Yuqorida biz farzandiga g'amxo'rlik haqida so'z ochgandik. Ota-onal oila davrasida farzandiga «*sen hech xavotir olma, uy-joy, avtomobil, nima kerak bo'lsa, mana, bizning zimmamizda*» desa, bu aslo g'amxo'rlik emas. Yoki ba'zi ota-onalarni olaylik, ular farzandi bilan gaplashishga umuman vaqt topisha olmaydi. Bola ulardan mehr kutsa, qo'liga pul tutqazishadi. Shumi, g'amxo'rlik?

O'zim guvoh bo'lgan bir voqeа haqida aytmoqchiman. Yosh hamkasbim bir kuni mendan maslahat so'radi: «Ustoz, bir o'quvchim darsga doim xalaqit berayapti. Yaxshi gapirib ham ko'rdim, tanbeh ham berdim foydasi bo'lmadi. Otasini chaqirtirsam, vaqt yo'q ekan, haydovchisini jo'natibdi. Otaning bunday e'tiborsizligidan juda ranjidim. Oxiri o'zi ham keldi. U mendan anchagini «achchiq» gaplarni eshitsa-da napisandlik va balandparvozlik bilan e'tibor ham bermadi». Hamkasbimning gaplarini eshitib Xoja Samandar Termiziyning bir ibratlari hikmati yodimga tushdi: «**Har kim agar yoshlidan beadab kishilar ichida o'sib-ulg'aysa, katta bo'lgach uning vujudiga o'rashib oladigan badfe'llik illatini chiqarib tashlash qiyin bo'ladi**».

Yaqinda bir voqeani eshitib yanada hayron qoldim. Qishloq maktablaridan birining o'qituvchisi bedob o'quvchilaridan biriga tanbeh berayotib, jahl ustida qo'liga urib yuboribdi. Ma'lumki, pedagogikada bolaga qo'l ko'tarish mumkin emas. O'qituvchi bu xatosini anglab yetgan bo'lsa ham, bola uyiga borib darhol ota-onasiga shikoyat qilgan. Ota esa o'z mavqeyidan foydalanib shifokordan bolasining qulq pardasi yirtilgani haqida soxta ma'lumotnomha tayyorlatib olgan. Bolasining qulq pardasi yirtilgani haqida soxta ma'lumotnomha tayyorlatib olgan. To'plangan hujjatlar asosida muallimni sudga berib, o'qituvchining tegishli tartibda javobgarlikka tortilishi va ishdan mahrum etilishiga «erishgan». Bir odamning noqonuniy xatti-harakatini deb, bir fidoyi inson nohaq qoralandi. Otaning bu qilmishini kuzatib turgan farzandning ertaga bunday nomaqbulchilikka qo'l urmasligi dargumon.

Mana shunday holatlardan biri mening ish faoliyatimda ham sodir bo'ldi. Bu o'quvchim uyga vazifani tayyorlamaganligi uchun unga qoniqarsiz baho qo'ydim. Bu bahoni kundaligiga ham qo'yib, bolasining o'qishidan ota-onasini xabardor qilish uchun xat yozmoqchi bo'lsam, u kundaligini tortib olib sinfxonani ruxsatsiz tark etdi. Undan juda xavotir oldim. Ertasi kuni qarasam, darslarga qatnashib yuribdi. Ko'nglim ancha joyiga tushdi, Keyin bilsam, kecha bola ota-onasiga «meni o'qituvchim urdi» deb arz qilibdi. Holbuki, men unga qo'limni ham ko'targanim yo'q. Bunga sinfdoshlari guvoh. Ish vaqt tugagach uyg'a ketganimdan

so'ng bolaning ota-onasi to'polon qilib kelgan, hech narsani so'rab-surishtirmay meni rosa ayblashgan. O'sha-o'sha bola mening darsim bo'ladigan kuni mashg'ulotlarga kelmaydigan odat chiqardi. Sinf rahbari onasiga qo'ng'iroy qilsa: «Adabiyot o'qituvchisi qattiqko'lligi uchun uning darsi bor kunlari farzandim qo'rqib bormayapti» degan javobni aytibdi. Mana, sizga ba'zi ota-onalarimizning ma'naviy saviyasi. Oxirigacha so'rab-surishtirmay, bilmay-netmay, o'quvchimning yolg'on gaplariga ishonib, uning ko'ngliga benihoya katta e'tibor berayotgan bunday ota-onal o'z farzandiga yomonlik qilayotganini anglab yetmaydi.

Yana bir gap. Bolalar «iPhone», «Samsung Galaxy», «Lenovo», LG, HTC rusumidagi mobil telefonlardan foydalanayotganini ko'z-ko'z qilayotganini ko'rib kishi chuqur o'ya cho'madi. Ota-onalar ularga qimmatbaho telefonlarni olib berganlar, ammo ularning ko'philigi bunday telefonlardan foydalanishni o'zlar bilmaydilar-ku!

Bola bu telefonlardan qay maqsadda foydalanayapti, uning maxfiy kodlangan papkalarida nimalar saqlanayapti, ijtimoiy tarmoqlarda kimlar bilan do'st bo'layapti, internetda qanday saytlarga tashrif buyurayapti – bularningbarchasini nazorat qilish uchun ota-onal o'sha texnologiyani farzandidan ko'rayaxshiroq tushuna olishi kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiy etgani sari ulardan foydalanish, tushunishda farzandlarimizdan ortda qolsak, bilingki, ularni hen qachon nazorat qila olmaymiz. Ko'pgina ota-onalar farzandlarining uyali aloqa vositasidan foydalanishlarini xavfsizlik nuqtayinazaridan deya izohlaydilar undan dars vaqtida foydalanish mumkin emasligini uqtirishni unutib qo'yadilar.

Aytmoqchimizki, bolaga g'amxo'rlik qilaman deb, uning ma'naviy dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilmaslik kerak. Ertaga u nainki ota-onasiga, balki jamiyat taraqqiyotiga yomon ta'sir etuvchi salbiy illatlarga ko'l urishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, bolaning yurish-turishini kuzatib, unga to'g'ri tushuntirish va yo'nalishlar berish, farzandining ta'lim olishiga e'tibor qaratib, ilm-fan, ijodga mehr uyg'otish, tarbiyasi yo'lida muktab va mahalla bilan mustahkam hamkorlik o'rnatish talab etiladi. Eng muhimi, bolaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga yaqindan ko'maklashish lozim. Uning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda, turli fan va sport to'garaklariga qatnashirish, imkon bo'lsa, musiqa va san'atga oshno qilish maqsadga muvofiq. Bu yoshlarning ongini egallashga urinayotgan turli g'arazli kuchlarga qarshi eng yaxshi qalqon vazifasini o'taydi. Yosh niholga istagancha shakl berish mumkin bo'lganidek, bolada yoshlidan qiziqishni uyg'otish ham unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Ota-onalar shu orqali farzandlari va ularning kelajagi uchun katta g'amxo'rlik qilgan bo'ladiilar.

**Tarbiya borasida** qilingan bir xatoning ta'siri odamni bir umr ta'qib etishi mumkin. O'qituvchisiga hurmatsizlik bilan gapirayotgan bola ertaga ota-onasiga shu munosabatni qilmasligiga kim kafolat beradi?

Milliy an'ana va qadriyatlarimiz, hurmat, izzat tushunchalari hamda jamiki axloqiy fazilatlar bu yo'lda bizga yaxshi hamroh bo'lishi, shubhasiz.

Farzand tarbiyasi juda murakkab va mas'uliyatli vazifa. Bu vazifa yurt taraqqiyoti, mamlakat kelajagiga daxldor ekanini sira yoddan chiqarmaslik kerak. Tarbiyada mana shu ikki olam uyg'unligi ta'minlansa, katta muvaffaqiyatlarga erishilishi ayni haqiqat.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. "Oila – mahalla – ta'lif muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi to'g'risidagi Nizomning tarkibiy qismlari va mazmun-mohiyati haqida ma'lumot bering.
2. Tarbiyada oilaviy muhitning o'mni qanday?
3. Muqaddas Islom dinida ota-onaning farzand olidagi hamda farzandning ota-oldidagi burchlari nimalardan iborat, deb ko'rsatilgan?
4. Bola tarbiyasi prinsiplarini sanang?
5. Tarbiyaning yoshga bog'liq jihatlari nimalardan iborat?
6. Ota-onalarning bolalarni to'g'ri tarbiyalash shartlari qanday?

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

- 1.R.A.Mavlonova. N.Raxmonqulova. B. Normurodova. K.Matnazarova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. – T: Nizomiy nomidagi TDPU.2014-y.  
2.R.A.Mavlonova. N.Raxmonqulova. B. Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. T: Tib kitob 2010-y.  
3.R.A.Mavlonova. O.To'rayeva .K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika.T:O'qituvchi 2008-y.  
4.K.M.Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T: Fan,1999.

#### **25-MAVZU. TARBIYAVIY TADBIRLAR VA ULARNI O'TKAZISH METODIKASI. TARBIYAVIY TADBIRLARGA SSENARIY YOZISH.**

**Reja:**

- 1. Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning mavjud ahvoli**
- 2. Tarbiyaviy tadbirlar va ularni o'tkazish metodikasi**
- 3. Tarbiyaviy tadbirlarga ssenariy yozish**

Mustaqillikka erishilgandan keyin ta'lif tizimida qo'lga kiritgan eng katta yutuqlarimizdan biri bu – milliy tarbiyaga e'tiborning kuchayganidir.

Bunda, shubhasiz, umuminsoniy, milliy, ma'naviy va moddiy qadriyatlarni umumiyligi o'rta ta'lif o'quvchilarig shakl va ko'rinishlarda o'rgatish mumkin, degan muammo ham o'rtaga qo'yildi. Unda, asosan, milliy qadriyatlardan shargona tarbiya mazmunini tanlash, tarbiyaviy mohiyatini belgilash, axloqiy natijalariga erishish yo'llarini belgilash, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashga e'tibor qaratilmoqda.

Biz boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning mavjud ahvolini bilish maqsadida maktablarda tarbiyaviy ishlarni qanday tashkil etilganligiga e'tiborni qaratdik. Asosiy ma'lumotlar Qarshi tumanidagi 25-o'rta umumta'lif mакtablarida boshlang'ich ta'lif sinf o'qituvchilaridan olindi: tadqiqotlarda jami 8 nafar o'qituvchi va 63 nafar o'quvchi qatnashdi. Tadqiqotlar o'quvchilar ta'lif olayotgan davr, ikki yil davomida ham o'tkazildi. Tadqiqotlarni o'tkazishda ekspertlar sifatida oliy o'quv yurtlarining professor- o'qituvchilarini jalb etildi. Tajriba-sinov ishlari avvalida boshlang'ch sinf o'qituvchilarining faoliyatini kuzatdik. Ularning tarbiyaviy ish rejalarini, turli sinfga oid hujjatlar bilan tanishdik hamda biz tanlagan mavzuga o'qituvchilarining munosabatlarini aniqlashga harakat qildik. Tajriba-sinov ishlari davomima kuzatish, og'zaki so'rov, test kabi ilniy tadqiqot metodlaridan foydalandik. Dastlab o'qituvchilar bilan og'zaki so'rovlari o'tkazib, ularning tarbiyaviy ishlarni texnologiyalashtirishga oid tushunchalari, bilimlarini aniqlashga harakat qildik. O'qituvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qildik. (Illova-1) Tashkil etilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, o'qituvchilarining biz tanlagan mavzuga nisbatan munosabatlari ijobjiy va unga qiziqishlari yuqoridir. Berilgan savollarning ayrimlariga o'qituvchilar aniq javob berishga harakat qilishdi. Masalan, "Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda sizga nimalar manba bo'lib xizmat qiladi", "Tarbiyaviy ish rejani tuzayotganda nimalarga ko'proq e'tibor ahamiyat berasiz", "Faoliyatizingiz jarayonida kasbdoshlarining tarbiyaviy ishlarni tahlil qilganmisiz, ularning kamchilik va yutuqlari nimada deb o'ylaysiz?", "Tarbiyaviy ishlarga doir faoliyatizingizni kim nazorat qiladi ?" kabi savollar shular jumlasidandir. Ammo biz tanlagan mavzuning eng dolzab savollaridan bo'lgan "Tarbiyaviy ishlarni texnologoyalashtirish deganda nimani tushunasiz?", "Pedagogik texnologiyalar tushunchasiga ta'rif bering?" savollariga o'qituvchilar aniq javob qaytarra

olishmadi. Vaholanki, o'qituvchilar pedagogik texnologiyalarning ko'plab turlarini dars jarayonida qo'llab kelmoqdalar. Ammo kuzatish va javoblardan ma'lum bo'lishicha o'qituvchilar tarbiyaviy tadbirlarda pedagogik texnologiyalardan muntazam foydalanmaydilar. Shu bois ular bu savollarga aniq javob qaytara olishmadi. "Bir o'quv yilida necha marta tadbir tashkil etasiz?" savoliga o'qituvchilarining ayrimlari, bir marotaba-degan javobni qaytarishgan bo'lsa, "O'quvchilaringiz bilan sayohatlar tashkil etasizmi, uhda ko'proq nimalarga e'tibor qaratasisiz?" savoliga o'qituvchilarining ba'zi birlari umuman sayohatlar tashkil etmasligini, ayrimlari esa ikki yilda bir marotaba –degan javobni qaytarishdi.

Yuqorida javoblar tahlilidan ko'rish mumkinki, ayniqa tarbiyaviy ishlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning dolzab muammolaridan biridir. Zero, pedagogik texnologiyalar nafaqat tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiradi, balki o'qituvchilarini ijodkorlik sari chorlaydi. Shuningdek, bizningcha boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, ularda o'quvchilar zo'r ishtiyoq va qiziqish bilan ishtirot etishadi. Shu bois tadbir turini tez-tez yangilab borish yoki uning mazmunini boyitib borish darkor bo'ladi. Bir hil mazmundagi tadbirlar ham o'quvchilarida zerikish holatlarini paydo qiladi. Alovida ta'kidlab o'tishimiz joizki, maktablarda tarbiyaviy tadbirlarning eng oqsayotgan turi bu – sayohatlardir. O'qituvchilar bilan sayohatlar yuzasidan olib borilgan suhbat ham bunga yaqqol misol bo'ladi. Ta'kidlab o'tishimiz joizki, sayohatlar sinf rahbarlari tomonidan bir o'quv yilida kamida bir marotaba tashkil etilishi lozim edi. O'qituvchilar bu masalaga o'z foliyatlari jarayonida suskashlikka yo'l qo'ymoqdalar. Ayniqa, tarixiy obidalar, o'lkashunoslik muzeylari, tabiat qo'yning uyuşhtiriladigan sayohatlar shular jumlasidandir. Bunda o'qituvchilar ayrim sabablarni ko'rsatdilar, to'g'ri o'qituvchilarining bu borada imkoniyatlari ham cheklangandir, ammo Qarshi shaharidagi maktab o'quvchilarini sayohatlarga olib chiqishning to'la imkoniyati mavjud. Shahar ichida joylashgan tarixiy obida, madrasa va masjidlarni o'quvchilarga ko'rsatish va ularning tarixini so'zlab berish bizningcha har tomonlama foydalidir. Qishloq joylaridagi maktablarda ham o'qituvchilar maktab ma'muriyati, ota-onalar bilan kelishgan holda sayohatlarni tashkil qilishlari mumkin. O'qituvchilar bilan olib borilgan og'zaki suhbat tahlili natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, biz tadqiqot olib borayotgan maktablarda tarbiyaviy ishlarni sinf rahbarlari baholi qudrat tashkil etib kelmoqdalar. Ularning tarbiyaviy ish rejalarini va uning muddati, mas'ul shaxslar qayd etilgan bo'lim misolida buni ko'rish mumkin. Ammo alovida ta'kidlashimiz joizki, sinf rahbarlari pedagogik texnologiyalarning tadbiriga mos turlarini tanlab, ulardan foydalansalar nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Biz tajriba-sinov ishlarini davom ettirib, tanlagan maktablarning 4-sinf o'quvchilariga test savollari bilan murojat qildik. Albatta bunda biz o'quvchilarini qanday tarbiyaviy tadbirlarga qiziqishlari yuqori ekanini bilishga qiziqdik. Test savollari quyidagicha edi. (Illova-2). Test natijalari tahlili natijalaridan ko'rish mumkinki, o'quvchilar tarbiyaviy tadbirlarda ishtirot etishni juda hohlaydilar va

ulardan katta zavq oladilar. 1-test savoliga o'quvchilarning ko'pchiligi sayohatlarni belgilashgan. Bundan ko'rindaniki, maktablarda sayohatlar kam tashkil etiladi, shu bois o'quvchilar sayohatlarda qatnashishni hohlaydilar. 2-test savoliga esa o'quvchilar barchasi "G" javob variantini belgilashgan. Demak, milliy bayramlarimizning barchasi o'quvchilarga birdek manzur, desak xato bo'lmaydi. 3-savolga o'quvchilarimizning ko'pchiligi Navro'z qanday bayram ekanini to'g'ri belgilashgan. Umuman olganda, test natijalarining tahlili ijobji. Ammo tarbiyaviy ishlarning ba'zi turlariga maktablarda kam e'tibor berilmoxda. Sayohat, ko'rik-tanlov shular jumlasidandir.

Amaliyotdagi holat natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktablarda tarbiyaviy ishlar qoniqarli ahvolda, ammo ularni zamon talablari darajasida tashkil etishga kam e'tibor berilmoxda. Ayniqa, tadbirlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi past darajada ekanligi kuzatildi. Bu borada o'qituvchilarining mas'uliyati va ijodkorligini o'stirish davr talabi ekanligi ham ma'lum bo'ldi. Shuningdek, o'qituvchilarini pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish zaruriyati ham mavjuddir.

## **2.Boshlang'ich sinflar tarbiyaviy ishlarini texnologiyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari**

Mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lif-tarbiyaning uzlusizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang'ich maktablarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lif va tarbiya jarayonining uzlusizligiga salmoqli hissa qo'shib boriladi. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdir. Xuddi dars jarayonida bo'lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o'qituvchisining vazifasi mas'uliyatlari va ahamiyatlidir. Bu mas'uliyat ulardan doimiy ravishta o'z ustida ishlashni, ijodiy mehnatni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yunaltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati- o'quvchi kundalik hayotining namoyon bo'lishidir. O'quvchi kundalik ishlarning davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirot etadi, turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirot etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqa, ular bugungi kunda o'quvchilarining milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini ustirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'zga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarining yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich

sinflarda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilar hayoti bilan ya'ni ularning mablag'istonasiqila ilk qadam qo'ygan kunlari boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 2-sentabr, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarining tug'ilgan kunlari, 8-mart, Navro'z bayrami, gullar bayrami kabilar shunday tadbirlar bevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqodni tarbiyalash ishlari bilan bog'liq holda olib boriladi. Bu tadbirlarga material tanlashda eng qimmatli manba bo'lib milliy qadriyatlar namunalari hisoblanadi.

#### O'qituvchi tarbiyaviy tadbirlarni uyuştirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim:

- tarbiyaviy tadbir aniq maqsad va reja asosida uyuştirilishi;
- tarbiyaviy tadbir o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- har bir tarbiyaviy tadbir darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- tadbir orqali boshlangich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanib borilishi darkor.

#### Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish;
2. Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish;
3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchalarini ishtiroy etishini ta'minlash;
4. O'quvchilarining imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash;
5. Tadbirni amalga oshirish;
6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.
7. Bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim.

#### Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlarga, ularning ahamiyatiga, ijtimoiy xarakteriga e'tibor berish kerak (masalan, ertak va maqollar vositasida; tarixiy mavzular yoki milliy bayramlar: "Navro'z", "Mustaqillik kuni", "Bilimlar kuni" va shu kabilalar);*
2. *Yaxshi ishtiroy etgan o'quvchilarini, sinfni mablag'iston etishni lozim;*
3. *Darsdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini izlash;*
4. *Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilishda milliy qadriyatlar ta'siri vositasida ba'zi o'quvchilarida mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish;*

#### 5. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bunday tadbirlarda zur ishtiyoq bilan qatnashadilar. Ba'zan hamma o'quvchilar ham birdek talabga javob bera olmaydilar, shu sababdan ularning ishtiroyiga asta-sekinlik bilan erishish.*

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiya ta'sir etishga intilmog'i, vatanga e'tiqod, milliy g'urur, vatan ravnaqni uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim.

Milliy qadriyatlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalash jarayonini yanada takomillashtirish, o'quvchilarini milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishtirish, ularning darsda olgan bilimlarini amalda isbotlash maqsadida turli ertaliklar, kechalar, bellashuvlar o'tkazishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Buning uchun, avvalo milliy qadriyatlar, bayramu-sayillar va urf-odatlar haqida bolalarda tushuncha hosil qilish, vatan hukmida she'rlarni yod oldirish, o'quvchilarning o'zlarini chizgan vatan manzarasi tasvirlangan suratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko'rinishlarni tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko'rildi.

Milliy bayramlarni boshlangich sinf o'quvchilarini bilan birlashtirish, avvalo o'quvchilarida ona-vatanga, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehrmuhabbat, g'urur va iftixon hissini tarbiyalaydi. Bu kabi tarbiyaviy ishlarning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiyi darsda olgan bilimlarini mustahkamlanadi, xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quvchilar birdamlikka, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Xuddi shunday ijobiya sifatlarni boshlangich sinf o'quvchilarida tarbiyalab borishda ertaliklarning o'z o'rnini bor.

**Ertaliklar** bolalar uchun juda qiziqarli, tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan tarbiya vositalaridan birdir. Ertaliklarda deyarli barcha sinf o'quvchilarini ishtiroy etadilar. Ularga tayyogarlik ko'rishning o'ziyoq bolalarda qiziqishni uyg'otadi. Bolalar ertalik munosabati bilan she'r, qo'shiqlar yodlashi, raqs tushishi va albatta milliy qadriyatlarimiz namunalari bilan tanishishi har tomonlama foydalidir.

Biz kuzatishlar olib borayotgan maktablarning aksariyat qismida ertaliklarni o'tkazishga kam e'tibor beriladi, ba'zi sinflarda umuman o'tkazilmaydi. Bu sohadagi talab va istaqlarni o'rganib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilan bir-necha bor ertaliklar uyuştirdik. Bizningcha ertaliklar quyidagi tartibda o'tkazilsa, yaxshi natija beradi:

- ertalikning mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar to'plash;
- ertalikning dasturini tuzish;
- ertalikka mehmonlar taqilif etishni rejalashtirish;
- ertalik o'tkaziladigan joyni aniqlash va bezash;
- ertalikni muvaffaqiyatli o'tkazish va qatnashchilarini rag'batlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan «Navro'z bayrami», «Mehrjon bayrami», «Gullar bayrami», «Alifbo bayrami», “Oltin kuz” va boshqa ertaliklarni uyuşdırısh mumkin.

### **Boshlang'ich sinflarda ko'rik tanlov va sayohatlarni texnologiyalashtirish**

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlardan ko'lamini kengaytirish maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilarining 3-4-sinflari o'rtasida savol-javob kechalarini o'tkazish maqsadga muvofiq. Aynan 3-4 sinf o'quvchilarini nazarda tutishimizdan maqsad, ular bu borada anchagini bilim va ko'nigmaga egalar. Ayniqsa, ular o'z sinfi «sha'nini» himoya qiladigan darajaga yetganlar. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlardan jarayonida bunday tadbirlarning o'tkazilishi alohida ahamiyatga ega. Bunda birinchidan, bolalarning bo'sh vaqtлari samarali tashkil etilsa, ikkinchidan, ularning dars davomida olgan bilimlari mustahkamlanadi. Uchinchidan esa, bolalarda uyushqoqlik, bilim olishga havas yanada ortadi. Ana shunday bellashuvlardan biri sifatida «Mening Ona Vatanim!» nomli mavzuda o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda sinf o'quvchilarini ikki guruhgaga ajratib olinadi, ularning har taraflama tengligiga e'tibor beriladi. Bu bellashuvni birinchi bosqichda sinf o'rtasida, keyinchalik, sinflar o'rtasida, maktablar o'rtasida ham uyuşdırısh mumkin. Bu tadbirni tayyorlash uchun kamida bir oy talab qilinadi. Har ikkala tomon kecha o'tkaziladigan kunni belgilab olgach, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini, maktab direktori va yordamchilarini bilan birgalikda kechaning shartlari belgilab olinadi. Bu bellashuv shartlarini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Sinfarning o'zaro tabrige. (tabrik tanlangan mavzu asosida tuziladi);
  2. Ifodali o'qish. (Mavzu yuzasidan shoirlarning she'rлarini ifodali o'qib berish, har bir sinfdan bitta bola o'qiydi);
  3. Yosh rassomlar ko'rigi. (ma'lum vaqt davomida har bir sinfning bittadan yosh rassomi tanlangan mavzu yuzasidan manzarasi aks etgan suratni chizib berishlari shart);
  4. Guruh ishtirokchilarning o'zbek xalq maqollari aytishuvi (bellashuv tanlangan mavzu asosidagi maqollardan iborat bo'lishi, unda bellashuvda guruhning barcha ishtirokchilari qatnashadalar);
- Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarmiz aks etgan ko'rinish (tanlangan mavzu vatanga, milliy qadriyatlarga nisbatan hurmatni, e'tiqodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi shart. Ko'rinish davomida o'zbek xalq laparlaridan, allalaridan, yor-yorlaridan foydalanish inobatga olinadi);
6. Savollarga tez javob qaytarish o'yini. (Savollar tanlangan mavzu asosida tuzilishi, masalan, O'zbekiston, uning tarixi, boyliklari, tabiat to'g'risida bo'lsa, quyidagi savollardan foydalanish mumkin)

- O'zbekistonning poftaxti qayer?
- O'zbekistonda nechta viloyat bor?
- O'zbekiston madhiyasi qachon va kim tomonidan yozilgan?
- O'zbekiston madhiyasi musiqasini kim bastalagan?
- O'zbekiston bayrog'ida nimalar tasvirlangan va qanday ranglar mavjud?

- O'zbekiston gerbida nimalar tasviri tushirilgan?
- Amir Temur kim bo'lgan?
- Bulbul chamanni sevar, maqolining davomini aytинг ?
- Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topgan?
- Shiroq kim bo'lgan?
- Navro'z bayrami qachon nishonlanadi?
- Qarshi shahridagi tarixiy obidalarni aytинг?
- Nega ona – vatan deyildi?
- Jaloliddin Manguberdi kim ?
- "Kamalak" bolalar tashkilotining vazifalarini aytинг ?
- Imam Buxoriy kim bo'lgan?
- Yurtimizdagи viloyatlarning nomini aytинг?
- Navro'z so'zining ma'nosini aytинг ?

7. Guruhlarning erkin sharti.

Masalan «**Ona yurtim - oltin beshigim**» nomli ko'rik-tanlovnin quyidagicha tashkil etish mumkin. Mana shunday bellashuv bohonasida o'quvchilar vatan, ona tabiat, buyuk allomalar, do'stlik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'satish, oliyjanoblik, to'riso'zlik, mehnatsevarlik to'g'risidagi ko'plab she'r va maqollarni yod oladilar, qo'shimcha manbalar bilan tanishadilar.

Bu kabi bellashuv orqali o'quvchilar dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash bilan birga, yuqorida aytganlarimizdan tashqari, o'zlariga nisbatan sinf oldidagi mas'uliyatni his qiladilar.

Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, shartlar guruhi a'zolaridan astoydil tayyorgarlik ko'rishni, vatanimiz haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishni, savollarga javob berish uchun esa darslik va ko'llanmalarga murojaat qilishni, vatanga nisbatan e'tiqodni, mehr-muhabbatni namoyon qilishlarini talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilan bu kabi ishlarga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalariha murojaat qilishlarini, (albatta o'qituvchi va ota-onalar ko'magida) shoirlarning vatan haqidagi she'rлarini yod olishlari, o'lkashunoslik muzeylariga sayohat qilishlarini uyuşdırısh shart. Chunki, mana shu ishlardan o'quvchilarning tassavvur dunyosi kengayib boradi.

Maktab sharoitida tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ham o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular bir-biridan mazmun-mohiyati, vazifasiga ko'ra farqlanadi. Huddi shunday ekskursiyalarning vazifasi ham ko'p qirralidir. Ekskursiyalar – tarbiyaviy ishlarning ommaviy turi sifatida keng qo'llanilib kelinadigan usuldir. Ayniqsa, bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilan tarixiy o'lkashunoslik manbalariga uyuşdırıladigan ekskursiyalarning ahamiyati katta. Sayohat davomida o'quvchilar bevosita tarix bilan ro'baru keladilar. Bolalar kuzatish jarayonida obyektning qaysi yillarda va kim tomonidan barpo etilganligi, uninig bugungi kundagi holati haqida ma'lumotga ega boladi. Shubhasiz, shu kuzatish jarayonida bolalarda vatanga nisbatan e'tiqod, ona-tabiatni asrash, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, insonlar mehnatini qadrlash, tarixiy obidalarni o'rganishga qiziqish, ularni kelgusi

avlodlarga meros etib qoldirish ishlarda qatnashish ko'nikmalari shakllanadi. Ekskursiyalar kunining e'lon qilinishiyoq o'quvchilarda xursandlik kayfiyatini uyg'otadi. Chunki, ekskursiyalar uyushtirish orqali bolalarda dars jarayonida hosil bo'lgan zerikish, toliqish alomatlari bartaraf etiladi. Bu yoshda bolalarning tabiat va tevarak – atrofni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ustun bo'ladi. Ularning bu ehtiyoj va qiziqishlari ekskursiyalar yordamida qondirib boriladi.

Ekskursiyalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: yon atrof bilan tanishuv, o'lkashunoslik manbalariga sayohat, muzey, tarixiy joylarga borish, kishilar mehnatini kuzatish va boshqalar. Birinchi sinflarda yon atrof bilan tanishtirish ya'ni maktab hovlisi, maktab kutubxonasi, oshxona, sport zali, o'qituvchilar xonasasi va boshqalar bilan tanishtiruv amalga oshiriladi. O'qituvchi ekskursiya paytida bolalarni tartib-intizomga, o'zini tutish qoidalariga o'rgatadi, safda yurish, oshxona va sind xonasini ozoda tutish kabi ko'nikmalarni shakllantib boradi. Asta-sekin ekskursiyalarning ko'lami kengayib boradi. Ikkinchisi, uchinchi sinflarda muzeylarga, tarixiy joylarga, san'at koshonalariga ekskursiyalar yusushtiriladi. To'rtinchi sindfa esa shahar va tumanlar, xotira maydonlarida tematik ekskursiyalar amalga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy rolni o'qituvchi bajaradi. Chunki o'qituvchi ushbu ekskursiyalar natijasida boshlangich sind o'quvchilarida vatanga e'tiqod tuyg'usini shakllantira olishi, milliy qadriyatlarimizning mazmun, mohiyati haqida tushuncha berishi kerak bo'ladi. Buning uchun boshlang'ich sind o'qituvchisining zimmasidagi vazifalar quyidagilardan iborat ekanligini e'tirof etamiz:

- o'qituvchi o'zi yashab turgan voha, shahar, qishloq haqida to'liq bilimlarga ega bo'lishi;

- o'qituvchi rahbarlikni qo'lga olgan holda, o'quvchilar diqqatini kuzatilayotgan obyektga qarata olishi;

- ekskursiyaning maqsadi, rejasini ishlab chiqishi;

- ekskursiya davomida o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmatni, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalab borishi;

- yusushtirilayotgan ekskursiya orqali Vatanga muhabbat, sadoqat, ona-vatanni asrash, vatanga e'tiqodni tarbiyalab borish ko'zda tutiladi.

Shu bilan birgalikda tashkil etilayotgan ekskursiyaning muddati oldindan belgilab qo'yilishi hamda bundan ota-onalar xabardor bo'lishi lozim. Ekskursiyalar uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik ko'rish;
2. Ekskursiyani o'tkazish;
3. Taassurotlarni xulosalash, yakunlash.

Ekskursiyalarni tashkil etishning barcha qonun-qoidalariga amal qilgan holda o'quvchilarning o'zları yashab turgan joylardagi o'lkashunoslik manbalariga sayohatni uyushtirish mumkin. Masalan "Ona shahrim kecha va bugun" mavzusiga bag'ishlab sayohat uyushtirish maqsadga muvofiq. Bunda avvalo sayohatning maqsadi belgilab olinadi.

**Sayohatning maqsadi:** Shaharda bo'layotgan o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari, shahar aholisining mehnatkashligi, kishilarning vatan ichidagi vatanni ardoqlashi, shu bilan birga kishilardagi ko'tarinkilik, xursandlik kayfiyatini kuzatish, tarixiy obidalarning qayta ta'mirlanganligi hamda bu yerlarda go'zal manzaralarining chiroy olib turishini o'quvchilarga ko'rsatish va bundan vatanparvarlik hissini tarbiyalashda unumli foydalansh.

Bunday sayohatdan bolalar zavq-shavqqa to'ladilar. Qisqa vaqt ichida shaharlарimizning ta'mirlanishi va bunda hukumatimiz va bunyodkor xalqimizning roli katta ekanligi haqida o'quvchilar ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shaharlarning milliylik bilan zamонавиylини uyg'unlashtirgan ko'rkam maskanga aylanganligini kuzatgan o'quvchilarning sayohatdan keyingi tassurotlari bir olam bo'ladi. Shu bilan birgalikda bolalarning vatanga va xalqqa bo'lgan muhabbat, g'ururi, sodiqligi, o'lsa tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqishi va milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmati yanada ortadi. Ayniqsa, tarixiy obidalarning qayta ta'mirlanib, chiroyli ziyyaratgoh va oromgohga aylantirilgani o'quvchilarda axloqiy-estetik zavq uyg'otadi, obidalar peshtoqining naqshinkor o'ymakorlik ishlari milliylikning aks etishi, o'quvchilarda o'zbek xalqi amaliy san'atiga nisbatan qiziqish va hurmati hissini tarbiyalaydi.

Sayohat taassurotlari o'qituvchilar tomonidan xulosalanadi. Xulosalash yakunida o'qituvchi o'rganilgan obyektning ahamiyatiga yana bir to'xtaladi. Ayniqsa, o'quvchilarda vatanparvarlikni tarbiyalashga alohida e'tibor beradi. Ekskursiyada faol bo'lgan, jamoat joylarida o'zlarini yaxshi tutgan bolalar rag'batlaniriladi.

O'qituvchi o'quvchilarning sayotdan olgan taassurotlarini bilish maqsadida o'quvchilarga ular kuzatgan tarixiy obidalar to'g'risida "Ona-shahrim" nomli insho yozib kelishlarini uya vazifa qilib beradi. Inshoning rejasini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Mening ona shahrim.
2. Shahardagi tarixiy obidalar va bunyodkorlik ishlari.
3. Men vatanim uchun nima qila olaman?!

#### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Tarbiyaviy ishlarni texnologoyalashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaviy ishlarning qanday turlari va yo'nalashlari mavjud?
3. Tarbiyaviy faoliyatning jarayonida qanday pedagogik texnologiyalardan foydalangansiz?
4. Pedagogik texnologiyalar tushunchasiga ta'rif bering?
5. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sizga nimalar manba bo'lib xizmat qiladi?
6. Tarbiyaviy ish rejani tuzayotganda nimalarga ko'proq ahamiyat berasisiz?
7. Faoliyatning jarayonida kasbdoshlarining tarbiyaviy ishlarni tahlil qilganmisiz, ularning kamchilik va yutuqlari nimada deb o'ylaysiz?
8. Tarbiyaviy ishlarga doir faoliyatning kim nazorat qiladi?

9. Bir o'quv yilida necha marta tadbir tashkil etasiz?
10. O'quvchilaringiz bilan sayohatlar tashkil etasizmi, uhda ko'proq nimalarga e'tibor qaratasisiz?

**Adabiyotlar:**

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008-yil.
2. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014-yil.
3. K.Koshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.:O'qituvchi 2010-yil.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.

Axmadaliyev Berdali Saydaliyevich

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**

Darslik

Muharrir:

X. Taxirov

Tehnik muharriri:

S. Melikuziva

Musahhibi:

M. Yunusova

Rahifulloevchi:

A.Ziyamuhamedov

Nashriyat lisenziya № 2044, 25.08.2020 y.

Dichimi 60x84<sup>1/16</sup> "Times new roman" garniturası, kegли 14.

O'nchi bosma usulida bosildi. Sharthli bosma tabog'i 15,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 2118684.

Osiyo tur MCHJda chop etildi.



9 7 8 9 9 4 3

9 1 6 9 9